- 3.Самый высокий процент положительных результатов IgM к вирусу краснухи (Rubella IgM) из 3-х групп исследованных обнаружен в группе до 7 лет, что соответствует возрасту проведения вакцинации к данной инфекции.
- 4.Процент Rubella IgG в группе школьников – 88,24% — это уже в 1,5 раза выше по сравнению с дошкольниками – 58,54%. Данный факт косвенно подтверждает наработку защитных антител после вакцинации. В изучении стойкого иммунного ответа к вирусу краснухи (Rubella IgG) не учитывались необходимые поствакционные концентрации, только положительные значения.
5. Распределение в 3-х группах процента серопозитивных результатов IgG к герпес-вирусной инфекции говорит о стойком гуморальном ответе после 7 лет. Это видно из отличия процента положительных результатов в группе дошкольников и взрослых в 2,17 раза, а от группы школьников - в 1,99 раз.

6. Положительные результаты IgM к цитомегаловирусу (CMV IgM) во всех возрастных группах идентичны и не превышают 6%

Таблица №2

Положительные результаты из числа обследованных

| Параметр исследования | Дошкольники | школьники | взрослые |
|-----------------------|-------------|-----------|----------|
| CMV IgG | 69,39% | 79,28% | 91,61% |
| CMV IgM | 5,88% | 5,36% | 5,75% |
| HSV I/II IgG | 44,44% | 88,79% | 96,77% |
| HSV I/II IgM | 9,23% | 17,86% | 14,13% |
| Rubella IgG | 58,54% | 88,24% | 92,58% |
| Rubella IgM | 3,57% | 5,00% | 1,78% |
| Toxo IgG | 3,66% | 7,14% | 9,55% |
| Toxo IgM | 7,27% | 0,00% | 2,61% |
| Общий итог | 19,92% | 31,53% | 35,14% |

Современная лабораторная диагностика TORCH-инфекций расширяет возможности в понимании патогенеза и способствует профилактике инфекционных заболеваний. Ранняя диагностика инфекций снижает эпидемические риски. Знания о наиболее незащищенных группах населения в плане инфицирования позволяет вовремя провести противоэпидемические (профилактические) мероприятия. В обзоре отсутствуют данные о сероконверсии к другим видам патогенов, входящих в данную группу, например: хламидии и микоплазмы, которые являются не менее опасны в отношении отдаленных последствий многих патологических состояний.

В статье не были указаны данные по гендерному признаку в связи с приоритетным большинством исследуемых лиц женского пола. Достоверность фактов различия не рассчитывалась.

ВЫВОДЫ:

1. В настоящее время лабораторная диагностика располагает достаточно чувствительными и высокоспецифичными тест-системами для выявления TORCH-инфекций серологическими методами, что было подтверждено минимальным процентом «неопределенных» результатов по всем классам и видам иммуноглобулинов.
2. Результаты исследования должны оцениваться в комплексе с клиническими и социологическими данными, что позволит выявлять процент проявления клинической симптоматики и дифференцировать ее.
3. Минимальный перечень тестов, необходимых для скрининга TORCH- профиля, должен включать антитела двух классов: IgM и IgG
4. Профилактические скрининговые лабораторные исследования помогают выявить факторы риска в иммунной системе организма и вовремя провести иммунизацию, если она необходима.
5. Подтверждена вероятность благополучного региона по распространенности *Toxoplasma gondii* по сравнению с другими регионами мира.
6. Данные результаты определения гуморальных маркеров к TORCH- профилю являются основанием для более подробного изучения полученных данных, с учетом целевых концентраций к некоторым возбудителям.

Статья носит информационный справочный характер и не является целенаправленным эпидемиологическим исследованием по распространенности TORCH-инфекций в данном регионе. Полученные данные в отношении основных возбудителей инфекций TORCH- группы являются скрининговыми и использованы для оценки специфического гуморального ответа населения.

IQTIBOSLAR | СОШКИ | REFERENCES:

1. Нахмиас А.Дж., Ли Ф.К., Бекман-Нахмиас С. Сероэпидемиологические и социологические закономерности вирусной инфекции простого герпеса в мире. Сканд. Дж. Заразить. Дис. 1990 г.
2. Никитина Г. Ю., Иванова Л. П., Зембатова С. Х., Дзуцева Ф. К., Борисенко Ю. В. Особенности диагностики и лечения токсоплазмоза у беременных. Лечащий врач (ноябрь 2011).
3. Эргашева М. Я. Особенности клинико-лабораторной диагностики энтеровирусной инфекции без поражения ЦНС //Достижения науки и образования. – 2020. – №. 1 (55). – С. 114-119.
4. Ярмухамедова Н. А., Эргашева М. Я. Клинико-лабораторная характеристика при серозном менингите энтеровирусной этиологии //Вопросы науки и образования. – 2019. – №. 27 (76). – С. 134-144.
5. Flegr J., Prandota J., Sovičková M., Israili Z. H. Toxoplasmosis--a global threat. Correlation of latent toxoplasmosis with specific disease burden in a set of 88 countries. .Public Library of Science ONE. 2014 no. 3. PMID 24662942




УДК: 616.345-008.87:575:615.2/3-036

KARIMOVA Maqsuda Axmedjonovna
IBRAXIMOVA Hamida Rustamovna
Urgench Branch of Tashkent Medical Academy
ASATOVA Nafisa Baxodirovna
Center for advanced training of medical personnel

STUDY OF CHANGES IN THE MICROBIOLOGICAL LANDSCAPE OF THE COLON UNDER THE INFLUENCE OF A GENE-MODIFIED PRODUCTS

For citation: Karimova A. Maqsuda, Ibrahimova R. Hamida, Asatova B. Nafisa. Study of changes in the microbiological landscape of the colon under the influence of a gene-modified products// Journal of Biomedicine and Practice. 2023, vol. 8, issue 1, pp.66-73

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7835234>

ANNOTATION

Objective: The study of the effect of GM-soi on the normal microflora of the colon in experimental animals.

Methods: To achieve the set goal do this, 90 toothless male feathers were involved in the study, which were divided into 3 groups: group 1 - intact white toothless feathers (n = 30) in the standard vivarium diet, not containing soybeans without GM or GM; Group 2 - white rats (n = 30) comprising soy without GM in the standard vivarium diet; Group 3 - white rats (n = 30) coated with GM soy in the standard vivarium diet. Bacteriological researches of intestinal mass of proteinaceous invertebrates were conducted. To determine the effect of GM soybeans, bacteriological studies of the colon of white outbred rats were carried out. The study studied 9 microorganisms from among the representatives of the colon microflora.

Results: Analysis of the obtained results showed that the symptoms of colon dysbacteriosis were observed at the end of the observation period in laboratory animals that consumed GM soybeans. This situation is manifested in the following: the index of Bifidobacterium spp and Lactobacillus spp was significantly reduced by 2.43 and 3.05 times in animals that consumed GM soy compared to intact rats, which was interpreted as the first element of dysbiosis formed under the influence of GM soy. It has been proven that the germination of lactose-negative strains, the absence of lactose-positive strains is the second element of colon dysbiosis. In the main group, Enterobacter spp and Proteus spp increased by 4.54 and 3.75 times, respectively, compared with the control group, which turned out to be the third element of colon dysbiosis. if the representative of the indigenous microflora - non-pathogenic Streptococcus spp in the main group significantly decreased up to 1.47 times compared with intact laboratory animals, then the quantitative indicator of Staphylococcus spp significantly increased up to 1.50 times. This intergroup discrepancy has been interpreted as the fourth element of colonic dysbiosis. A significant increase in the quantitative index of Candida spp up to 1.94 times in

outbred rats fed with GM soy, compared with those not fed with this product, is indicated as the fifth element of colon dysbiosis. GM soybeans have been shown to be the main factor causing this.

Conclusions: In 2 out of 9 studied microorganisms (Staphylococcus spp, Candida spp), intergroup differences were not revealed, they were quantitatively close to each other. If all 5 of the listed elements of dysbiosis were present in laboratory animals that consumed GM soybeans, then they clearly did not appear in white outbred rats that consumed non-GM soybeans. In intact laboratory animals (group 1) there are no signs of dysbiosis, in animals fed non-GM soy (group 2) signs of dysbiosis are poorly developed (I degree of dysbiosis), and in those fed with GM soy, signs of dysbiosis are clearly expressed (II degree of dysbiosis). This situation was explained by the unfamiliarity of GM soybean in the organism of rats, the low resistance of both studied strains of microorganisms to environmental factors.

Keywords: GMO soy, white outbred rats, normal microflora, dysbiosis.

КАРИМОВА Мақсуда Ахмеджоновна

ИБРАХИМОВА Ҳамида Рустамовна

Тошкент тиббиёт академияси Урганч филиали

АСАТОВА Нафиса Баходировна

Тиббиёт ходимларининг касбий малакасини ривожлантириш маркази

ГЕН-МОДИФИКАЦИЯЛАНГАН МАҲСУЛОТ ТАЪСИРИДА ЙЎҒОН ИЧАК МИКРОБИОЛОГИК ПЕЙЗАЖИ ЎЗГАРИШЛАРИНИ ЎРГАНИШ

АННОТАЦИЯ

Мақсад: Ген-модификацияланган соянинг тажриба хайвонлари йўғон ичак меъёрий микрофлорасига таъсирини ўрганиш.

Материал ва Методлар: Қўйилган мақсадни амалга ошириш учун жами эркак жинсига мансуб 150-180 грамм вазндаги 90 та оқ зотсиз каламушлар тадқиқотга олинди, улар 3 та гуруҳга бўлинди: 1-гуруҳ - стандарт виварий рационига бўлган, ГМ-ли ёки ГМ-сиз соя билан боқилмаган интакт оқ зотсиз каламушлар (n=30); 2-гуруҳ - стандарт виварий рационига ГМ-сиз соя киритилган оқ зотсиз каламушлар (n=30); 3-гуруҳ - стандарт виварий рационига ГМ-соя билан боқилган оқ зотсиз каламушлар (n=30). Ген-модификацияланган соянинг таъсирини аниқлаш учун оқ зотсиз каламушлар йўғон ичак массаси бактериологик текширишлар ўтказилди. Тадқиқотда йўғон ичак микрофлора вакилларида 9та микроорганизм ўрганилди.

Натижалар: Олинган натижалар таҳлили шуни кўрсатганки, ГМ-соя истеъмол қилган лаборатория хайвонларида кузатув даври охирида йўғон ичак дисбиози аломатлари кузатилган. Ушбу ҳолат қуйидагиларда намоён бўлган. *Bifidobacterium* spp ва *Lactobacillus* spp кўрсаткичи ГМ-соя билан боқилган хайвонларда интакт каламушларга нисбатан 2,43 ва 3,05 мартага ишонарли камайган, ушбу ҳолат ГМ-соя таъсирида шаклланган дисбиознинг биринчи элементи сифатида талқин этилган. ГМ-соя билан боқилган оқ зотсиз каламушларда, интактлардан фарқли равишда лактоза негатив *Escherichia coli* унган (интакт хайвонларда унмаган), шунга мос равишда лактоза мусбат *Escherichia coli* унмаган, интактларда бунинг тескараси бўлган. Лактоза негатив штаммлар униши, лактоза позитив штаммлар аниқланмагани йўғон ичак дисбиозининг иккинчи элементи эканлиги исботланган. Асосий гуруҳда *Enterobacter* spp ва *Proteus* spp назорат гуруҳига нисбатан мос равишда 4,54 ва 3,75 мартага купайгани аниқланган, бу ҳолат йўғон ичак дисбиозининг учинчи элементи эканлиги исботланган. Индиген микрофлора вакили патогенмас *Streptococcus* spp асосий гуруҳда интакт лаборатория хайвонларига нисбатан 1,47 мартагача ишонарли камайган бўлса, *Staphylococcus* spp миқдорий кўрсаткичи эса 1,50 мартагача ишонарли ошган. Бу гуруҳлараро номувофиқлик йўғон ичак дисбиозининг тўртинчи элементи сифатида талқин этилган. *Candida* spp миқдорий кўрсаткичи ГМ-соя билан боқилган оқ зотсиз каламушларда, ушбу маҳсулот билан боқилмаганларга нисбатан 1,94 мартагача ишонарли ошгани йўғон ичак дисбиозининг

бешинчи элементи сифатида кўрсатиб берилган. Бунга сабабчи бўлган асосий омил ГМ-соя эканлиги кўрсатиб берилди.

Хулоса: Ўрганилган 9 та микроорганизмдан 2 тасида (*Staphylococcus spp*, *Candida spp*) гуруҳлараро тафовут аниқланмаган, улар миқдор жиҳатдан бир бирига яқин бўлган. ГМ-соя билан боқилган лаборатория хайвонларида дисбиознинг барча келтирилган 5 та элементи мавжуд бўлса, ГМ-сиз соя истеъмол қилган оқ зотсиз каламушларда улар яққол намоён бўлмаган. Интакт лаборатория хайвонларида (1-гуруҳ) дисбиоз белгилари йўқ, ГМ-сиз соя билан боқилганларда (2-гуруҳ) дисбиоз белгилари заиф ривожланган (дисбиознинг I-даражаси), ГМ-соя билан боқилганларда дисбиоз белгилари яққол намоён бўлган (дисбиознинг II-даражаси). Бу ҳолат оқ зотсиз каламушлар организми учун соянинг нотанишлиги, ташқи муҳит омилларига ўрганилаётган иккала микроорганизм штамларининг резистентлиги пастлиги билан изоҳланди.

Калит сўзлар: ГМО-соя, оқ зотсиз каламушлар, меърий микрофлора, дисбиоз.

КАРИМОВА Максуда Ахмеджонова

ИБРАХИМОВА Хамида Рустамовна

Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии

АСАТОВА Нафиса Баходировна

Центр повышения квалификации медицинских кадров

ИЗУЧЕНИЕ ИЗМЕНЕНИЯ МИКРОБИОЛОГИЧЕСКОГО ПЕЙЗАЖА ТОЛСТОЙ КИШКИ ПОД ВЛИЯНИЕМ ГЕННО-МОДИФИЦИРОВАННОГО ПРОДУКТА

АННОТАЦИЯ

Цель: Изучение влияния генно-модифицированного сои на нормальную микрофлору толстого кишечника экспериментальных животных.

Методы: Для достижения поставленной цели были набраны общее 90 белых беспородных крыс мужского пола, в массе 150-180 грамм и они разделены на 3 группы: 1-группа крысы, которые были в стандартном виварии, которые не получавшие с ГМ-ые или без ГМ-ые соей (n=30); 2-группа - беспородные крысы, которые были в стандартном виварии в рационе получавшие без ГМ-сои (n=30); 3-группа - беспородные крысы, которые были в стандартном виварии в рационе получавшие ГМ-соей (n=30). Чтобы определить влияние ГМ-сои были проведены бактериологические исследования толстой кишки белой беспородной крыс. В исследовании изучено 9 микроорганизмов из числа представителей микрофлоры толстой кишки.

Полученные результаты: Анализ полученных результатов показал, что симптомы дисбактериоза толстой кишки наблюдались в конце срока наблюдения у лабораторных животных, потреблявших ГМ-сою. Эта ситуация проявляется в следующем: показатель *Bifidobacterium spp* и *Lactobacillus spp* достоверно снижен в 2,43 и 3,05 раза у животных, употреблявших ГМ-сою по сравнению с интактными крысами, что интерпретировалось как первый элемент дисбиоза, сформировавшийся под влиянием ГМ-сои. У белых беспородных крыс, кормленных ГМ-соей, в отличие от интактных животных лактозонегативные *Escherichia coli* прорастали (у интактных животных не прорастали), соответственно лактозопозитивные *Escherichia coli* не прорастали, а все было наоборот у интактных животных. Доказано, что прорастание лактозонегативных штаммов, отсутствие лактозопозитивных штаммов является вторым элементом дисбиоза толстой кишки. В основной группе *Enterobacter spp* и *Proteus spp* увеличились в 4,54 и 3,75 раза соответственно по сравнению с контрольной группой, что оказалось третьим элементом дисбиоза толстой кишки. если представитель индигенной микрофлоры – непатогенные *Streptococcus spp* в основной группе достоверно снижались до 1,47 раза по сравнению с интактными лабораторными животными, то количественный показатель *Staphylococcus spp* достоверно увеличился до 1,50 раз. Это межгрупповое несоответствие было интерпретировано как четвертый элемент дисбиоза толстой кишки.

Достоверное повышение количественного показателя *Candida spp* до 1,94 раза у белых беспородных крыс, кормленных ГМ-соей, по сравнению с не кормленными этим продуктом, указывается как пятый элемент дисбиоза толстой кишки. Было показано, что основным фактором, вызывающим это, является ГМ-сои.

Выводы: У 2-х из 9-ти исследованных микроорганизмов (*Staphylococcus spp*, *Candida spp*) межгрупповые различия не выявлены, они количественно были близки друг к другу. Если все 5 перечисленных элементов дисбиоза присутствовали у лабораторных животных, употреблявших ГМ-сою, то они явно не проявлялись у белых беспородных крыс, употреблявших не-ГМ сою. У интактных лабораторных животных (группа 1) признаки дисбиоза отсутствуют, у животных, кормленных не-ГМ соей (группа 2) признаки дисбиоза слабо развиты (I степень дисбиоза), а у тех, кормленных ГМ-соей, признаки дисбиоза явно выражены (II степень дисбиоза). Такое положение объяснилась незнакомостью ГМ-сои в организме крыс, низкой резистентностью обоих исследуемых штаммов микроорганизмов к факторам внешней среды.

Ключевые слова: ГМО-соя, белые беспородные крысы, нормальная микрофлора, дисбиоз.

КИРИШ. Йўғон ичак микрофлораси организмда турли биологик жараёнларда катнашади. Йўғон ичак меъерий микрофлораси турли зарарли омиллар таъсирида нормал микрофлора вакиллари сифатий ва микдорий жиҳатдан мувозанати бузилиши билан тавсифланади ҳамда ичак дисбиозига олиб келувчи омилларга кўплаб физик, кимёвий ва биологик омилларни мисол қилиш мумкин.

Бугунги кунда аҳолига юқори малакали тиббий ёрдам кўрсатиш, ген-модификацияланган маҳсулотларнинг узок вақт давомида таъсир даражасини аниқлаш, озик-овқат бўйича тиббий-биологик хавфсизликни таъминлаш бўйича кенг қамровли ишлар амалга оширилмоқда. Мамлакатимизда ва жаҳонда ген-модификацияланган (ГМ) маҳсулотларнинг одам организмга турлича таъсири борасида кўплаб илмий ишлар қилинган бўлиб, тадқиқотчилар фикрлари бу борада ҳар хил бўлмоқда, инсон организмга ген-модификацияланган маҳсулотларнинг салбий таъсири йўқ, деган фикрлар билан бир қаторда, организмга бир қатор салбий таъсири исботлаб берилган илмий тадқиқот ишлар ҳам талайгина [2, 7, 9]. Мамлакатимизда салбий таъсири бор деган фикрларни тасдиқловчи илмий ишларга ГМ-маҳсулотнинг тажрибада иммун тизимига [1], жигар ва ошқозон ости безига [8], тимус ва талокқа [10] салбий таъсири исботлаб берилган, шунингдек гематологик, биокимёвий ўзгаришлар, мутаген ҳамда репродуктив фаолиятга [5, 6], суяк кўмиги хужайраларига [11] салбий таъсири борлиги кўрсатилган ишлар ҳам мавжуд.

МАҚСАД: Юқоридагиларни ҳисобга олган ҳолда тадқиқот мақсади ген-модификацияланган соянинг тажриба хайвонлари йўғон ичак меъерий микрофлорасига таъсирини ўрганиш бўлди.

МАТЕРИАЛ ВА УСУЛЛАР. Бунинг учун жами эркак жинсига мансуб 150-180 грамм вазндаги 90 та оқ зотсиз каламушлар тадқиқотга олинди ва улар 3 та гуруҳга ажратилди: 1-гуруҳ - стандарт виварий рационига бўлган, ГМ-ли ёки ГМ-сиз соя билан боқилмаган интакт оқ зотсиз каламушлар (n=30); 2-гуруҳ - стандарт виварий рационига ГМ-сиз соя киритилган оқ зотсиз каламушлар (n=30); 3-гуруҳ - стандарт виварий рационига ГМ-соя билан боқилган оқ зотсиз каламушлар (n=30).

Илмий тадқиқотда лаборатория хайвонлари билан ишлашнинг этик тамойиллари ва биологик хавфсизлик қоидаларига қатъий амал қилинди [5].

Оқ зотсиз каламушлар йўғон ичак массаси бактериологик лабораторияга етказилгач, бактериологик текширишлар натижасида тегишли озик муҳитлар (Блаурокк, СРМ-4 (МРС-4), Эндо, Сабуро муҳитлари, тухум-сарикли агар ва бошқалар) ёрдамида Bergy's Manual Systematic Bacteriology (1997) бўйича қуйидаги микроорганизмлар идентификация ва дифференциация қилинди: *Bifidobacterium spp*, *Lactobacillus spp*, *Escherichia coli*, *Enterobacter spp*, *Proteus spp*, *Staphylococcus spp*, *Streptococcus spp*, *Candida spp*. Авлодлараро ва турлараро

идентификация «HiMedia» (Хиндистон) фирмаси озик мухитларидан фойдаланган ҳолда бажарилди.

Натижаларни статистик ишлаш анъанавий вариацион статистика усуллари ёрдамида амалга оширилди, тадқиқотларни ташкил этиш ва ўтказишда далилларга асосланган тиббиёт тамойилларига амал қилинди.

НАТИЖАЛАР ВА УЛАРНИНГ МУҲОКАМАСИ. Ўрганилган 9 та йўғон ичак микрофлораси вакиллари бўлган микроорганизмлардан 7 тасида (77,78%) ишонарли ўзгаришлар аниқланган, шуни ҳам таъкидлаш жоизки, микроорганизмлар миқдорий кўрсаткичлари меъёрига нисбатан (1-гурух) турлича йўналишларда ўзгарган (1-жадвал). Фақатгина *Escherichia coli* билан боғлиқ кўрсаткичлар ҳар иккала гуруҳда ишонарли ўзгармаган, Лактоза мусбат ва лактоза манфий *Escherichia coli* миқдорий кўрсаткичлари бир-бирига яқин бўлган ($P > 0,05$).

Ўтказилган таҳлил шуни кўрсатганки, 2-гурухда (ГМ-сиз соя истеъмол қилган) назорат гуруҳига нисбатан миқдорий кўрсаткичлар ишонарли равишда камайиши йўғон ичак меъёрий индиген микрофлораси вакиллари орасида кузатилган. *Bifidobacterium spp* нинг камайиши 1,28 мартани ташкил этган бўлса ($P < 0,05$), *Lactobacillus spp* бўйича бу камайиш 1,53 марта бўлган ($P < 0,05$). Бу ҳолат 2-гурух лаборатория хайвонлари йўғон ичагида дисбиотик ҳолатга олиб келувчи жараёнлар бошланиб, бунинг биринчи белгиси эканлиги таъкидланган.

1-жадвал

ГМ-ли ва ГМ-сиз озик рационида бўлган оқ зотсиз каламушлар йўғон ичак микрофлораси миқдорий ҳолати, Ig КХҚБ/мл

| Микроорганизмлар | Назорат гуруҳи, n=30 | Таққослаш гуруҳи, n=30 | Асосий гуруҳ, n=30 |
|---------------------------------------|----------------------|------------------------|--------------------|
| <i>Bifidobacterium spp</i> | 5,10±0,2 | 4,00±0,1 | 2,10±0,1* ^ ↓ |
| <i>Lactobacillus spp</i> | 6,10±0,2 | 4,00±0,1 | 2,00±0,2* ^ ↓ |
| <i>Escherichia coli</i> (лактоза "+") | 5,15±0,2 | 5,00±0,2 | 0 ↔ |
| <i>Escherichia coli</i> (лактоза "-") | 0 | 0 | 5,30±0,3* ↑ |
| <i>Enterobacter spp</i> | 1,20±0,1 | 5,00±0,2 | 5,45±0,2* ^ ↑ |
| <i>Proteus spp</i> | 0,80±0,1 | 5,00±0,2 | 3,00±0,1* ^ ↑ |
| <i>Staphylococcus spp</i> | 4,10±0,1 | 5,00±0,2 | 6,15±0,2* ^ ↑ |
| <i>Streptococcus spp</i> | 6,30±0,3 | 4,00±0,2 | 4,30±0,2* ↓ |
| <i>Candida spp</i> | 3,60±0,1 | 7,00±0,1 | 7,00±0,4* ↑ |

Эслатма: *-1- ва 3-гурухлар орасидаги ишонарли фарқ белгиси; ^ - 2-ва 3-гурухлар орасидаги ишонарли фарқ белгиси; ↑, ↓ - ўзгаришлар йўналишлари; ↔ - ишонарли фарқ мавжуд эмас.

Юқоридагига ўхшаш ҳолат *Streptococcus spp* бўйича ҳам кузатилган, унинг йўғон ичакдаги концентрацияси назорат гуруҳига нисбатан 1,58 мартага ишонарли камайган ($P < 0,05$). Бу ҳолат ҳам дисбиотик жараён дебачаси сифатида талқин қилинган. Назорат гуруҳидан фарқли равишда 2-гурухда фақат битта ташқи таъсир воситаси (соя) борлигини ҳисобга олсак, бу ўзгаришлар унинг таъсирида эканлиги, хайвонлар организми учун бу нотаниш маҳсулот бўлганлиги сабабли ичак индиген микрофлораси миқдорий параметрлари пасайиши вақтинчалик ҳолат сифатида талқин этилган.

Назорат гуруҳи лаборатория хайвонлари кўрсаткичларига нисбатан таққосланаётганда гуруҳ параметрларидаги миқдорий кўпайиш асосан энтеробактериялар ва коагулазамусбат коккларга тўғри келгани таъкидланган, уларнинг йўғон ичак факультатив микрофлорасига кириши, қулай шароитга тушганда патогенлик хусусиятини номоён қилишини ҳисобга олсак, ушбу биотопда индиген ва факультатив микроорганизмлар мувозанати бузилгани кузатилган. Чунончи, 2-гурухда миқдорий ошиш *Enterobacteriaceae* оиласи вакиллари *Enterobacter spp* ва *Proteus spp* да кузатилган – мос равишда 4,17 марта ($P < 0,001$) ва 6,25 марта ($P < 0,001$). Ушбу микроорганизмлар миқдорий ошиши йўғон ичакдаги дисбиоз жараёнларнинг бошланиши сифатида талқин этилган.

Шунга ўхшаш натижа, аммо кам интенсивликда *Staphylococcus spp* бўйича ҳам кузатилган. Ушбу микроорганизм миқдорий пасайиши тенденцияси интенсивлиги грамманфий бактерияларга қараганда камроқ бўлган. Назорат ($4,10 \pm 0,1$ lg КХҚБ/мл) ва таққослаш ($5,00 \pm 0,2$ lg КХҚБ/мл) гуруҳлари орасидаги фарқ 1,58 мартани ташкил қилиб, интакт хайвонлар фойдасига бўлган ($P < 0,05$).


Илмий ишнинг кейинги босқичида стандарт виварий рационига ГМ-соя қўшилган оқ зотсиз каламушлар йўғон ичак микробиоценози миқдорий кўрсаткичларини солиштирма ўрганилган.

Йўғон ичак микрофлорасини ташкил этувчи микроорганизмлар миқдорий кўрсаткичлари таҳлил этилганда, уларнинг барчасида гуруҳлараро тафовут борлиги аниқланган, ушбу фарқлар барча 9 та микроорганизмлар бўйича кузатилган.

Энг чуқур миқдорий ўзгаришлар *Bifidobacterium spp* бўйича кузатилгани эътиборли ҳолат – мос равишда $2,10 \pm 0,1$ lg КХҚБ/мл га (3-гуруҳ) қарши $5,10 \pm 0,2$ lg КХҚБ/мл (1-гуруҳ), камайиш 2,43 мартани ташкил этган ($P < 0,001$). *Lactobacillus spp* бўйича ҳам миқдорий кўрсаткичлар пасайиши тенденцияси ва интенсивлиги бифидобактериялар билан бир хил бўлган – мос равишда $2,00 \pm 0,2$ lg КХҚБ/мл га (3-гуруҳ) қарши $6,10 \pm 0,2$ lg КХҚБ/мл (1-гуруҳ) миқдорий камайиши ўртача 3,05 мартани ташкил қилган ($P < 0,001$). Назорат гуруҳига нисбатан ГМ-соя билан боқилган гуруҳда индиген микрофлора вакиллари 2,43-3,05 мартагача ишонарли пасайиши ушбу биотопда кечадиган дисбиотик жараёнлар бошланиши эканлиги аниқланган.

Йўғон ичак меъерий микрофлораси бошқа вакили бўлган *Escherichia coli* миқдорий кўрсаткичини ўрганишда бошқача манзарага гувоҳ бўлдик. Лактозани парчалаш қобилиятига эга, патогенмас ушбу грамманфий бактериялар назорат гуруҳида $5,15 \pm 0,2$ lg КХҚБ/мл миқдорида ундириб олинган бўлса, 3-гуруҳга мансуб оқ зотсиз каламушлар йўғон ичагидан олинган биологик ашёдан улар унмаган. Аммо, лактозани парчалаш хусусиятини йўқотган, шунинг ҳисобига патогенлик қобилиятига эга бўлган *Escherichia coli* штамлари $5,30 \pm 0,3$ lg КХҚБ/мл миқдорида унгани ҳолда, назорат гуруҳида ушбу штамларнинг умуман аниқланмаганлиги эътироф этилган. Бундай ҳолат ушбу биотопда ривожланаётган дисбиоз жараёнининг яна бир асосий белгиларидан биридир.

Enterobacteriaceae оиласининг бошқа вакиллари бўлган *Enterobacter spp* ва *Proteus spp* лар миқдорий кўрсаткичлари меъёр чегараларидан юқори бўлган – мос равишда $5,45 \pm 0,2$ lg КХҚБ/мл ва $3,00 \pm 0,1$ lg КХҚБ/мл. Бу рақамлар меъёр чегараларидан (мос равишда $1,20 \pm 0,1$ lg КХҚБ/мл ва $0,80 \pm 0,1$ lg КХҚБ/мл) 4,54 ва 3,75 мартага ишонарли равишда кўплиги билан тавсифланган ($P < 0,001$). Аниқланган бу кўриниш йўғон ичак дисбиотик жараёнлар шаклланишининг белгиси сифатида қаралган.



1-расм. ГМ-соя билан боқилган ва боқилмаган лаборатория хайвонлари йўғон ичаги микрофлорасидаги ўзгаришлар даражаси кўрсаткичлари, марта (1. *Bifidobacterium*

spp 2. *Lactobacillus* spp 3. *Escherichia coli* лактоза “+” 4. *Streptococcus* spp 5. *Escherichia coli* лактоза “-” 6. *Enterobacter* spp 7. *Proteus* spp 8. *Staphylococcus* spp 9. *Candida* spp).

Грамманфий бактериялардаги юқорида келтирилган кескин ўзгаришлар граммусбат коккларда кузатилмаган, микдорий кўрсаткичлар гуруҳлараро фарқ қилган бўлса ҳамки, ўзгаришлар интенсивлиги анча паст бўлган. Агар *Staphylococcus* spp 3-гуруҳда 1-гуруҳга нисбатан 1,50 марта ишонарли даражада ошган бўлса (мос равишда $6,15 \pm 0,2$ lg КХҚБ/мл га қарши $4,10 \pm 0,1$ lg КХҚБ/мл, $P < 0,05$), *Streptococcus* spp бўйича тескари манзара гувоҳи бўлинган, яъни 3-гуруҳ кўрсаткичлари назорат гуруҳига нисбатан ишонарли даражада 1,47 марта камайганлиги эътироф этилган - $4,30 \pm 0,2$ lg КХҚБ/мл га қарши $6,30 \pm 0,3$ lg КХҚБ/мл ($P < 0,05$).

ГМ-соя билан боқилган оқ зотсиз каламушлар йўғон ичагида *Candida* spp микдори ГМ-соя билан боқилмаган интакт оқ зотсиз каламушлар кўрсаткичларидан ишонарли юқори бўлган – мос равишда $7,00 \pm 0,4$ lg КХҚБ/мл га қарши $3,60 \pm 0,1$ lg КХҚБ/мл (1,94 мартага, $P < 0,001$).

Йўғон ичак меъёрий микрофлораси ҳолати, дисбиоз ривожланганлик даражаси, унинг чуқурлигини белгилаш учун кўпчилик тадқиқотлар томонидан дисбиозни баҳолаш мезонлари яратилган ва амалий соғлиқни сақлашга тақдим этилган. Шу усуллар орасида энг мақбули ўзбекистонлик олимлар Гариб Ф.Ю., Адилов Ш.К. ва Нарбаева И.Э. лар томонидан 1995 йилда тавсия этилган бўлиб, йўғон ичак микрофлораси ўзгаришлари 2 та даража билан баҳоланади.

I-даражали дисбиозда ўзгаришлар фақат индиген гуруҳ вакиллари орасида кузатилади, *Bifidobacterium* spp ва *Lactobacillus* spp лактоза мусбат *Escherichia coli* га нисбатан камаяди, ичак дисфункцияси намоён бўлмайди.

II-даражали дисбиозда индиген микроорганизмлар камайиши, факультатив шартли патоген микроорганизмлар микдори ошиб кетиши, улар орасидаги мувозанат бузилиши, ичак дисфункцияси белгилари кўринади.

Бу даражалар дисбактериоз индекси (ДИ) ёрдамида аниқланади:

ДИ I = *E. coli* КХҚБ/г/ Индиген микроорганизмлар, КХҚБ/г $< 0,1$;

Ушбу тадқиқотлар давомида олинган натижалар қуйидагича бўлган:

1-гуруҳда – $0,31 < 0,1$ (ДИ I); $0,37 < 0,5$ (ДИ II);

2-гуруҳда – $0,38 < 0,1$ (ДИ I); $0,77 < 0,5$ (ДИ II);

3-гуруҳда – $1,29 < 0,1$ (ДИ I); $3,56 < 0,5$ (ДИ II).

Интакт лаборатория хайвонларида (1-гуруҳ) дисбиоз белгилари йўқ, ГМ-сиз соя билан боқилганларда (2-гуруҳ) дисбиоз белгилари заиф ривожланган (дисбиознинг I-даражаси), ГМ-соя билан боқилганларда дисбиоз белгилари яққол намоён бўлган (дисбиознинг II-даражаси).

ХУЛОСАЛАР.

биринчидан, *Bifidobacterium* spp ва *Lactobacillus* spp кўрсаткичи ГМ-соя билан боқилган хайвонларда интакт каламушларга нисбатан 2,43 ва 3,05 мартага ишонарли камайган, ушбу ҳолат ГМ-соя таъсирида шаклланган дисбиознинг биринчи элементи сифатида талқин этилган;

иккинчидан, ГМ-соя билан боқилган оқ зотсиз каламушларда, интактлардан фарқли равишда лактоза негатив *Escherichia coli* унган (интакт хайвонларда унмаган), шунга мос равишда лактоза мусбат *Escherichia coli* унмаган, интактларда бунинг тескараси бўлган. Лактоза негатив штаммлар униши, лактоза позитив штаммлар аниқланмагани йўғон ичак дисбиозининг иккинчи элементи эканлиги исботланган;

учинчидан, асосий гуруҳда *Enterobacter* spp ва *Proteus* spp назорат гуруҳига нисбатан мос равишда 4,54 ва 3,75 мартага купайгани аниқланган, бу ҳолат йўғон ичак дисбиозининг учинчи элементи эканлиги исботланган;

тўртинчидан, индиген микрофлора вакили патогенмас *Streptococcus* spp асосий гуруҳда интакт лаборатория хайвонларига нисбатан 1,47 мартагача ишонарли камайган бўлса, *Staphylococcus* spp микдорий кўрсаткичи эса 1,50 мартагача ишонарли ошган. Бу гуруҳлараро номувофиқлик йўғон ичак дисбиозининг тўртинчи элементи сифатида талқин этилган;

бешинчидан, *Candida spp* микдорий кўрсаткичи ГМ-соя билан боқилган оқ зотсиз каламушларда, ушбу маҳсулот билан боқилмаганларга нисбатан 1,94 мартагача ишонарли ошгани йўғон ичак дисбиозининг бешинчи элементи сифатида кўрсатиб берилган.

IQTIBOSLAR | СНОСКИ | REFERENCES:

1. Алланазаров А.Х. Нуралиева Х.О. Ген-модификацияланган соянинг лаборатория ҳайвонлари иммун тизими кўрсаткичларига таъсирини қиёсий баҳолаш // Общество и инновации. - Ташкент, 2021. - №3. – С.413-422.
2. Лукашенко Т.М. Изменение веса тела крыс при потреблении сои // Материалы международной конференции «Сигнальные механизмы регуляции висцеральных функций». – Минск, 2007. – С.152.
3. Мухаммедов И.М. Клиник микробиология: шифокор-мутахассисларга лаборатор таъхис // Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2016. -632б.
4. Нуралиев Н.А., Бектимиров А.М-Т., Алимова М.Т., Сувонов К.Ж. Правила и методы работы с лабораторными животными при экспериментальных микробиологических и иммунологических исследованиях // Методическое пособие. - Ташкент, 2016. - 33 с.
5. Собирова Д.Р., Нуралиев Н.А., Гинатуллина Е.Н. Результаты исследования мутагенной активности генно-модифицированного продукта в экспериментах на лабораторных животных // Безопасность здоровья человека. – Ярославль, 2017. - №1. - С.27-31.
6. Собирова Д.Р., Нуралиев Н.А., Носирова А.Р., Гинатуллина Е.Н. Изучение влияния генно-модифицированного продукта на репродукцию млекопитающих в экспериментах на лабораторных животных // Инфекция, иммунитет и фармакология. – Ташкент, 2017. - №2 – С.195-200.
7. Шеина Н.И. Оценка патогенных свойств генно-инженерно-модифицированных микроорганизмов как один из критериев их биобезопасности // Гигиена и санитария. - Москва, 2017. - №96(3). – С.284-286.
8. Avozmotov J.E. Influence of a Genetically Modified Organism on the rat's hepatobiliary system // European journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2020. - Volume 7, Issue 8. – P.1235-1237.
9. Angers-Loustau A., Petrillo M., Bonfini L., Gatto F., Sabrina R., Patak A., Kreysa J. JRC GMO-Matrix: a web application to support Genetically Modified Organisms detection strategies // BMC Bioinformatics. – 2014. - Vol. 15, N 1. – P.417.
10. Khasanova D.A. Effect of a genetically modified product on the morphological parameters of the rat's spleen and thymus // European Journal of Molecular & Clinical Medicine. - Англия, 2020. - Vol. 7. - Issue 1.-P. 3364-3370.
11. Nuraliyev N.A., Allanazarov A.Kh. Estimation and assessment of cytogenetic changes in bone marrow cells of laboratory animals received a gene-modified product // Annals of Romanian Society for Cell Biology. - 2021. - Vol. 25, Issue 1. - P.401-411.

БИОМЕДИЦИНА ВА АМАЛИЁТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ | JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE

AKHMEDOVA Sayyora Mukhamadovna


Tashkent Medical Academy

MASHARIPOVA Khulkar Kabulovna

Urgench branch of the Tashkent Medical Academy

TOPOGRAPHY BILIARY TRACT OF CHILDREN OF DIFFERENT AGE

For citation: Akhmedova M.Sayyora, Masharipova K.Khulkar. TOPOGRAPHY BILIARY TRACT OF CHILDREN OF DIFFERENT AGE// Journal of Biomedicine and Practice. 2023, vol. 8, issue 1, pp. 74-84

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7835239>

ANNOTATION

Age-related changes in the topography of the ducts concerned the length, diameter, depth, the number of branches and the severity of anastomoses between segmental branches and between the lobar ducts. The diameter of the common hepatic duct ranged from 1.1 mm to 5.0 mm, the right hepatic duct from 0.87 mm to 3.06 mm, and the left hepatic duct from 0.89 mm to 3.03 mm in different age groups. The length of the total hepatic duct is from 4.5 mm to 35.8 mm. When considering the angles of incidence between the common hepatic and left and right ducts varies. The results showed that in children of all age groups the formation of the common hepatic duct is variable; 2 to 5 intrahepatic ducts take part in its formation, while the number of ducts coming from the right lobe of the liver prevails.

Key words: hepatic ducts, liver, postnatal ontogenesis

АХМЕДОВА Сайёра Мухамадовна

Тошкент тиббиёт академияси

МАШАРИПОВА Хулкар Кабуловна

Тошкент тиббиёт академияси Урганч филиали

ТУРЛИ ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ЎТ ЙЎЛЛАРИНИ ТОПОГРАФИЯСИ

АННОТАЦИЯ

Ўт йўлларининг диаметри, унинг ҳосил бўлиши, шохларининг сони, жигарўт йўллари ва сегментар йўлларнинг орасидаги анастомозлар ёшга қараб ўзгариши аниқланди. Умумий жигар йўлининг диаметри биз ўрганган ҳар хил ёшдаги болаларда 1,1 ммдан 5,0 ммгача, ўнг жигар йўлининг диаметри эса 0,87 дан 3,06 гача, чап жигар йўли 0,89 мм дан 3,03 гача эканлиги аниқлади. Бу вақтда умумий жигар йўлининг узунлиги 4,5 ммдан 35,8 мм гачани ташкил қилди. Чап ва ўнг жигар йўлларининг умумий жигар йўли ҳосил қилишидаги бурчаги ҳам ўзига хос хусусиятга эга. Олинган натижаларнинг ҳулосасига кўра, ўрганилган ҳамма ёшдаги болаларнинг умумий ўт йўлининг шаклланиши турлича бўлиб, унинг асосида 2-4 жигар ичи йўллари иштирок этиб, жигарнинг ўнг бўлагидан чикувчи йўл устунликга эга.

Калит сўзлар: жигар ўт йўллари, жигар, эрта постнатал онтогенез

АХМЕДОВА Сайёра Мухамадовна
Ташкентская Медицинская Академия
МАШАРИПОВА Хулкар Кабуловна

Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии

ТОПОГРАФИЯ ЖЕЛЧНЫХ ПУТЕЙ У ДЕТЕЙ РАЗНОГО ВОЗРАСТА

АННОТАЦИЯ

Возрастные изменения топографии протоков касались длины, диаметра, глубины залегания, количества ветвей и выраженности анастомозов между сегментарными ветвями и между долевыми протоками. Диаметр общего печеночного протока колебался от 1,1 мм до 5,0 мм, правого печеночного протока от 0,87 мм до 3,06 мм, а левого печеночного протока от 0,89 мм до 3,03 мм в разных возрастных группах. При этом длина объёго печеночного протока составляет от 4,5 мм до 35,8 мм. При рассмотрении углов впадения между общим печеночным и левыми и правыми протоками варьирует. Полученные результаты показали, что у детей всех возрастных групп формирование общего печеночного протока вариабельно; в его образовании принимают участие от 2 до 5 внутрпеченочных протоков, при этом количество протоков, идущих от правой доли печени преобладает.

Ключевые слова: печеночные протоки, печень, постнатальный онтогенез

Долзарблиги: Охирги ўн йилларда ўт йўлларининг жарроҳлик касалликлари жадал ривожланиши, билиар тизимнинг топографик анатомиясини ўрганишга талабни янада оширди [2]. Жарроҳлик амалиётига диагностика ва даволаш мақсадида янги замонавий, инновацион усуллар тадбиқ қилиниши қорин бўшлиғи аъзолари топографиясини янада мукамалроқ ўрганишни талаб қилмоқда [1,4]. Таъкидлаш жоизки, охирги йилларда ўт йўлларининг касалликлари ёшларни орасида ҳам кўпайиб бормоқда [5,6]. Бу эса ўз навбатида жигар, ўт пуфаги ва ўт йўллари анатомиясини чуқурроқ ўрганиш зарурлигини кўрсатади [3,7,8]. Аммо бугунги кундаги хорижий ва маҳаллий адабиётларда қорин бўшлиғи аъзоларининг анатомиясини ёшга қараб ўзгариши ва уларнинг топографиясига бағишланган тадқиқотлар етарли эмас. Адабиётлардаги маълумотлар замонавий жарроҳлик талабларини тўлиқ қондирмайди. Хозиргача илмий адабиётларда болаларнинг ўт йўлларининг ҳосил бўлиши, ривожланиши уларнинг ёшга ҳос хусусиятлари каби қатор ечилмаган муаммолар мавжуд. Адабиётларда жигаричи ўт йўлларининг жигар дарвозаси соҳасида кўшилиши ҳақида маълумотлар келтирилган. Лекин жигар ичи ўт йўлларининг эрта постнатал онтогенез даврида ёшга қараб ўзгариши ечилмаган муаммо бўлиб ҳисобланади. Шунингдек, болаларнинг жигар ичи ва ташқарисидаги ўт йўлларининг ёшга ҳос морфометрияси етарлича ўрганилмаган.

Тадқиқотнинг мақсади янги туғилган чақалоқлар, болалар ва ўсмирлардаги болаларнинг жигари, ўт пуфаги ва ўт йўллари тузилиши, шаклланишидаги ўзига ҳослик ва морфологик хусусиятларини асослашдан иборат.

Тадқиқот материал сифатида Республика суд-тиббий экспертиза илмий-амалий маркази Хоразм филиалида жигар, ўт йўллари ва овқат ҳазм қилиш тизими патологиялари билан боғлиқ бўлмаган сабабларга кўра вафот этган ҳар-хил ёшдаги 155 нафар болаларнинг мурдасидан олинган жигар, ўт пуфаги ва ўт йўлларида фойдаланилди. Уларни янги туғилган чақалоқлардан 16 ёшгача бўлган болалар ташкил қилди. Болаларни 89 нафари ўғил болалар ва 66 нафари қиз болалар бўлиб, 6 гуруҳга ажратилди.

Тадқиқотни клиник қисми Хоразм вилоятида яшовчи 52 нафар турли ёшдаги болаларнинг магнит резонанс томография, 10 нафар бола УТ текшируви орқали жигар ва ўт йўлларида шубҳа қилинган, лекин патологик ҳолатлар аниқланмаган болаларнинг жигар ва ўт пуфагини ўрганилди. Ўрганиш учун янги туғилган чақалоқлардан 16 ёшгача бўлган болалар ташкил қилди, уларнинг вазни 2,7 кг дан 62 кггачани ташкил қилди. Препаратларни

морфологик ўрганиш учун мурдадан олинган жигар, ўт пуфаги ва ўт йўллари макроскопик ўрганилди ва препаратлар тайёрланди.

Морфометрик тадқиқотларда жигарнинг умумий анатомик ўлчамлари - баландлиги, кенглиги, олдинги ва орқа ўлчамларини ўлчашдан бошланди. Жигар шакли висцерал юза - овал, учбурчак ва тўртбурчаклар контурлари билан аниқланди.

Жигар дарвозасининг узунлиги, кенглиги, чуқурлиги, шунингдек жигарнинг олд ва орқа кирраларига нисбатан жойлашиши ўлчанди. Ўт пуфагининг узунлиги, кенглиги ва жигардан ташқарида жойлашган ўт йўллариининг узунлиги ва диаметри ҳар бир ёш гуруҳларида ўлчанди. Уларнинг тармоқланишидаги ўзига хослик ўрганилди.

Барча ўрганилган болаларнинг жигар, ўт йўллари ва овқат ҳазм қилиш тизимида патологияси мавжуд бўлмаган соғлом болалар тадқиқотга жалб қилинган.

Кузатувларимиз жараёнида 2 нафар қиз болада овқат ҳазм қилиш тизимининг туғма нуқсонлари кузатилди.

Барча морфометрик ўлчовлардан сўнг жигар ичи ўт йўллариининг тармоқланишини ўрганиш мақсадида контрастли рентгенография усулидан фойдаланилди (1- расмга қаранг). Жигар ичи ўт йўллариини скипидар билан 1/1 нисбатда аралаштирилган қўрғошинни яшил ёғли бўёғи юборилиб рентгенография қилиб ўрганилди. Жигар ичи ўт йўллариининг кенглиги, тармоқланишидаги ўзига хослик, умумий жигар йўли, бўлак ўт йўллари ҳосил бўлиши, уларнинг ёшга хос хусусиятлари ўрганилди. Жигардан ташқари ўт йўллари ва жигар ичи ўт йўллариини ўрганишда бинокуляр микроскопдан фойдаланилди. Жигар ичи ўт йўллариини ўрганиш висцерал юзадан бошланди ва скальпел ёрдамида жигар паренхимаси кесиб ўт йўллариининг тармоқланиши ўрганилди. МРТ текшируви магнит резонанс томограф Philips Intern ACS-NT 1,5 T аппаратида ўтказилган.

УТТ текширувида болалар наҳорда оч қоринга ўтказилди. МРТ усулида жигарнинг ва ўт пуфагининг анатомик ўлчамлари олинди. Жигарнинг қуйидаги ўлчамлари баландлиги, кенглиги ва олдинги орқа ўлчами ўлчанди. УТ текшируви ёрдамида ўт пуфагининг жойлашиши, шакли, узунлиги, тана ва бўйин соҳасининг кенглиги аниқланди. Ҳар бир текширилган боланинг таҳлили махсус ишлаб чиқилган баённомага ёзилди.

Барча морфологик ва клиник тадқиқотлар материаллари статистик равишда Microsoft Office Excel 2007 компьютер дастури ёрдамида қайта ишланди.

Тадқиқотлар таҳлили бола туғилганидан ўсмирлик ёшигача жигарининг шакли, ўлчамларини ёшга қараб турлича ўзгаришларга учраши мумкинлигини кўрсатди. Янги туғилган ўғил болаларда жигарнинг ўртача вазни тана вазнининг 5,2% га тенг бўлиб, қиз болаларда ва ўғил болаларда деярли фарқ қилмади. Боланинг ёши ўсган сари аста-секин жигарнинг ўсиш темпи тана вазнига нисбатан секинлашади. Эмизикли даврда жигарнинг ўртача вазни тананинг 4,5 % га, эрта болалик даврида 3,8 % ни, биринчи болалик даврида 3,5 % ни, иккинчи болалик даврида 3 % ташкил қилади.

Ўсмирлик даврида жигарнинг вазни тана вазнининг 2,7 % ташкил қилиши аниқланди. Қиз болаларда эса бу нисбат қуйидагича ўзгарди янги туғилган чақалоқларда 4,9%, эмизикли даврда жигарнинг ўртача вазни тананинг 4 % га, эрта болалик даврида 3,3 % ни, биринчи болалик даврида 3,4 % ни, иккинчи болалик ва ўсмирлик даврида 2,9 % ташкил қилди.

Жарроҳлик муолажалари ўтказилаётганда жигар дарвозасининг шакли, унда жойлашган ҳосилаларнинг ҳолати муҳим аҳамият касб этади. Жигар дарвозасини топографияси жигарнинг шаклига, унинг ўлчамларига ва одамнинг ёшига боғлиқ равишда ўзгаради. Жигар дарвозасининг топографияси жигар қон томирларининг тармоқланиши, жигарни ичида ўт йўллариининг шаклланиш ҳолатидан дарак беради. Болаларда жигар дарвозаси жигарнинг висцерал юзасининг ўртасида, олдинги ёки орқа қирғоқга яқинроқ жойлашиши мумкин. Жигарнинг дарвозасини ҳолати кузатилган ўғил болаларда 42 % ҳолатда, қиз болаларда 38% ҳолатда дарвоза жигар кенглигининг ўртасида жойлашганлиги аниқланди. Жигар дарвозасининг орқа қирғоғига яқин ҳолати ўғил болаларда 36%, қиз болаларда 19% ҳолатда аниқланди. Жигар дарвозасининг олдинги қирғоғига яқин жойлашиши 22% ҳолатда ўғил болаларда, қиз болаларда 43% ҳолатда кузатилди.

Янги туғилган ва эмизикли даврдаги болаларнинг жигар дарвозасининг ёпиқ тури кўпроқ учрайди. Бизнинг кузатувларимизнинг 71% ҳолатида янги туғилган қиз болаларда, ўғил болаларнинг 67%ида жигар дарвозасининг ёпиқ тури кузатилди. Жигар дарвозасининг ёпиқ тури ўз навбатида жарроҳлик амалиётини ўтказишга қийинчилик туғдиради. Жигарнинг ўлчамларини катталашиши билан жигарнинг дарвозасини топографияси ҳам марказга силжиши билан ўзгарди. Биринчи болалик даврига келиб жигарнинг дарвозаси жигарнинг марказига тўғри келди. Ўсмирлик даврига келиб жигарнинг дарвозаси олдинги қирғоқдан 7,1 орқа қирғоқдан эса 7,3 см узоқликда жойлашади. Болаларда жигар дарвозаси жигарнинг висцерал юзасининг ўртасида, ёки олдинги ёки орқа қирғоқга яқинроқ жойлашиши мумкин.

Жигарнинг анатомик кўрсаткичлари ёшга қараб ўзгариб боради (2 -3 расмларга қаранг). Янги туғилган ўғил болаларда жигарнинг ўнг бўлаклари баландлигининг ўртача кўрсаткичлари $60 \pm 1,3$ мм, чап бўлаги эса ўртача $40,3 \pm 0,8$ мм, ўнг ва чап бўлақларнинг кенглиги эса мос равишда $27,8 \pm 0,7$ мм ва $20,2 \pm 0,4$ мм ва олдинги ва орқа ўлчами $48,5 \pm 1,1$ мм ўнг бўлаги ва чап бўлаги $22,3 \pm 1,3$ мм га тенглиги аниқланди. Янги туғилган қиз болаларда жигарнинг ўнг бўлаклари баландлигининг ўртача кўрсаткичлари $57 \pm 0,8$ мм, чап бўлаги эса ўртача $36,5 \pm 0,4$ мм, ўнг ва чап бўлақларнинг кенглиги эса мос равишда $23,2 \pm 0,5$ мм ва $15,3 \pm 0,9$ мм ва олдинги ва орқа ўлчами $43,3 \pm 0,8$ мм ўнг бўлаги ва чап бўлаги $18,3 \pm 1,1$ мм га тенглиги аниқланди. Янги туғилган болаларнинг жигарининг ўнг ва чап бўлагининг ўлчамлари бир-бирига яқин эканлиги аниқланди.

Эмизикли даврданоқ болаларда ўнг бўлакнинг чап бўлакга нисбатан кўпроқ катталашиши кузатилди. Бу даврда ўғил болаларнинг жигарининг ўлчамлари янги туғилган болаларникига қараганда ўнг бўлагининг баландлиги ва кенглиги 13% га, олдинги орқа ўлчамини 5% га катталашиши кузатилди, чап бўлагини ўлчамлари эса баландлиги 5%, кенглиги 9% ва олдинги орқа ўлчамини 10%га катталашиши кузатилди. Қиз болаларда эса жигарининг ўлчамлари бу даврда янги туғилган болаларникига қараганда ўнг бўлагининг баландлиги 12% га, кенглиги 17%, олдинги орқа ўлчамини 7% га катталашиши кузатилди, чап бўлагини ўлчамлари эса баландлиги 5%, кенглиги 15% ва олдинги орқа ўлчамини 9%га катталашиши кузатилди. Бу даврда ўғил болаларда жигарнинг ўнг бўлаклари баландлигининг ўртача кўрсаткичлари $68 \pm 0,3$ мм, чап бўлаги эса ўртача $42,7 \pm 1,2$ мм, ўнг ва чап бўлақларнинг кенглиги эса мос равишда $30,8 \pm 1,1$ мм ва $21,9 \pm 1,8$ мм ва олдинги ва орқа ўлчами $51,3 \pm 0,6$ мм ўнг бўлаги ва чап бўлаги $24,7 \pm 0,7$ мм га тенглиги аниқланди. Эмизикли даврда қиз болаларда жигарнинг ўнг бўлаклари баландлигининг ўртача кўрсаткичлари $64,3 \pm 1,1$ мм, чап бўлаги эса ўртача $38,4 \pm 1,2$ мм, ўнг ва чап бўлақларнинг кенглиги эса мос равишда $27,2 \pm 0,5$ мм ва $17,3 \pm 0,9$ мм ва олдинги ва орқа ўлчами $46,7 \pm 0,8$ мм ўнг бўлаги ва чап бўлаги $20,1 \pm 0,5$ мм га тенглиги аниқланди.

Эрта болалик даврида жигарнинг ўлчамларини эмизикли даврдагига нисбатан жадал катталашиши кузатилди. Бу ёшдаги ўғил болаларда жигарнинг ўнг бўлагининг баландлиги олдинги даврдагига қараганда 17% катталашиб ўртача $79,7 \pm 1,9$ мм, чап бўлагининг баландлиги эса 6% кўпайди ва ўртача $42,7 \pm 0,9$ ммга тенг бўлди. Ўнг ва чап бўлақларнинг кенглиги эса 34 ва 10 % га катталашди ва мос равишда ўлчами - $41,5 \pm 1,2$ мм ва $24,3 \pm 1,8$ мм ташкил қилди. Жигарнинг ўнг бўлагининг олдинги ва орқа ўлчами ўртача $59,8 \pm 1,2$ мм ва чап бўлаги $28,9 \pm 1,5$ мм га тенг бўлиб, ўсиш темпи 16 ва 17% қайд қилди. Бу даврдаги қиз болаларда жигарнинг ўнг бўлагининг баландлиги олдинги даврдагига қараганда 12% катталашиб ўртача $72,3 \pm 0,4$ мм, чап бўлагининг баландлиги эса 7% кўпайди ва ўртача $41,3 \pm 0,5$ ммга тенг бўлди. Ўнг ва чап бўлақларнинг кенглиги эса 33 ва 21 % га катталашди ва мос равишда ўлчами ўртача $36,3 \pm 1,0$ мм ва $21,1 \pm 0,5$ мм ташкил қилди. Жигарнинг ўнг бўлагининг олдинги ва орқа ўлчами ўртача $53 \pm 1,2$ мм ва чап бўлаги $25,2 \pm 1,5$ мм га тенг бўлиб, ўсиш темпи 13 ва 25% қайд қилди.

Биринчи болалик даврида жигарнинг ўлчамлари олдинги ёшга нисбатан унчалик кўп ўзгармади. Жигарнинг ўнг бўлаги баландлиги ўртача 5,6 ммга, чап бўлагининг баландлиги эса 5,7 ммга, ўнг ва чап бўлақларнинг кенглиги эса 7,8 ва 4,3 ммга ва ўнг бўлагининг олдинги ва орқа ўлчами ўртача 6 мм ва чап бўлагига бу ўлчам 4,8 ммга катталашгани аниқланди. Бу

даврда ўғил болаларда жигарнинг ўнг бўлаклари баландлигининг ўртача $87,2 \pm 0,8$ мм, чап бўлаги эса ўртача $51,2 \pm 1,2$ мм, ўнг ва чап бўлақларнинг кенглиги эса мос равишда $49,3 \pm 0,9$ мм ва $28,6 \pm 0,4$ мм ва олдинги ва орқа ўлчами $65,8 \pm 0,06$ мм ўнг бўлаги ва чап бўлаги $33,7 \pm 0,8$ мм га тенглиги аниқланди. Қиз болаларда болаликнинг бу даврида жигарнинг ўнг бўлаги баландлиги ўртача $11,8$ ммга, чап бўлагининг баландлиги эса $4,9$ ммга, ўнг ва чап бўлақларнинг кенглиги эса $8,8$ ва $4,1$ ммга ва ўнг бўлагининг олдинги ва орқа ўлчами ўртача $9,4$ мм ва чап бўлаги да бу ўлчам $4,3$ ммга катталашгани аниқланди. Қиз болаларда бу кўрсаткичлар ўртача қуйидагини ташкил қилди жигарнинг ўнг бўлаклари баландлигининг - $84,1 \pm 0,2$ мм, чап бўлаги эса ўртача $46,2 \pm 1,3$ мм, ўнг ва чап бўлақларнинг кенглиги эса мос равишда $45,1 \pm 0,3$ мм ва $25,2 \pm 0,4$ мм ва олдинги ва орқа ўлчами $62,4 \pm 0,6$ мм ўнг бўлаги ва чап бўлаги $29,5 \pm 1,2$ мм га тенглиги аниқланди.

Иккинчи болалик даврида жигарнинг ўлчамлари олдинги ёшга нисбатан ишончли ўзгаришлар кузатилди ва бу ўлчамлар қуйидагича ўзгарди: Бу ўзгариш айниқса қиз болаларда яққол акс этди. Жигарнинг ўнг бўлаги баландлиги ўғил болаларда ўртача $97,9 \pm 2,3$ мм, чап бўлагининг баландлиги эса ўртача $55,3 \pm 0,9$ мм, ўнг ва чап бўлақларнинг кенглиги эса $56,2 \pm 1,8$ мм ва $34,5 \pm 1,1$ мм ва ўнг бўлагининг олдинги ва орқа ўлчами ўртача $78,0 \pm 0,2$ мм ва чап бўлаги $38,3 \pm 2,2$ мм га тенг бўлди. Қиз болаларда эса жигарнинг ўнг бўлаги баландлиги ўртача $98,3 \pm 2,3$ мм, чап бўлагининг баландлиги эса ўртача $56,7 \pm 0,9$ мм, ўнг ва чап бўлақларнинг кенглиги эса $53,6 \pm 1,8$ мм ва $30,1 \pm 1,1$ мм ва ўнг бўлагининг олдинги ва орқа ўлчами ўртача $72,3 \pm 0,2$ мм ва чап бўлаги $36,2 \pm 2,2$ мм га тенг бўлди. Болаликнинг бу даврида жигарнинг ўнг бўлагининг баландлиги ўғил болаларда 12% га, чап бўлагининг баландлиги эса 8% га ўсди, кенглиги эса ўнг бўлақда 13% га 20% чап бўлаги катталашди. Олдинги орқа бўлақ эса ўнг бўлақда 18% га чап бўлақ эса 13% га ошганлиги аниқланди. Қиз болаларда эса ўнг бўлагининг баландлиги 16% га, чап бўлагининг баландлиги эса 22% га ўсди, кенглиги эса ўнг бўлақда 18% га 19% чап бўлаги, олдинги орқа бўлақ эса ўнг бўлақда 15% га чап бўлақ эса 22% га ошганлиги кузатилди.


Ўсмирлик даврида жигарнинг ўлчамлари олдинги ёшга нисбатан ишончли ўзгариши кузатилди. Ўсмирлик давридаги ўғил болалар жигари ўнг бўлагининг баландлиги ўртача $131,3 \pm 3,9$ мм, чап бўлагининг баландлиги эса ўртача $71,5 \pm 2,2$ мм, ўнг ва чап бўлақларнинг кенглиги эса $72,5 \pm 1,2$ мм ва $43,5 \pm 1,4$ мм ва ўнг бўлагининг олдинги ва орқа ўлчами ўртача $98 \pm 1,2$ мм ва чап бўлаги $45,3 \pm 1,2$ мм га тенгли аниқланди (1 ва 2 - расмга қаранг). Болаликнинг бу даврида жигарнинг ўнг бўлагининг баландлиги ўғил болаларда 34% га, чап бўлагининг баландлиги эса 29% га ўсди, кенглиги эса ўнг бўлақда 29% га 26% чап бўлаги катталашди. Олдинги орқа бўлақ эса ўнг бўлақда 25% га чап бўлақ эса 18% га ошганлиги аниқланди. Бу даврда жигарнинг ўлчамлари қиз болаларда қуйидагича ўзгарди. Жигарнинг ўнг бўлаги баландлиги ўртача $125,3 \pm 1,5$ мм, чап бўлагининг баландлиги эса ўртача $69,2 \pm 1,1$ мм, ўнг ва чап бўлақларнинг кенглиги эса $65,1 \pm 1,3$ мм ва $37,4 \pm 0,5$ мм ва ўнг бўлагининг олдинги ва орқа ўлчами ўртача $87,7 \pm 0,8$ мм ва чап бўлаги $40,3 \pm 0,6$ мм га тенг бўлди. Бу даврда олдинги даврга нисбатан солиштирилганида жигарнинг баландлиги ўнг бўлақда 27% га, чап бўлақда эса 22% га ошганлиги, кенглиги эса мос равишда 21 ва 24% ларга ошганлиги, олдинги ва орқа ўлчами ўнг ва чап бўлақларда 21 ва 11% га ошганлиги қайд этилди.

Жигар дарвозасининг турини баҳолаганимизда кузатувларимизнинг натижалари 55 нафар ўғил боладан $32(64\%)$ нафар болаларда жигар дарвозасининг очик тури, $16(32\%)$ нафарида аралаш тури ва $2(4\%)$ нафарида ёпиқ тури учради.


Қиз болаларда эса ёпиқ тури ўғил болаларга нисбатан кўпроқ, яъни жами 45 нафар қиз болалардан $6(13,3\%)$ нафарида ёпиқ тури, $27(60\%)$ нафарида очик тури, $12(26,6\%)$ нафарида жигар дарвозасининг аралаш тури учради.

Жигар дарвозасининг турига қараб дарвозанинг узунлиги, кенглиги ва чуқурлиги ҳам ўзгаради. Жигар дарвозасининг очик турида дарвоза венасининг ўлчамлари, жигар артериясини ва ўт йўллариининг ўлчамлари каттароқ бўлиб, бу ўша соҳада ўтказилаётган жарроҳлик амалиётига қулай шароит яратади. Жигар дарвозасининг ёпиқ турида эса дарвоза

венасининг узунлиги, жигар артерияси ва ўт йўллари узунлиги калта бўлиб, жарроҳлик амалиётида қийинчиликга сабаб бўлади.



2-расм. Ўғил болалар жигарининг ўлчамларини ёшга қараб динамикада ўзгариши



3-расм. Қиз болалар жигарининг ўлчамларини ёшга қараб динамикада ўзгариши

Жигар дарвозаси янги туғилган чақалоқларда жигарнинг орқа қирғоғига яқин жойлашади. Эрта болалик ва биринчи болалик давларида ҳам жигар дарвозасини орқа қирғоқга яқин жойлашганлиги аниқланди. Иккинчи болалик давларига келиб ва ўсмир болаларда жигар дарвозаси ўртада жойлашганлигини кўриш мумкин. Жигар дарвозасининг турига қараб жарроҳ жигар қон томирлари ва ўт йўллари тармоқланиши ҳақида хулоса қилиши мумкин. Қиз болаларда 2 нафар ҳолатларда жигар дарвозасини олдинги қирғоқга яқинроқ жойлашган турларини ҳам учратдик. Жигар дарвозасини топографияси жигарнинг шаклига, унинг ўлчамларига ва одамнинг ёшига боғлиқ равишда ўзгаради. Жигар дарвозасининг топографияси жигар қон томирларининг тармоқланиши, жигарни ичида ўт йўллари шаклланиш ҳолатидан дарак беради. Болаларда жигар дарвозаси жигарнинг висцерал юзасининг ўртасида, ёки олдинги ёки орқа қирғоқга яқинроқ жойлашиши мумкин.

Шундай қилиб болаларда кўп ҳолатларда жигар дарвозасининг ёпиқ турдаги жойлашиши учрайди. Қиз болаларда ўғил болаларга нисбатан ёпиқ тури кўпроқ учрашини аниқладик. Жигар дарвозасининг орқа қирғоқга яқин жойлашуви жарроҳлик амалиёти учун қийинчилик туғдиради.

Янги туғилган чақалоқларда ўт пуфагининг шакли кўпинча узунчоқ шаклда эканлиги аниқланди. Болаларнинг ёши катталашган сари ўт пуфагининг шакли ҳам ўзгариб борди. 29 та ҳолатда ўт пуфагининг шакли цилиндрсимон, 17 та ҳолатда ноксимон (4-расм), 6 ҳолатда узунчоқ шаклда эканлиги аниқланди.



4-расм. 7 ёшли Н исмли қиз боланинг ўт пуфагининг кўриниши. Ноксимон шаклдаги ўт пуфаги

Турли ёшдаги болаларнинг ўт пуфагини корин олдинги деворига проекциясининг турли хил вариантларини кузатдик. Ўт пуфагининг пастки қисмини қорин олд деворига жойлашиши ҳақидаги маълумотларимиз умумий қабул қилинган маълумотларга ва мурда материали бўйича олиб борилган тадқиқотларимизга мос келади.

Умумий ўт йўли турли ёшдаги болаларда жигар ўн икки бармоқли ичак бойламининг ичида жойлашиб, 80% ҳолатларда дарвоза венасидан ўнг томонда ва олдинда жойлашганлиги аниқланди. Умумий жигар йўлининг ҳосил бўлишида 2 тадан 4 тагача йўл иштирок этади. Кузатувларимизнинг барча ҳолатида ўнг жигар йўли, чап жигар йўлига қараганда калтарок эканлиги аниқланди. Умумий жигар ўт йўлининг узунлиги болаликнинг турли ёшида, 4,2 мм эмизикли болаларда ва 39,5 мм гача ўсмирлик даврида, диаметри эса мос равишда 0,95 мм дан 4,93 мм гача ўлчамда эканлигини аниқланди (1-жадвалга қarang).

1-жадвал

Умумий жигар йўлининг узунлиги ва диаметрининг ёшга қараб ўзгариши, мм

| Ёши | Узунлиги | | Диаметри | |
|-------------------------------------|--------------|-------------|--------------|-------------|
| | Ўғил болалар | Қиз болалар | Ўғил болалар | Қиз болалар |
| Янги туғилган чақалоқлар (1-10 кун) | 4,2±1,2 | 4,1±0,8 | 0,95±0,02 | 0,9±0,02 |
| Эмизикли давр (11 кун-1 ёш) | 9,9 ±1,1 | 9±0,4 | 1,4±0,09 | 1,1±0,06 |
| Эрта болалик даври (1 ёш 3 ёш) | 19,1 ±1,7* | 17,5±0,6 | 1,5±0,09 | 1,3±0,3* |
| Биринчи болалик даври (4 ёш-7 ёш) | 24,1 ±1,4 | 22,3±1,3 | 1,85±0,5 | 1,6±0,7* |
| Иккинчи болалик даври (8 ёш-12 ёш) | 29,1±2,2* | 26,4±1,6* | 2,91 ±0,2* | 2,2±1,3 |
| Ўсмирлик даври (13-16 ёш) | 39,5±2,7* | 32,9±1,1 | 4,93±1,7* | 3,8±0,8 |

Изоҳ: * - p<0,05 олдинги даврга нисбатан ишончли

Бизнинг таҳлилларимизга кўра, умумий жигар йўлининг диаметрининг ўсиш темпи кўкрак ёшидаги болаларда 27%, эрта болалик даврида 7 %, биринчи болалик даврида 23%, иккинчи болалик даврида 57% ва ўсмирлик даврида эса 71% ташкил қилди.

Умумий жигар ўт йўлини ҳосил бўлишида биз бир нечта вариантларни кўрдик.


Умумий жигар йўлининг шаклланишини оддий тури. Қиз болаларнинг 47 (71,2%) нафарида ўнг ва чап йўлларнинг қўшилишидан ҳосил бўлди. Бу анатомик вариант ўғил болаларда кўпроқни ташкил қилди, яъни, 79(88,6%) нафарида учради.

Умумий жигар йўлининг тўртта йўл қўшилишидан ҳосил бўладиган варианты. Бу вариант қиз болаларда 12(18,1%) нафарида, ўғил болаларнинг эса 6(6,7%) нафарида ҳолатда кузатилди. Бу вариант кам учрайдиган ҳолат бўлиб, 4 та йўлдан ҳосил бўлади, ўнг жигар бўлагидан чиқувчи олдинги ва орқа тармоғидан, жигарнинг квадратсимон бўлагидан чиқувчи тармоқ ҳамда чап жигар йўлининг қўшилишидан ҳосил бўлган умумий жигар йўли билан изоҳланган. Умумий жигар йўлининг ҳосил бўлишини мураккаб варианты чап жигар йўли, ўнг жигар йўлининг олдинги ва орқа тармоқлари, квадратсимон ва думли бўлакнинг йўлларининг қўшилишидан ҳосил бўлиши аниқланди. Бундай ҳолатлар камроқ кузатилиб, қиз болаларда 7(10,6%) нафар ва ўғил болаларнинг эса 4(4,4 %) нафарида кузатилди.

Умумий жигар йўли чап ва ўнг жигар йўлларининг ўзаро қўшилиш бурчаги турлича бўлиши мумкин (5-6 расмлар). Янги туғилган чақалоқларда ўнг жигар йўли умумий жигар йўлига қуйилиш соҳаси 90 градусни ташкил қилиб қиз болалар ва ўғил болаларда қуйилиш бурчаги фарқ қилмади.




5-расм. 4 ойлик боланинг жигари. Ўнг ва чап ўт йўлларининг қўшилишидан умумий жигар йўли ҳосил бўлиши.



6-расм. Чап жигар ўт йўлининг ҳосил бўлиши.

Чап жигар йўли эса 70 градус бурчак остида қуйилади. Болаликнинг кейинги даврларида ўнг жигар йўлининг қуйилиши ўғил болаларда аста секин 60-70 градусни ташкил қилди. Қиз болаларда эса 70-80 градус эканлиги аниқланди. Чап жигар йўли эса 60-70 градус бурчак остида қуйилиши аниқланди. Олинган бу хулосаларнинг амалий аҳамияти шундан иборатки, чап жигар йўли ўт суюқлигини фақатгина чап бўлақдан, квадратсимон ва думли бўлақдангина хайдаб қолмай жигарнинг ўнг бўлагидан ҳам хайдайди. Жигарнинг бундай анатомик тузилишини жигарнинг чап бўлагини резекция қилаётган пайтда инобатга олиш керак. Юқорида келтирилган маълумотлар жигарда ўтказилаётган жарроҳлик амалиётида оғир асоратлар келиб чиқишини олдини олади.

Чап жигар йўли кўпгина ҳолатларда жигарнинг чап бўйлама эгатида жойлашади, баъзан эса жигарнинг чап бўлагининг паренхимасида жойлашиши, кам ҳолатларда эса кўндаланг эгатнинг ўрта қисмида, тахминан умумий жигар йўли бошланган соҳа билан чап бўйлама эгатнинг ўрта соҳасига жойлашишини ҳам учратиш мумкин. Чап жигар ўт йўли иккита сегментдан СII ва СIII чиқаётган йўллар қўшилишидан ҳосил бўлади. Чап жигар йўлини шаклланишида сегментар СII ва СIII йўллардан ташқари жигарнинг квадратсимон ва думли бўлагидан чиқувчи йўллар ҳам иштирок этади (7-расм).



7-расм. Умумий жигар ўт йўлининг ҳосил бўлиши.

Чап жигар йўлининг шаклланишида иштирок этувчи иккита асосий йўлнинг биттаси 3 тадан 9 тагача ўт йўлларнинг қўшилишидан ҳосил бўлади. Чап жигар йўлининг узунлиги янги

туғилган чақалоқларда ўртача 1,34 ммдан ўсмир ёшидаги болаларда 59,5 ммгача, диаметри эса 0,7 мм дан янги туғилган чақалоқларда, ўсмир болаларда 4,6 мм гача эканлиги аниқланди. Чап жигар ўт йўли кузатувларимизнинг 15,7% ҳолатида 2 та ўт йўлининг қўшилишидан ҳосил бўлади. 85,6% ҳолатда чап жигар ўт йўлига жигарнинг квадратсимон бўлагидан чиқувчи ўт йўли қўйилиши аниқланди. 89,2% ҳолатда эса чап жигар йўлига думли бўлак ўт йўли ҳам қўйилиш ҳолатлари аниқланди. Шундай қилиб чап жигар ўт йўлининг шаклланишида асосий 2 та сегментдан чиқувчи йўллардан ташқари, жигарнинг квадратсимон ва думли бўлакдан чиқувчи ўт йўллари ҳам қўшилишидан ҳосил бўлади.

Ўнг жигар ўт йўли жигар дарвозасидан ўнг томонда олдинги ва орқа ўт йўлларининг қўшилишидан ҳосил бўлади. Ўнг жигар ўт йўли ўнг медиал сегмент ва ўнг латерал сегментларнинг қўшилишидан шаклланади. Бизнинг кузатувларимизнинг 20,5% ҳолатда ўнг жигар йўли шаклланмаган бўлиб, унинг ирмоқлари 1 та ҳолатда умумий ўт йўлига, 3 та ҳолатда чап жигар йўлига ва 3 та ҳолатда умумий жигар йўлига қўйилишини кузатдик. Ўнг жигар йўлининг шаклланмаган ҳолати бизнинг кузатувларимизда асосан қиз болаларда кўпроқ учради. Ўрганилган ҳолатларнинг 82,3% ҳолатларда ўнг жигар йўли ўнг медиал соҳа ўт йўллари (CV ва CVIII сегментлари ўт йўллари) ва ўнг ён соҳа (CVI ва CVII сегментлари ўт йўллари) йўлидан шаклланиши, 15,3% ҳолатларда ўнг ўт йўли бўлмаслиги аниқланди.

Ўнг жигар ўт йўли жигар дарвозасидан ўнг томонда олдинги ва орқа ўт йўлларининг қўшилишидан ҳосил бўлади. Ўнг жигар ўт йўли ўнг медиал сегмент ва ўнг латерал сегментлар ўт йўлининг қўшилишидан шаклланади. Ўнг жигар йўли мавжуд бўлмаган ҳолатларда бу йўлга қўйиладиган ўт йўллари 65,9% ҳолатда умумий ўт йўлига, қолган ҳолатларда эса чап ўт йўлига қўйилиши кузатилди. Ўнг жигар ўт йўлининг орқа тармоғи ўнг ён соҳадан ўт суюқлигини йиғади. Бу ўт йўли CVI ва CVII сегментлари ўт йўлларидан ҳосил бўлади. Ўнг жигар ўт йўлининг олдинги тармоғи эса CV ва CVIII сегментлардан чиқувчи ўт йўлларининг қўшилишидан шаклланади. Бу ўт йўлларининг ҳосил бўлишида 2 тадан 4 тагача ўт йўллари иштирок этади. Фақатгина 12 нафар ҳолатларда ўнг жигар йўли шаклланишида 3 та тармоқ иштирок этганлиги аниқланди. Чап ва ўнг жигар йўлларининг узунлиги солиштирилганда кўп ҳолатларда чап жигар йўли узунроқ эканлиги аниқланди. Лекин бу иккита йўлнинг диаметрлари бир-биридан унчалик фарқ қилмади. Ўнг жигар йўли ўткир бурчак остида қўйилиши кузатилди. Бу эса ўт суюқлигини димланмасдан ўт йўллардан чиқишига яхши шароит яратади. Ўнг жигар йўлининг узунлиги янги туғилган болаларда 2,5 мм га тенг бўлди. Бу йўлнинг диаметри эса янги туғилган болаларда 0,5 мм ни ташкил қилди. Ўсмир ёшига келиб ўнг ўт йўлининг узунлиги 48 мм га, диаметри эса 5,3 мм гача катталашганлиги аниқланди.

Жигарнинг квадратсимон бўлагидан чиқувчи ўт йўли чап медиал сегментдан яъни IV сегментдан чиқувчи ўт йўли бўлиб ҳисобланади. Жигарнинг квадратсимон бўлагидан чиқувчи ўт йўли битта ўт йўли, баъзи ҳолатларда эса 2 та ўт йўлининг қўшилишидан ҳосил бўлди. Кузатувларимиз 82% ҳолатда жигарнинг квадратсимон бўлагидан ягона йирик йўл чиқишини кўрсатди. Кўп ҳолларда кузатувларимизнинг 72,3% ҳолатида жигарнинг квадрат бўлагидан чиқувчи битта ёки бир нечта ўт йўллари чап ўт йўлига қўйилади. Бу бўлакдан чиқувчи йўллар чап жигар йўлининг ҳосил бўлишидан умумий ўт йўлига қўшилган жойигача қўйилиши мумкин. Кузатувларимизнинг 12,6% ҳолатларида жигарнинг квадратсимон бўлагидан чиқувчи бир ёки бир нечта ўт йўлининг CIII сегментига, яъни олдинги латерал сегментга тўғридан-тўғри қўйилиши аниқланди. Камроқ ҳолатларда, яъни кузатувларимизнинг 7,3% ҳолатларида жигарнинг квадратсимон бўлагидан чиқувчи бир нечта ўт йўлларининг бевосита тўғридан- тўғри умумий ўт йўлига қўйилиши кузатилди. Жигарнинг квадратсимон бўлагидан чиқувчи йўллар бир нечта бўлган пайтда, улар (3,9% ҳолатда) чап жигар ўт йўлига ва чап латерал ўт йўлига қўйилиши кузатилди. Фақатгина 1 ҳолатда биз битта квадратсимон бўлакдан чиққан 1 та ўт йўли тўғридан-тўғри умумий жигар йўлини ҳосил қилишда иштирок этишини аниқладик. Бизни эътиборимизни тортган ҳолат, жигарнинг квадратсимон бўлагидан чиқувчи ўт йўлининг чап латерал сегментга қўйилиши кузатилди. Бу ҳолат жигарда резекциялар ўтказилаётган пайтда асоратларни олиш мақсадида эътиборга олиниши шарт деб

3. Дронов А.Ф. Лапароскопия в диагностике у новорожденных и грудных детей и их лечении / Дронов А.Ф., Холостова В.В. // Эндоскоп. хир. –2004. - №6. – С. 35 – 38.
4. Ефременков А.М. Вариантная анатомия печени и желчевыводящих путей у новорожденных и грудных детей /Ефременков А.М., Игнатъев Е.М., Свиридов А.А. //Евразийский Союз Ученых .-2015.-№ 5 (14). – С. 30 – 31.
5. Орехов В. Ф. Чреспеченочные эндобилиарные вмешательства при механической желтухе // Международный журнал интервенционной кардиоангиологии. – 2004. – № 5. – С. 57–60.
6. Машарипова Х.К., Ахмедова С.М. Особенности образования общего печеночного протока у детей в постнатальном онтогенезе // Журнал: Вестник Ташкентской медицинской академии – Ташкент, 2020. №5 – С.79-81.
7. Машарипова Х.К., Машарипов С.М., Ахмедова С.М., Усмонов Р.Ж., Машарипов А.С. Anatomical Structure of Childrens Liver in Different Age //American journal of Medicine and Medical Sciences–America, 2021. 11 (5): P. 426-433. DOI:10.5923/j.ajmms.20211105.15.
8. Otte J.B., Reding R., de Ville de Goyet J. et al.Experience with living related liver transplantation in children. Acta Gastroenterol Belg 1999; 62: 355—362.
9. Should open Kasai portoenterostomy be performed for biliary atresia in the era of laparoscopy / Wong K.K., Chung P.H., Chan K.L. et al. // Pediatr. Surg. Int. – 2008. – №24. – P. 931 – 933.
10. Tajiri T., Yoshida H., Mamada Y., Taniai N., Yokomuro S., Mizuguchi Y. Diagnosis and initial management of cholangiocarcinoma with obstructive jaundice // World j. gastroenterol. – 2008. – May 21. № 14 (19). – P. 3000–3005.
11. Absence of the ductus venosus [Text] / U. Sothinathan [et al.] // Acta Pediatr. - 2006, May. - 95(5). - P. 620 - 621
12. Strazzabosco, M. Pathophysiology of cholangiopathies [Text] / M. Strazzabosco, L. Fabris, C. Spirli // J. Clin. Gastroenterol. - 2005, Apr. - 39 (Suppl. 2).-P. 90- 102. Review.
13. Nonvascular complications in pediatric liver recipients: multidetector computed tomography evaluation [Text] / N. Tutar [et al.] // Transplant. Proc. - 2006, Mar.-38(2).-P. 607-610.
14. Uflacker, R. Angiographic findings in biliary atresia [Text] / R. Uflacker, D. M. Pariente // Cardiovasc. Intervent. Radiol. - 2004, Sep-Oct. - 27(5). - P. 486 - 490.
15. Expression of osteopontin correlates with portal biliary proliferation and fibrosis in biliary atresia [Text] / P. F. Whittington [et al.] // Pediatr. Res. - 2005, Jun. -57(6).-P. 837-844.
16. Sonographic measurements of normal gallbladder sizes in children [Text] / J. H. Yoo [et al.] // J. Clin. Ultrasound. - 2003. - 31 (2). - P. 80 - 84.



УДК 616.34-002.153

AKHMEDOV Adkham Ibadullaevich

PhD

Samarkand State Medical University

FAYAZOV Abdulaziz Djalilovich

Doctor of Medical Sciences, Professor

Republican Research Center of Emergency Medicine

SOME MORPHOFUNCTIONAL CHANGES OF THE DUODENAL GLANDS IN THERMAL INJURY

For citation: Akhmedov I. Adkham, Fayazov Dj. Abdulaziz. Some morphofunctional changes of the duodenal glands in thermal injury. Journal of Biomedicine and Practice. 2023, vol. 8, issue 1, pp.85-88

<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7835247>

ANNOTATION

The dynamics of structural changes in the glands of the duodenum was studied at various times after experimental thermal injury. In the early stages after thermal injury, hypertrophy and an increase in the secretory activity of the glands occur. In later periods, dystrophic changes appear, manifested by a decrease in the number of duodenal glands and the death of their glandulocytes. The noted atrophic processes can be caused by both toxemia and hemodynamic disturbances, leading to pronounced edema of the intestinal submucosa.

Keywords: burn injury, duodenum, duodenal glands

АХМЕДОВ Адхам Ибдуллаевич

PhD

Самаркандский государственный медицинский университет

ФАЯЗОВ Абдулазиз Джалилович

Доктор медицинских наук, профессор

Республиканский научный центр экстренной медицинской помощи

НЕКОТОРЫЕ МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ ДУОДЕНАЛЬНЫХ ЖЕЛЕЗ ПРИ ТЕРМИЧЕСКОЙ ТРАВМЕ

АННОТАЦИЯ

Исследована динамика структурных изменений в железах двенадцатиперстной кишки через различные сроки после экспериментальной термической травмы. В ранние сроки после термической травмы происходит гипертрофия и возрастание секреторной деятельности желез. В более поздние сроки проявляются дистрофические изменения, проявляющиеся уменьшением числа дуоденальных желез и гибелью их glandulocytov. Отмеченные

атрофические процессы могут быть вызваны как токсемией, так и нарушением гемодинамики, приводящей в выраженному отеку подслизистой основы кишки.

Ключевые слова: ожоговая травма, двенадцатиперстная кишка, дуоденальные железы

АХМЕДОВ Адхам Ибадуллаевич

PhD

Самарканд давлат тиббиёт университети

ФАЯЗОВ Абдулазиз Джалилович

Тиббиёт фанлари доктори, профессор

Республика шошилинич тиббий ёрдам илмий маркази

ТЕРМИК ЖАРОҲАТДА ДУОДЕНАЛ БЕЗЛАРНИНГ АЙРИМ МОРФОФУНКЦИОНАЛ ЎЗГАРИШЛАРИ

АННОТАЦИЯ

Экспериментал куйиш жароҳатида термик куйиш жароҳатининг турли муддатларида ун икки бармоқ ичак безларида структур динамик ўзгаришлар кузатилди. Куйиш жароҳатининг эрта даврларида дуоденал безлар гиперплазияси ва улар секретор хужайраларининг юксак морфофункционал фаоллиги кузатилди. Кечки даврларда эса, glanduloцитларда дистрофик ўзгаришлар юзага келиб, дуоденал безларнинг кайиши ва нобуд бўлган ҳоллари кузатилди. Куйишнинг токсемия даврида атрофик жараёнларгемодинамик бузилишлар келтириб чиқариб, бу ичак шиллиқ ости қаватида ривожланган шишларга сабаб бўлиши аниқланди.

Калит сўзлар: куйиш жароҳати, ун икки бармоқ ичак, дуоденал безлар

Несмотря на достижения современной хирургии, комбустиологии и реаниматологии, диагностика, профилактика и лечение острых гастродуоденальных осложнений у обожженных людей остаются до конца не изученными, что заставляет осуществлять поиск критериев выбора индивидуального подхода у этой категории больных [6,7]. Наиболее частым видом осложнений у тяжелообожженных является поражение желудочно-кишечного тракта, сопровождающееся геморрагическим синдромом [2]. В связи с тем, что клинические признаки появления острой гастродуоденальной патологии и их осложнений у тяжелообожженных часто маскируются различной симптоматикой, большинство из них диагностируют с опозданием [5].


Центральным звеном патогенеза эрозивно-язвенных поражений желудка и двенадцатиперстной кишки при ожоговой болезни выступает повреждение слизистой оболочки, которое обусловлено дисбалансом защитных механизмов при нарастании эндотоксикоза и нарушением процессов микроциркуляции в подслизистом слое [4]. Выявление морфологических изменений внутренних органов при ожоговая травма – одна из актуальных проблем. Изучение их, особенно в органах пищеварительного тракта, расширяют патогенетические представления о происхождении и профилактики патологических изменений вследствие острых стрессов. Экспериментальные модели ожогов являются важными инструментами для изучения последствий ожогов у человека и новых стратегий лечения [1,3]. В отличие от клинических исследований, экспериментальные модели позволяют напрямую сравнивать различные аспекты ожогов в контролируемых условиях и, таким образом, предоставляют соответствующую информацию о молекулярных механизмах повреждения тканей и заживления ран, а также потенциальных терапевтических мишенях [2,6]. Именно на животных моделях возможно изучение динамики изменений всех структур органов гастродуоденальной области. В этом плане особый интерес представляет изучение гистоструктуры дуоденальных желез, выполняющих выраженную защитную функцию в 12-перстной кишке.

Целью исследования является выявление изменений в железах 12-перстной кишки при экспериментальной термической травме.

Материал и методы. Термическая травма воспроизведена у взрослых кроликов. Содержание животных и экспериментальные воздействия осуществлялись при строгом соблюдении биоэтических норм, принятых в Республике Узбекистан. Под этаминал-натриевым наркозом к выбритой части кожи в спинной области животного на 10 сек прикладывалась медная пластина размером 4x5 см, нагретая до 100°. Забой кроликов выполнялся под этаминал-натриевым наркозом с последующей перерезкой брюшной части аорты через 5 и 10 суток после воспроизведения термической травмы. 12-перстная кишка фиксирована в 12% нейтральном формалине. Затем материал проводили через спиртовую батарею и заливали в парафин. Гистологические срезы окрашивали гематоксилином и эозином.

Результаты и обсуждение. На 5 сутки после термической травмы дуоденальные железы в стенке кишки определяются в очень большом количестве, они занимают большую площадь подслизистой основы (рис.1).

Рис. 1. Тонкие ворсинки, неглубокие крипты в слизистой оболочке, большие группы желез в подслизистой основе. 12-перстная кишка кролика через 5 дней после термической травмы. Окраска гематоксилином и эозином. Об.10, ок.10.



Кроме того, гистологические признаки показывают, что железы проявляют повышенную секреторную активность. Секреторные отделы растянуты слизью, составляющие их слизистые клетки (мукоциты) полностью наполнены слизистым секретом, их ядра уплощены и отеснены к основанию клеток. Через 10 суток после термического экспериментального воздействия отмечается иная морфологическая картина поражения дуоденальных желез кроликов. Нами обнаружено, что дуоденальные железы занимают значительно меньшую площадь в подслизистой основе, по сравнению с предыдущим сроком исследования. Многие секреторные отделы дуоденальных желез содержат glanduloциты с гипохромными ядрами. В некоторых секреторных клетках отмечается кариолизис, т.е., их ядра не определяются. Вокруг групп желез наблюдается выраженный отек соединительной ткани подслизистой основы кишки. Просвет выводных протоков дуоденальных желез узкий, вокруг протоков наблюдается выраженный отек соединительной ткани (рис.2).




Рис. 2. Выводные протоки дуоденальных желез, отек между ними. 12-перстная кишка через 10 дней после термической травмы. Окраска гематоксилином и эозином. Об.40, ок.10.

Заключение. В динамике исследования последствий термической травмы в 12-перстной кишке через различные сроки после воздействия отмечаются неодинаковые реактивные проявления со стороны дуоденальных желез. В ранние сроки после термической травмы происходит гипертрофия и возрастание секреторной деятельности желез. В более поздние сроки проявляются дистрофические изменения, проявляющиеся уменьшением числа дуоденальных желез и гибелью их glanduloцитов. Отмеченные атрофические процессы могут быть вызваны как токсемией, так и нарушением гемодинамики, приводящей в выраженному отеку подслизистой основы кишки.

REFERENCES / СНОСКИ / ИҚТИБОСЛАР:

1. Дехканов Т.Д, Блинова С.А, Орипов Ф.С, Ахмедов А.И, Рахманов З.М. Морфология флюоресцирующих структур двенадцатиперстной кишки // Наука и просвещение. Пенза. - 2019. -С.183-187
2. Романенков Н.С. Возможности современных медицинских технологий в профилактике и устранении осложнений язвенной болезни желудка и двенадцатиперстной кишки у пострадавших от ожогов. Автореф.дис....канд. мед. наук. Великий Новгород. 2014.
3. Савченко С.В., Ощепкова Н.Г., Новоселов В.П., Грицингер В.А., Тихонов В.В., Кузнецов Е.В. Экспертная оценка морфологических изменений при ожоговом шоке // Journal of Siberian Medical Sciences. 2018. - С.10–18
4. Убайдуллаева В.У., Фаязов А.Ж., Туляганов Д.Б., Камилов У.Р. Морфологические изменения во внутренних органах у лабораторных животных в эксперименте при электротравме напряжением 500 В // Вестник экстренной медицины, 2019, XII (5) С.75-86.
5. Abdullahi A., Amini-Nik S., Jeschke M.G. Animal models in burn research Cell // Mol Life Sci.2014.-71(17):3241-55.
6. Akhmedov A.I., Fayazov A.D., Babajanov A.S. et al. The possibility of predicting the development of acute gastroduodenal complications in severely burned patients // XXII international correspondence scientific specialized conference «international scientific review of the problems of natural sciences and medicine». Boston. USA. 2021;P.10-15
7. Huber N.L., Bailey S.R., Schuster R. et al. Prior thermal injury accelerates endotoxin-induced inflammatory cytokine production and intestinal nuclear factor- κ B activation in mice // J Burn Care Res. 2012;33(2):279-85.
8. Rizaev J. A., Khazratov A. I., Iordanishvili A. K. Morphofunctional characteristics of the mucous membrane of the masticatory apparatus in experimental carcinogenesis //Russian Journal of Dentistry. – 2021. – Т. 25. – №. 3. – С. 225-231.
9. РАХМАНОВ Х. А., ИСЛАМОВ Ш. Э., РАХИМОВ Н. М. КЛИНИКО-МОРФОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА РАКА ПРЕДСТАТЕЛЬНОЙ ЖЕЛЕЗЫ //ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ. – 2022. – Т. 7. – №. 2.



УДК: 616.13/16.233-007.64

BLINOVA Sofya Anatolyevna

Doctor of Medical Sciences, Professor

ORIPOV Firdavs Suratovich


Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

YULDASHEVA Nilufar Bakhtiyarovna**HOTAMOVA Gulzoda Bakhodirovna**

Samarkand State Medical University

RECONSTRUCTION OF PULMONARY BLOOD VESSELS IN INFLAMMATORY PATHOLOGY

For citation: Blinova A. Sofya, Oripov S. Firdavs, Yuldasheva B. Nilufar, Hotamova B. Gulzoda. Reconstruction of pulmonary blood vessels in inflammatory pathology. Journal of Biomedicine and Practice. 2023, vol. 8, issue 1, pp. 89-92

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7835249>

ANNOTATION

Structural features of blood vessels in the areas of the lungs affected and unaffected by the inflammatory process in children with bronchiectasis were revealed. In the area affected by the chronic inflammatory process, changes in both tissue and fibrous structures of the pulmonary vessels are determined. Pathological changes in blood vessels reflect inflammatory changes in the surrounding lung parenchyma.

Keywords: lungs, bronchiectasis, pulmonary vessels

БЛИНОВА Софья Анатольевна

Тиббиёт фанлари доктори, профессор

ОРИПОВ Фирдавс Сураътович

Тиббиёт фанлари доктори, доцент

ЮЛДАШЕВА Нилуфар Бахтияровна**ХОТАМОВА Гулзода Баходировна**

Самарқанд давлат тиббиёт университети

ЯЛЛИҒЛАНИШ ЖАРАЁНИДА ЎПКА ҚОН ТОМИРЛАРИНИНГ ҚАЙТА ШАКЛЛАНИШИ

АННОТАЦИЯ

Бронхоэктаз касаллиги билан касалланган болаларда ўпканинг яллиғланиш жараёни таъсирланган ва таъсирланмаган жойларида қон томирларининг структуравий хусусиятлари аниқланди. Тадқиқот мақсади болаларда учрайдиган бронхоэктаз касалликларидagi ўпка қон

томирларнинг гистологик хусусиятларини аниқлашдан иборат. Деярли барча ўпка артерияси, венаси ва микроциркулятор қон томирлар ўзанида патологик ўзгаришлар аниқланади.

Калит сўзлар: ўпка, бронхоэктаз касаллиги, қон томирлар.

БЛИНОВА Софья Анатольевна

Доктор медицинских наук, профессор

ОРИПОВ Фирдавс Суръатович

Доктор медицинских наук, доцент

ЮЛДАШЕВА Нилуфар Бахтияровна

ХОТАМОВА Гулзода Баходиревна

Самаркандский Государственный медицинский университет

ПЕРЕСТРОЙКА ЛЕГОЧНЫХ КРОВЕНОСНЫХ СОСУДОВ ПРИ ВОСПАЛИТЕЛЬНОЙ ПАТОЛОГИИ

АННОТАЦИЯ

Выявлены структурные особенности кровеносных сосудов в пораженных и непораженных воспалительным процессом участках легких при бронхоэктатической болезни у детей. В пораженной хроническим воспалительным процессом участках определяются изменения как тканевых, так и волокнистых структур легочных сосудов. Патологические преобразования сосудов отражают воспалительные изменения окружающей паренхимы легких.

Ключевые слова: легкие, бронхоэктатическая болезнь, легочные сосуды


Кириш. Сурункали ўпка касалликлари энг кенг тарқалган касалликлардан бири ҳисобланиб, ўпканинг сурункали яллиғланиш касалликлари доимо уларнинг барча тузилмалари, ҳамда ички аъзолар қон томирларига зарар етказиши билан бирга кечади. Ушбу касалликларнинг патогенезида ўпка томирларидаги структуравий ўзгаришлар патологик оқибатларга олиб келиб, ҳаёт қобилиятларини пасайтиради. Буни ўрганиш ҳозирги замонавий терапевтик амалиётларда муҳим роль ўйнайди.

Тадқиқот мақсади. Яллиғланиш жараёнидан шикастланган ва шикастланмаган ўпка соҳалари томирларнинг гистологик тузилиши ва ўзига хос хусусиятларини очиқ бериш.

Материаллар ва усуллар. 5 ёшдан 12 ёшгача бўлган болаларда бронхоэктаз касалликларида жарроҳлик операцияси йўли билан олиниб ўпка қисмлари ўрганилди. Материалнинг турли қисмларидан 5-7 бўлак кесилиб, улар Буэн суюқлигида фиксация қилинди. Ювиш ва сувсизлатиришдан сўнг, ажратилган тўқима бўлакчалари умумий қабул қилинган усул билан парафин ёрдамида зичлаштирилди. Кесмалар Ван-Гизон ва Вейгерт, ҳамда гематоксилин ва эозин бўёқларида бўялди. Гистологик препаратлар ёруғлик-оптик микроскоп остида ўрганилди ва суратга туширилди.

Тадқиқот натижалари. Гистологик препаратларни ўрганишда ўпканинг ўзгармаган ва сурункали яллиғланиш жараёни натижасида ўзгарган қисмлари аниқланди. Аъзонинг бу қисмларида артериялар, турли диаметрдаги веналар ва микроциркулятор қон томирлари аниқланди. Яллиғланиш жараёни натижасида шикастланмаган соҳаларда қон томирлар одатий тузилишга эга. Тўқима ва толали тузилмалар яхши аниқланади. Эндотелий нормохром ядрога эга бўлган хужайралардан ташкил топган миоцитлар айлана бўйлаб жойлашган. Артерияларнинг ички ва ташқи эластик мембраналар яхши аниқланади. Веналарда эластик толалар тарқоқ холда жойлашганлиги аниқланади. Сурункали яллиғланиш билан шикастланган соҳаларда томирларнинг тузилиши ўзгарган. Катта ва ўрта калибмли артерияларнинг деворлари қалинлиги бир хил эмас. Кўпинча артериялар ўртача қавати миоцитлари тартибсиз жойлашган. Айрим миоцитларнинг цитоплазмасида вакуолалар аниқланади. Артериялар девори тузилиши ўзгариши билан бир қаторда эндотелийда ҳам ўзгаришлар кузатилади. Артерия ва веналарда эндотелий гиперхром ядроли кичик хужайралардан иборат, у ҳар доим ҳам яхлит қоплама ҳосил қилмайди. Артерия деворининг

эндотелий ости айрим қисмларида оқиш зоналар мавжуд. Эндотелотцитлар устки қисмларида вакуолалар ҳам қайд этилади. Бу эндотелотцитларда шиш мавжудлигидан дарак беради. Веналар эндотелиоцитларида ҳам ўзгаришлар мавжуд бўлиб, у цитоплазма ва ядро шишиши сифатида намоён бўлади. Эластик толалар ҳам ўзгарган.




А

Б

Расм 1. Бронхоэктаз касаллигида ўпка қон томирларининг структуравий ўзгариши. Артерия (А) ва вена (Б) қон томир эндотелий ости қавати шиши. Гематоксилин ва эозин билан бўялган. Кат. 100.

Артерияларнинг ички эластик мембранаси икки қатламли бўлиши мумкин, ташқи қавати эса баъзан аниқланмайди. Йирик артериялар ташқи пардасида кўп сонли эластик толалар зич тур ҳосил қилган ёки бирга ёпишган ҳолатда жойлашган кўп сонли эластик толалар аниқланади. Веналарда эластик строма кўп миқдордаги қалинлашган эластик толалардан иборат. Ўпканинг лимфоид тўпламлари аниқланган соҳалардаги қон томирлар деворида лимфоцитлар аниқланди. Склерозга учраган йирик соҳаларда пуччайган қон томирлар аниқланади. Бундай ҳолатда қон томирлар бўшлиғи тирқиш шаклда бўлиб, баъзан қарама қарши деворлари бир бирига ёпишган ҳолда бўлади. Бундай ўзгаришларда томирларнинг ташқи пардаси ўраб турган ташқи зич бириктирувчи тўқимага кўшилиб кетган бўлади.



Расм 2. Артерия қон томир деворининг гиперэластоз ўзгариши. Вейгерт усулида бўялган. Кат. 100.

Хулоса. Бронхоэктаз билан касалланган болалар ўпкасида сурункали яллиғланиш натижасида тўқима тузилмалари ва томирларнинг эластик толалари таркибида ҳам

Ўзгаришлар кузатилади. Қон томирларнинг патологик қайта ўзгаришлари ўпка паренхимасини ўраб турувчи яллиғланиш жараёнининг натижаси ҳисобланади.

REFERENCES/ РЕКОМЕНДАЦИИ / ИҚТИБОСЛАР:

1. Блинова С.А., Орипов Ф.С., Дехканов Т.Д. Морфофункциональные особенности нейроэпителиальных телец в респираторном отделе легких //Вестник науки и образования, 2020. № 10 (88). 3 қисм. 82-85 бет.
2. Блинова С.А., Хамидова Ф.М., Исмаилов Ж.М. Изменения структурных компонентов бронхиального секрета при бронхоэктатической болезни у детей //Вопросы науки и образования, 2019. 27(76). 16-23 бет.
3. Васина Л.В. Функциональная гетерогенность эндотелия (обзор) /Л.В. Васина, Т.Д. Власов, Н.Н. Петрищев //Артериальная гипертензия, 2017. 88-102 бет.
4. Григорьева Н.Ю., Шарабрин Е.Г., Кузнецов А.Н. Хроническая обструктивная болезнь легких: определение, механизмы развития и естественное течение //Медицинский альманах, 2008. № 5. 35-38 бет.
5. Дехканов Т.Д., Блинова С.А., Орипов Ф.С., Дехканова Н.Т. Структурная организация ампулы большого сосочка двенадцатиперстной кишки //Вестник науки и образования, 2020. № 14(92). 4 бет. 32-34 бет.
6. Кузник Б.И., Батожаргалова Б.Ц., Витковский Ю.А. Состояние иммунитета и лимфоцитарно-тромбоцитарной адгезии у детей с хроническим деформирующим бронхитом и бронхоэктатической болезнью //Медицинская иммунология, 2008. № 6(10). 583-588 бет.
7. Леонова Е.И. Эндотелиальная дисфункция при интерстициальных заболеваниях легких //Практическая пульмонология, 2017. № 3. 66-72 бет.
8. Михайлова Н.Н., Бондарев О.И., Бугаева М.С. Патоморфологические изменения сосудов сердца и легких при пневмокониозе //Медицина в Кузбассе, 2017. № 3 (16). С. 37-41.
9. Орипов Ф.С., Дехканов Т.Д., Блинова С.А. Пре- и перинатальный онтогенез тканевых и иммунных структур слизистой оболочки тонкого кишечника кроликов //Вестник науки и образования, 2020. 12 (90). 3 қисм. 97-102 бет.
10. Смирнова М.О., Розина Н.Н., Костюченко М.В., Захаров П.П., Ружицкая Е.А. Клинические и патогенетические особенности разных вариантов хронического бронхита у детей //Российский вестник перинатологии и педиатрии, 2007. Т. 52. № 3. 22-27 бет.
11. Blinova S.A., Khamidova F.M., Ismailov J.M. Congenital and acquired structures in the lungs of bronchiectasis disease in children //Вопросы науки и образования, 2018. 29(41). P. 102-103.
12. Parthasarathi K. The Pulmonary Vascular Barrier: Insights Into Structure, Function, and Regulatory Mechanisms //Adv Anat Embryol Cell Biol, 2018. 228, P. 41-61.
13. Rizaev J. A., Khazratov A. I., Iordanishvili A. K. Morphofunctional characteristics of the mucous membrane of the masticatory apparatus in experimental carcinogenesis //Russian Journal of Dentistry. – 2021. – Т. 25. – №. 3. – С. 225-231.




УДК:616-001/09.616-072/085

FAYAZOV Abdulaziz Djalilovich
Doctor of Medical Sciences, Professor
Republican Research Center of Emergency Medicine
AKHMEDOV Adkham Ibadullaevich
PhD
Samarkand State Medical University

MORPHOLOGY OF DUODENAL STRUCTURES CONTAINING STRESS MONOAMINES IN EXPERIMENTAL THERMAL INJURY

For citation: Fayazov Dj. Abdulaziz, Akhmedov I. Adkham. Morphology of duodenal structures containing stress monoamines in experimental thermal injury. Journal of Biomedicine and Practice. 2023, vol. 8, issue 1, pp. 93-98

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7835254>

ANNOTATION

Objective: To study the morphology of the structures of the gastroduodenal zone containing stress monomines in experimental burn injury.

Methods: The studies were carried out on 16 rabbits, 4 of them made up the control group. Burn injuries were modeled in 12 rabbits. The first fragments of the obtained material were frozen in a cryostat (without fixation), histotopographic sections were made from them, which were treated with a solution of glyoxylic acid according to the method of V.N. Shvalev and N.I. Zhuchkova.

Results: The morphology of adrenergic nerve structures and open-type endocrinocytes containing stress monoamines (catecholamines and serotonin) due to experimental thermal injury (trauma) was studied by luminescence-histochemical method. It is established that varicose changes of adrenergic nerve fibers and pain occur at the same time changes in the ratio of catecholamines and serotonin in the cytoplasm of open-type endocrinocytes of the diffuse endocrine apparatus of the duodenum.

Key words: duodenum, monoamine-containing structures.

ФАЯЗОВ Абдулазиз Джалилович
Тиббиёт фанлари доктори, профессор
Республика шошилич тиббий ёрдам илмий маркази
АХМЕДОВ Адхам Ибадуллаевич
PhD
Самарканд Давлат тиббиёт университети

ЎН ИККИ БАРМОҚ ИЧАК СТРЕСС МОНОАМИНЛАРИ ТУТУВЧИ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ ЭКСПЕРИМЕНТАЛ ТЕРМИК ЖАРОҲАТ ШАРОИТИДАГИ МОРФОЛОГИЯСИ

АННОТАЦИЯ

Мақсад. Экспериментал куйиш жароҳатида ўн икки бармоқ ичак стресс моноаминлари тутувчи тузилмаларининг морфологиясини ўрганиш.

Материал ва усуллар. Тадқиқотлар 16 та куёнларда олиб борилди. Улардан 4 таси назорат гуруҳини ташкил қилди. 12 та куёнда куйиш жароҳати моделлаштирилди. Олинган морфологик материалнинг дастлабки бўлакчалари криостатда музлатилиб улардан гистотопографик кесмалар тайёрланди ва уларга В.Н. Швалев ва Н.И.Жучкова услубида глиоксил кислотасининг эритмаси билан ишлов берилди. Глиоксил кислотаси билан ишлов берилган кесмалар люминесцент микроскопда ўрганилди ва расмга олинди.

Наижаалар. Люминесцент-гистохимик услубда ўн икки бармоқ ичакнинг флюоресценцияланувчи стресс моноаминлар (катехоламинлар ва серотонин) тутувчи тузилмаларининг морфологияси экспериментал термик жароҳат шароитида ўрганилган. Бунда адренергик нерв толаларининг варикоз ўзгаришлари ва ўн икки бармоқ ичак диффуз эндокрин аппаратининг очиқ типдаги эндокриноцитлари цитоплазмасида катехоламинлар ва серотониннинг миқдорий нисбати ўзгариши аниқланган.

Хулоса. Тажрибадаги термик жароҳатда ўн икки бармоқ ичакнинг қон томирлари деворида ва шиллик пардаси эпителияси таркибидаги стресс моноаминларини тутувчи тузилмаларида морфологик ва люминесцент-гистохимик ўзгаришлар кузатилади. Бу эса ўн икки бармоқ ичак функционал фаолиятининг издан чиқишига ва унда патологик ўзгаришлар пайдо бўлишига олиб келган.

Калит сўзлар: ўн икки бармоқ ичак, термик жароҳат, люминесцент микроскопия, моноамин тутувчи тузилмалари.

ФАЯЗОВ Абдулазиз Джалилович

Доктор медицинских наук, профессор

Республиканский научный центр

экстренной медицинской помощи

АХМЕДОВ Адхам Ибадуллаевич

PhD

Самаркандский государственный

медицинский университет

МОРФОЛОГИЯ СТРЕССОВЫЕ МОНОАМИНЫ СОДЕРЖАЩИХ СТРУКТУР ДВЕНАДЦАТИПЕРСТНОЙ КИШКИ ПРИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ ТЕРМИЧЕСКОЙ ТРАВМЕ

АННОТАЦИЯ

Цель исследования. Изучить морфологию структур гастродуоденальной зоны, содержащих стрессовые моноамины, при экспериментальной ожоговой травме.

Материалы и методы исследования. Исследования проведены на 16 кроликах, 4 из них составили контрольную группу. Ожоговые травмы моделировали у 12 кроликов. Первые фрагменты полученного материала замораживали в криостате (без фиксации), из них делали гистотопографические срезы, которых обработали раствором глиоксиловой кислоты по методу В.Н.Швалева и Н.И.Жучковой.

Результаты исследования. Люминесцентно-гистохимическим методом изучена морфология адренергических нервных структур и эндокриноциты открытого типа, содержащие стрессовые моноамины (катехоламин и серотонин) при экспериментальной термической травме. Установлено что при этом происходят варикозные изменения адренергических нервных волокон и изменение соотношения катехоламинов и серотонина в

цитоплазме эндокриноцитов открытого типа диффузного эндокринного аппарата двенадцатиперстной кишки.

Выводы. Болевой стресс при экспериментальной термической травме вызывает морфологические и люминесцентно-гистохимические изменения в регуляторных структурах стенки двенадцатиперстной кишки, содержащие стрессовые моноамины. Эти морфологические изменения в комплексе могут привести к нарушению функциональной деятельности кишечника и появлению в нем патологических изменений.

Ключевые слова: двенадцатиперстная кишка, моноамин содержащие структуры.

Ички аъзолар ва қон томирларининг адренергик (симпатик, моноаминергик) нерв тузилмалари морфологиясини [5,6,7] ва клиник аспектларини [2,3] ўрганиш XXI асрда ҳам давом этмоқда. Шунингдек, симпатик нерв системасининг ангиогенез патологиясидаги иштирокига доир илмий тадқиқот ишлар ҳам мавжуд [8].

Оғир куйишларда ички аъзолардаги морфологик ўзгаришларни аниқлаш долзарб муаммолардан бири саналади. Айниқса, ҳазм найи аъзоларидаги морфологик ўзгаришларни ўрганиш, ўткир стресслар туфайли уларда яраларнинг келиб чиқиши ва профилактикаси борасидаги патогенетик концепцияни кенгайтиради. Стресс жараёни эса қонда катехоламинларнинг (адреналин, норадреналини) ва серотониннинг ортиши аъзолар ва улар қон томирларининг фаолиятига таъсир қилиш билан кечади. Бу жиҳатдан олиб қаралганда, термик жароҳат шароитида ана шу моноаминларни тутувчи ва уларнинг концентрациясига жавобан функционал фаолиятини мослаштирувчи моноаминергик (адренергик ва серотонинергик) нерв тузилмаларининг ва улар шиллиқ пардасининг эпителияси таркибида жойлашган шу моноаминларни тутувчи очиқ типдаги эндокрин хужайраларининг ва нерв тузилмаларининг морфологиясини ўрганиш патогенетик жиҳатдан долзарб муаммодир. Бу моноаминлардан адреналин ва норадреналин симпатик нерв системасининг медиатори эканлигини, серотонин эса ички аъзолар силлиқ мушак тўқимаси фаолиятини бошқаришини кўзда тутсак, термик жароҳат шароитида ўн икки бармоқ ичак қон томирларининг адренергик (симпатик) иннервацияси ҳолатини ва диффуз эндокрин системасининг очиқ типдаги эндокрин хужайраларининг ҳолатини термик жароҳат таъсиридаги ўзгаришларини баҳолаш бугунги кун морфологиясининг долзарб муаммоларидан бири эканлиги аён бўлади.

Термик жароҳатга жавобан бу соҳаларнинг морфологиясига бағишланган тадқиқотлар мавжуд. Аммо термик стрессга жавобан бу аъзоларни маҳаллий бошқарувчи системалар - улар қон томирларининг адренергик тузилмалари ва диффуз (дисперс) эндокрин системали стресс моноаминларини тутувчи очиқ типдаги эндокриноцитларининг морфологияси етарли ўрганилмаган. Диффуз эндокрин системасининг очиқ типдаги хужайралари эса организмнинг экстремал таъсирларни "бирламчи сезувчи ва уларга бирламчи жавоб кўрсатувчи ва химоя системаси" эканлиги аниқланган [4].

Диффуз эндокрин система хужайралари ҳазм найи аъзоларининг ички шиллиқ пардаси эпителиясининг таркибида якка-якка жойлашган бўлиб, кўпчилигининг апикал қисми эпителий юзасига етиб борадиган (очиқ типдаги эндокриноцитлар) ва ҳазм аъзолари бўшлиғининг ички юзасидаги хеморецептор ўзгаришларга ва хеморецептив таъсирларга дастлаб дуч келадиган ва қабул қилинган таъсирларни тарқатадиган тузилмалари эканлиги қайд қилинган. Организмдаги куйиш жароҳатига жавобан бу системаларда юз берадиган морфологик ўзгаришлар деярли ўрганилмаган. Бу тузилмалардаги ўзгаришлар эса ҳазм аъзоларидаги патологик ўзгаришларнинг келиб чиқишида ва уларни бошқаришда муҳим аҳамиятга эга, зеро улар бу аъзолар қон томирларининг фаолиятини бошқаришда ва бу орқали уларнинг функционал фаолиятида бевосита иштирок этади.

Тадқиқот мақсади. Экспериментал куйиш жароҳатида ўн икки бармоқ ичак стресс моноаминлари тутувчи тузилмаларининг морфологиясини ўрганиш.

Материал ва тадқиқот усуллари. Таҷрибалар Ўзбекистон Республикаси Ветеринария ва чорвачилиқни ривожлантириш қўмитаси, Ветеринария илмий-тадқиқот институти баъзасидаги худудий диагностика лабораториясида режага мувофиқ 16 та қуёнларда ўтказдик.

Улардан 4 таси назорат гуруҳини ташкил қилди. 12 та қуёнда куйиш жароҳати моделлаштирилди. Куйиш жароҳатини моделлаштириш А.В. Глуткин, Т.В. Ковальчук 2012й ишлаб чиқилган модел асосида биоэтика норма талаблари ва этик комитетнинг стандартларига мувофиқ (Каркищенко Н.Н., 2010) амалга оширилди. Қуённинг кўкрак орқа қисми ва думғаза соҳалари териси жунидан тозаланди. Тиопентал натрий 0,5мг/кг дозада қуённинг қорин бўшлиғига юборилиб ухлатилди. Мис металидан тайёрланган кенглиги 4,0x5,0см ҳажмдаги ва калинлиги 1ммли металл пластинка электотермик печда 100⁰С гача қиздирилди, жундан тозаланган тери устига намланган салфетка қўйилиб, 10 секундли экспозицияда контактли термик куйиш моделлаштирилди. Умумий куйиш майдони планиметрияси Мееһ 1979 йилда таклиф қилган ва D.A. Gilpin томонидан 1996 йилда қайта модификацияланган формуладан фойдаланиб ҳисобланди [1].

$$S = k \times W^{2/3}$$

S – тана юзаси, см², W - ҳайвоннинг тана вазни, кг, k – Мих ўзгармас константаси- 9,46.


Умумий куйиш майдони ўртача 11,84см²ни ташкил қилди. Бу умумий куйиш майдонининг 32-35%ни ташкил қилади.

6 та қуён тажрибадан 5 сутка ўтгач, 6та эса 10 сутка ўтгач эвтаназия қилинди. Эвтаназия ҳам тиопентал натрий (0,5мг/кг дозада) наркози остида биоэтика қоидаларига риоя қилинган ҳолда ўткир қонсизлантириш усулида амалга оширилди. Ўн икки бармоқ ичакдан биопсион материал олинди ва 12%ли нейтралланган формалинга солинди. Олинган материалнинг дастлабки бўлақчалари криостатда музлатилиб (фиксация қилинмасдан) улардан гистотопографик кесмалар тайёрланди ва уларга В.Н. Швалев ва Н.И.Жучкова услубида глиоксил кислотасининг эритмаси билан ишлов берилди. Глиоксил кислотаси билан ишлов берилган кесмалар люминесцент микроскопда (ЛЮОММ –И2) ФС-1-4 ва ФС-1-6 филтрлари ёрдамида ўрганилди ва қоронғи майдонда РФ-3 (рентген-флюоресцент) плёнкасида расмга олинди. Оқ-қора тарзида расмларнинг электрон вариантыга компьютарда Microsoft office menegger дастури билан ишлов берилиб люминесцент микроскопдаги яшил зумрад рангда товланиб кўриниши тинкториал реконструкция усулида амалга оширилди.

Тадқиқот натижалари. Ўн икки бармоқ ичак шиллик пардаси эпителияси таркибида унинг диффуз (дисперс) эндокрин системасига мансуб бўлган, эпителиоцитлар орасида якка-якка тарзда жойлашган эндокриноцитлари аниқланди. Уларнинг кўпчилиги очик типдаги эндокрин хужайраларга мансуб бўлиб, апикал қисми эпителий юзасига етиб борган, яъни ичак бўшлиғидаги махсулот билан бевосита тўқнашади. Бу хужайраларнинг кенг базал қисми шу номли мембранада жойлашган.

Юмалоқ шаклдаги ядроси эса хужайра марказига ўрнашган. Бизнинг люминесцент-гистохимик тадқиқотларимиз ҳам бу хужайраларнинг секретари таркибида стресс моноаминларига мансуб бўлган катехоламинлар (адреналин ва норадреналин) ва серотонин мавжудлигини кўрсатди. Хужайра секретари таркибида катехоламинлар микдори кўп бўлса, унинг яшил зумрад рангида товланиш, серотонин кўпайса, сариқ рангда товланиш даражаси орта боради.

Тадқиқотларимиз ўн икки бармоқ ичак эпителияси таркибидаги очик типдаги эндокриноцитларнинг бу нисбати хужайра фаоллиги билан боғлиқ ҳолда маълум даражада ўзгариб туришини кўрсатди. Бу хужайралар люминесцент микроскопда қаралганда уларнинг цитоплазмасида (секретари таркибида) адреналин тутувчи қисмлари яшил рангда, серотонин тутувчи қисмлари эса оқимтир рангда флюоресценцияни намойиш қилади (1-расм А). Ичак деворидаги юқорида келтирилган моноаминларни тутувчи иккинчи тузилма уларнинг қон томирлари деворидаги адренергик нерв тузилмалари эканлиги аниқланди (1- расм Б).




1-расм. Қуён ўн икки бармоқ ичагининг яшил рангда товланувчи очик типдаги эндокрин хужайралари (А) ва периваскуляр адренергик нерв толалари(Б). Глиоксил кислотаси эритмаси билан ишлов бериш услуби. Об.20, гомал 5.

Бу нерв толалари ҳам таркбидаги моноаминлар нисбати билан боғлиқ ҳолда яшил зумрад рангида товланади(флюоресценцияланади). Бу толалар асосан ичак деворининг артериялари бўйлаб жойлашган ва уларни ташқи адвентициал каватида жойлашиб, ўраб олган яшил рангда товланувчи периваскуляр филоф тарзида кўринади. Артерияларнинг кўндаланг кесимида бу толалар уларнинг мушак пардасида жойлашган интраваскуляр адренергик нерв толалари чигалини ҳосил қилиши кузатилди.

Экспериментал термик жароҳатнинг 5 суткаларида ўн икки бармоқ ичак стресс моноаминлар тутувчи тузилмаларида асосан реактив ўзгаришлар юз беради. Хусусан, очик типдаги эндокрин хужайраларда экструзия блоки юз бериши натижасида эпителий таркибида жойлашган барча хужайраларнинг цитоплазмасида секрет тўпланиб қолиши, улар барчасининг люминесценцияланиш даражаси кучайиши кузатилади. Артериялар атрофида жойлашган адренергик нерв толаларида медиаторларнинг товланиши кучаяди ва уларда медиаторлар тақсимотининг бузилиши натижасида кучли товланувчи варикоз кенгаймалар сони ва уларнинг ўлчами ортади. Периваскуляр адренергик чигалнинг толалари зич жойлашган соҳаларида уларнинг товланиши бир-бирлари билан қўшилиб яхлит товланувчи конгломерат кўринишини ҳосил қилди.

Термик жароҳатнинг 10 суткаларига келиб, эндокрин хужайраларнинг ялпи дегрануляцияси кузатилди, улар атрофида тинкториал хусусиятлари улар цитоплазмасидаги секретор гранулаларга мос келадиган ва товланиши жиҳатидан улардан деярли фарқ қилмайдиган кўплаб доначалар пайдо бўлди. Доначаларнинг баъзилари хужайра цитоплазмаси билан ингичка оёқча орқали туташган. Уларни цитоплазмадан апокрин усул билан ажралаётган доначалар деб тахмин қилиш мумкин. Очик типдаги эндокриноцитларнинг секретари асосан уларнинг базал қисмидан ажралиб чиқишини кузатдик.



2-расм.Экспериментал термик жароҳатнинг 10 суткасида қуён ўн икки бармоқ ичаги деворидаги адренергик нерв толалари (А) ва очик типдаги эндокрин хужайралари(Б). Глиоксил кислотаси эритмаси билан ишлов бериш услуби. Об.20. гомал 5.

Базал дегрануляция ходисаси бу хужайралар қабул қилган хеморецептор ахборотни нерв тузилмаларига биоген аминлар орқали узатилиши мумкин деб тахмин қилишга асос бўлади, чунки бу хужайралар кўп бўлган жойда, базал мембрана остида адренергик нерв толалари ҳам кўп жойлашган. Агар ичак эпителияси таркибида нерв охирлари йўқлигини назарда тутсак, бу гипотеза маълум даражада морфологик асосга эга бўлади. Экспериментал термик таъсирнинг 10 суткаларида адренергик периваскуляр нерв чигалининг товланиш даражаси бирмунча пасаяди, нерв толалари варикоз кенгаймаларнинг ўлчами ва сони эса янада ортади (2-расм А). Эндокрин хужайраларнинг цитоплазмасида серотонин ортади ва уларнинг товланишида сарғиш ранг кучаяди (2-расм Б).

Хулоса. Шундай қилиб, экспериментал термик жароҳатда ўн икки бармоқ ичак қон томирлари деворида ва шиллик пардаси эпителияси таркибидаги стресс моноаминларини тутувчи тузилмаларида морфологик ва люминесцент-гистохимик ўзгаришлар кузатилади. Бу эса ўн икки бармоқ ичак функционал фаолиятининг издан чиқишига ва унда патологик ўзгаришлар пайдо бўлишига олиб келиши мумкин.

REFERENCES / СНОСКИ / ИҚТИБОСЛАР:

1. Глуткин А.В., Чилимцев А.М., Способ моделирования глубокого термического ожога у крысят. Материалы научно-практ. интернет-конф. Минск: БГМУ. 2012:136-140. [Glutkin A.V., Chilimtsev A.M., Sposob modelirovaniya glubokogotermicheskogo ozhoga u krysyat. Materialy nauchno-prakt. internet-konf. Minsk: BGMU. 2012:136-140. In Russian]
2. Рыбаков А.Г., Иванов Н.М. Состояние адренергической и холинергической иннервации желудка при язвенной болезни. Морфология. 2006;2:129. [Rybakov A.G, Ivanov N.M. Sostoyanie adrenergicheskoy i kholinergicheskoy innervatsii zheludka pri yazvennoy bolezni. Morfologiya. 2006;2:129. In Russian]
3. Шустова Т.И., Юрков А.Ю., Самотокин М.Б. Адренергическая и холинергическая иннервация глоточной миндалины у детей с хроническим аденоидитом. Морфология. 2016(2):16-20. [Shustova T.I., Yurkov A.Yu., Samotokin M.B. Adrenergicheskaya i kholinergicheskaya innervatsiya glotochnoy mindaliny u detey s khronicheskim adenoiditom. Morfologiya. 2016(2):16-20. In Russian]
Лаборатория шароитида каламушларда экспериментал йўл билан қилинган амалий ишлар натижасида ажратиб олинган буйрак 10%ли формалин эритмасида фиксацияланиб, гематоксилин эозин билан бўялди. Микропрепаратларни расмга олишда микроскопда $\times=4\times 10, 10\times 10, 20\times 10, 40\times 40, 60\times 10, 80\times 10$ ўлчамларда амалга оширилди.


Натижалар ва уларнинг муҳокамаси. Олинган натижалар шуни кўрсатдики, тажрибадаги оқ зотсиз каламушларда буйрак тўқимасида умумий фонда пўстлоқ ва мағиз

қавати каналчалари эпителийларида оч бўялган ўчоқли ўзгаришлар аниқланади. Перикортикал томирларда тўлақонлик белгилари аниқланади (100,0%, n=15) бўлди (1-расм)




1-Расм. Буйрак тўқимасида умумий фонда дистрофик ўзгаришлар ва перикортикал сохада вена қон томирларининг тўлақонлиги аниқланади. Бўёқ Г-Э. 4x10.

Бошқа гистологик препарат ўрганилганда сурункали нурланиш олган оқ зотсиз каламушлар ,буйрак тўқимаси мағиз қавати эпителийларида оч пушти рангда, аксарият каналча эпителийларининг гидропик дистрофияси хисобига каналчалар бўшлиқлари торайган. (66,7%, n=10), Коптокчалар шакли деформацияланган, проксимал каналчаларда гидропик дистрофия ўчоқлари аниқланади, периканаликуляр қон томирларда тўлақонликни кузатиш мумкин (2-расм).




2-Расм. Коптокчалар шакли деформацияланган(1), проксимал каналчаларда гидропик дистрофия ўчоқлари аниқланади(2), периканаликуляр қон томирларда тўлақонлик (3) Бўёқ Г-Э. 10x10.

Кейинги препаратда проксимал каналча эпителиларида ривожланган гидропик дистрофия(1) хисобига коптокчаларда деформация ва компрессион атрофия ривожланган.(3-расм)



3-Расм. Проксимал каналча эпителиларида ривожланган гидропик дистрофия(1) хисобига коптокчаларда деформация ва компрессион атрофия(2) ривожланган. Бўёқ Г-Э. 4x10.

Шу билан бир қаторда мағиз қавати параканаликуляр вена қон томирларида тўлақонлик, каналча бўшлиқлари торайган, каналча бўшлиқларида гомоген оксил структуралари аниқланади.(4-расм)



4-Расм. Мағиз қавати параканаликуляр вена қон томирларида тўлақонлик(1), каналча бўшлиқлари торайган(2), каналча бўшлиқларида гомоген оксил структуралари аниқланади. Бўёқ Г-Э. 20x10.

Сурункали нурланишда аъзолар худди термик омил таъсирига ўхшаб шикастланади. Бунда томир ўтказувчанлигининг ошиши, хужайра гипоксияси ва метаболизмнинг издан чиқиши фибробластларнинг тропоколлаген синтезини стимулланишига ва аъзоларнинг склеротик ўзгаришига, паренхиматоз элементларнинг эса атрофиясига олиб келиши аниқланди.

IQTIBOSLAR | СНОСКИ | REFERENCES:

1. Жармухамедова Т.Ю., Семушина С.Г., Пахомова И.А., Пименов М.С., Мурашов А.Н. Международные правила работы с лабораторными животными при проведении доклинических испытаний // Токсикологический вестник. - Москва, 2011. - №4(109). - С.2-9.
2. Конопляников А.Г. Клеточные основы радиационных эффектов человека // В кн.: «Радиационная медицина. Том 1. Теоретические основы радиационной медицины». Под общ. ред. Л.А. Ильина. – Москва: Изд. АТ, 2004. - С.189-277.
3. Котенко К.В., Бушманов А.Ю., Иванов А.А. Способ профилактики и лечения острой лучевой болезни в эксперименте. Патент РФ 2551619. Опубликовано в Бюллетене № 15. - 27.05.2015.
4. Михеев А.Н. Малые дозы радиобиологии. Моя маленькая радиологическая вера. - Киев, Фотосоциоцентр, 2016. - 371 с.
5. Нуралиев Н.А., Бектимиров А.М-Т., Алимова М.Т., Сувонов К.Ж. Правила и методы работы с лабораторными животными при экспериментальных микробиологических и иммунологических исследованиях // Методическое пособие. - Ташкент, 2016. - 34 с.
6. Паюшина О.В., Цомартова Д.А., Черешнева Е.В., Иванова М.Ю., Кузнецов С.Л. Регуляторное влияние мезенхимных стромальных клеток на развитие фиброза печени: клеточно-молекулярные механизмы и перспективы клинического применения // Журнал общей биологии. - 2020. -Т. 81. - № 2. - С. 83-95
7. Циркунов В.М., Прокопчик Н.И., Андреев В.П., Кравчук Р.И. Клиническая морфология печени: некрозы // Журнал Гродненского государственного медицинского университета. - 2017. – Т 15 (5). - С.557-563.
8. Avozmetov J.E. Influence of a Genetically Modified Organism on the rat's hepatobiliary system // European journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2020. - Volume 7, Issue 8. – P.1235-1237.
9. Barabanova A., Baranov A., Bushmanov A., Guskova A. Radiation Effects in Man Selected clinical lectures. Eds.: K. Kotenko, A. Bushmanov. – М.: ОАО «Издательство «Медицина», 2008. - 158 с.
10. Rizaev J. A., Khazratov A. I., Iordanishvili A. K. Morphofunctional characteristics of the mucous membrane of the masticatory apparatus in experimental carcinogenesis //Russian Journal of Dentistry. – 2021. – Т. 25. – №. 3. – С. 225-231.



УДК: 616-006-008. 637.5


YUSUPOVA Nargiza Abdikodirovna

ORIPOV Firdavs Sur'atovich

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor
Samarkand State Medical University

FUNCTIONAL CHANGES OF THE STOMACH UNDER THE INFLUENCE OF ENERGY DRINKS AND THEIR CORRECTION

For citation: Yusupova A. Nargiza, Oripov S. Firdavs. Functional changes of the stomach under the influence of energy drinks and their correction /Journal of Biomedicine and Practice. 2023, vol. 8, issue 1, pp. 137-152

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7835308>

ANNOTATION

Objective: Evaluation of functional changes in the stomach under the influence of energy drinks and the results of their correction with sesame oil

Methods: The experiment was carried out on 43 three-month-old white male rats with a body weight of 130 ± 20 g. To obtain an experimental model, the animals of the 1st group were intragastrically injected with an energy drink (EN) "Gorilla" through a plastic tube for 4, 8, 12 weeks. Energy drink (EN) "Gorilla" was administered to animals of the 2nd group intragastrically for 4, 8, 12 weeks through a plastic tube, and after this period, sesame oil was administered to the experimental animals to correct the changes. After isolation, serum samples were stored in a refrigerator at -20°C until ELISA analysis. Laboratory studies of serum pepsinogens I and II, tumor marker CA-74-2 were carried out using special Russian-made kits for enzyme immunoassay (ELISA).

Results: The amount of PG1, PG2 decreased in 100% of the animals that consumed EN for 4 weeks. The level of changes in PG1 was $3.27-7.83 \mu\text{g/l}$, and the level of changes in PG2 was observed in the range of $1.32-2.7 \mu\text{g/l}$. The analysis showed that in the main group, the concentration of pepsinogens 1 and 2 was significantly reduced in rats that consumed EN for 8 and 12 weeks. In 100% of the rats treated with EN for 8 weeks, the PG1 level decreased to $3.6-5.3 \mu\text{g/l}$, the PG2 level decreased to $1.32-2.15 \mu\text{g/l}$, and even in 100% of the animals that consumed EN for 12 weeks. It was found that PG1 decreased compared to control animals and amounted to $1.84-4.6 \mu\text{g/l}$, the level of PG2 was in the range of $0.79-1.76 \mu\text{g/l}$.

It was found that in experimental animals exposed to EN for 4 weeks and treated with sesame oil, the level of PG1 increased by 22%, the level of PG2 increased by 14%, and the ratio of PG1/PG2 increased by 5%. It was found that in experimental animals exposed to EN for 8 weeks, the level of PG1 increased by 28%, the level of PG2 - by 13%, and the ratio of PG1/PG2 - by 4%. It was found that in experimental animals exposed to EN for 12 weeks, the level of PG1 increased by 12%, the level of PG2 - by 15%, and the ratio of PG1/PG2 - by 2%. The concentration of the tumor marker did not exceed the reference values in 3-month-old rats under acute and subacute exposure to energy drinks. In the experimental group, during the 12-week period of exposure to EN, the concentration of

CA74-2 in the blood of rats changed during a laboratory study, and in 1 (9%) case, the precursors of oncological disease disappeared. After the end of the administration of EN to experimental rats of the 2nd group for a specified period (4, 8, 12 weeks), positive changes were noted in the results of laboratory studies, shedding light on oncogenesis in the stomach in the blood when corrected with sesame oil. These changes were especially clearly observed in animals that consumed energy drinks for 12 weeks.

Summary.

1. Due to the presence of many components in energy drinks and the fact that each ingredient has a side effect on the stomach, this indicates the need for certain restrictions on consumption. Thus, in this study, it was found that the energy drink "Gorilla" has a harmful effect on the gastric mucosa, especially when consumed chronically.

2. The components of sesame oil significantly reduce these effects. The anti-inflammatory and antioxidant action of sesame oil significantly reduces the changes resulting from the harmful effects of EN, which determines the effectiveness of this oil for the body.

Key words: ELISA, pepsinogen, blood serum, rat, stomach, sesame oil, fatty acids.

Keywords: enzyme immunoassay; pepsinogen, blood serum; rat; stomach.

YUSUPOVA Nargiza Abdikodirovna
ORIPOV Firdavs Sur'atovich
Tibbiyot fanlari doktori, dotsent
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

ENERGETIK ICHIMLIKLAR TA'SIRIDA OSHQOZONDAGI FUNKSIONAL O'ZGARISHLAR VA ULARNING KORREKSIYASI

ANNOTASIYA

Maqsad: Energetik ichimliklar ta'sirida oshqozondagi o'zgarishlar va ularni kunjut yog'i bilan korreksiylash natijalarini baholash.

Tekshiruv usullari: Tajriba tana vazni 130 ± 20 g bo'lgan 43 ta uch oylik erkak jinsli oq kalamushlarda o'tkazildi. Eksperimental model chaqirish uchun 1- guruh hayvonlariga «Gorilla» energetik ichimligi (EI) plastik zond orqali 4,8,12 hafta davomida intragastral yuborildi. 2- guruh hayvonlariga «Gorilla» energetik ichimligi (EI) plastik zond orqali 4,8,12 hafta davomida intragastral yuborildi va ushbi muddat tugaganidan so'ng kunjut yog'i tajriba hayvonlariga o'zgarishlarni korreksiyalash maqsadida ichirildi. Tajriba hayvonlaridan ajratib olingan zardob namunalari IFA tekshiruvini o'tkazilishigacha muzlatgichda -20°C da saqlandi. Zardobdagi pepsinogen I va II, CA-74-2 o'sma markerning - laborator tekshiruvlari Rossiyada ishlab chiqarilgan, maxsus immunoferment analiz (IFA) uchun mo'ljallangan to'plamlari yordamida o'tkazildi.

Olingan natijalar: 4 hafta davomida EI ist'emol qilgan hayvonlarda 100% hollarda PG1, PG2 kamaygan. PG1 ning o'zgarishlari darajasi 3,27-7,83 mkg/l, PG2 ning o'zgarishlari darajasi 1,32-2.7 mkg/l diapazonda kuzatildi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, asosiy guruhda, 8 va 12 hafta davomida EI ta'sir qilgan kalamushlarda pepsinogen 1 va 2 konsentratsiyasi sezilarli darajada kamayganligi aniqlandi. 8 hafta davomida EI ist'emol qilgan kalamushlarda 100% qon namunalarda PG1 darajasi pasaygan bo'lib, 3,6-5,3 mkg/lni, PG2 darajasi 1.32-2.15 mkg/lni va 12 hafta ta'sir qilganda hayvonlarning 100% da PG1 referent ko'rsatgichdan pasayganligi aniqlandi va 1,84-4,6 mkg/l, PG2 darajasi 0.79-1,76 mkg/l diapazonni tashkil qildi.

Kunjut yog'i bilan korreksiya qilingan hayvonlarda 4 hafta davomida EI ta'sirida bo'lgan tajriba hayvonlarida PG1 ning darajasi 22% ga, PG2 ning darajasi 14%, PG1/PG2 nisbati esa 5% ga ko'tarilganligi aniqlandi. 8 hafta davomida EI ta'sirida bo'lgan tajriba hayvonlarida esa PG1 ning darajasi 28% ga, PG2 ning darajasi 13 % ga, PG1/PG2 nisbati esa 4% ga ko'tarilganligi aniqlandi. 12 hafata davomida EI ta'sirida bo'lgan tajriba hayvonlarida PG1 ning darajasi 12% ga, PG2 ning darajasi 15% ga, PG1/PG2 nisbati esa 2% ga ko'tarilganligi aniqlandi.

Energetik ichimliklarning o'tkir, o'tkir osti ta'sirida uch oylik yoshdagi kalamushlarda onkomarkerning konsentratsiyasi referent diapazon chegarasidan chiqib ketmadi. Tajriba guruhida EI

ning 12 hafta davomidagi ta'sir davrida esa kalamushlar qonidagi CA74-2 konsentrasiyasi laborator tekshiruvda o'zgarishlar mavjud bo'lib, 1 (9 %) xolatda onkologik kasallik oldi belgilari nomoyon bo'ldi va bu ko'rsatkich ko'tarildi.

2- tajriba guruhdagi kalamushlariga belgilangan muddat (4, 8, 12 hafta) davomida EI berilishi tugatilgandan so'ng, kunjut yog'i bilan korreksiya qilingandan so'ng, qondagi oshqozonga tegishli onkogenezni yorituvchi laborator tekshiruvlar natijalarida ijobiy tomonga o'zgarishlar kuzatildi. Ayniqsa bu o'zgarishlar 12 hafta energetik ichimlik iste'mol qilgan hayvonlarda yaqqol kuzatildi.

Xulosa. 1. Energetik ichimliklarda ko'plab tarkibiy qismlar mavjudligi sababli va har bir ingredientning oshqozon uchun nojo'ya ta'siri borligi, iste'mol qilishda davomiyligida ma'lum bir taqiqlarni qo'yish kerakligini ko'rsatadi. Shunday qilib, ushbu tadqiqotda "Gorilla" energetik ichimligi oshqozon shilliq qavatiga zararli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

2. Kunjut yog'i tarkibiy qismlari ushbu ta'sirlarni sezilarli darajada kamaytirdi. Kunjut yog'ining yallig'lanishga qarshi va antioksidantlik ta'siri EI ning zararli ta'siri natijasidagi o'zgarishlarni sezilarli darajada kamaytirishi, bu yog'ning organizim uchun effektivligini belgilaydi.

Kalit so'zlar. Immunoferment tahlil, pepsinogen, qon zardobi, kalamush, oshqozon, kunjut yog'i, yog' kislotalari

**ЮСУПОВА Наргиза Абдикодировна
ОРИПОВ Фирдавс Суръатович**

Доктор медицинских наук, доцент
Самаркандский Государственный медицинский университет

ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ ЖЕЛУДКА ПОД ВЛИЯНИЕМ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ НАПИТКОВ И ИХ КОРРЕКЦИЯ

АННОТАЦИЯ

Цель. Оценка функциональных изменений желудка под влиянием энергетических напитков и результаты их коррекции кунжутным маслом

Методы. Эксперимент проведен на 43 трехмесячных белых крысах-самцах с массой тела 130 ± 20 г. Для получения экспериментальной модели животным 1-й группы внутрижелудочно вводили энергетический напиток (ЭН) «Горилла» через пластиковую трубку в течение 4, 8, 12 недель. Энергетический напиток (ЭН) «Горилла» вводили животным 2-й группы внутрижелудочно в течение 4, 8, 12 недель через пластиковый зонд, а по истечении этого срока подопытным животным вводили кунжутное масло с целью коррекции изменений. Взятые образцы сыворотки крови у животных хранили в холодильнике при температуре -20°C до проведения ИФА анализа. Лабораторные исследования сывороточных пепсеногенов I и II, онкомаркера СА-74-2 проводили с использованием специальных наборов для иммуноферментного анализа (ИФА) российского производства.

Полученные результаты. Количество PG1, PG2 снизился у 100% животных, потреблявших ЭН в течение 4 недель. Уровень изменений ПГ1 составил 3,27-7,83 мкг/л, а уровень изменений ПГ2 наблюдался в пределах 1,32-2,7 мкг/л. Анализ показал, что в основной группе концентрация пепсиногенов 1 и 2 была значительно снижена у крыс, потреблявших ЭН в течение 8 и 12 недель. У 100% крыс, получавших ЭН в течение 8 нед., уровень ПГ1 снизился до 3,6-5,3 мкг/л, уровень ПГ2 снизился до 1,32-2,15 мкг/л. Даже у 100% животных потреблявших ЭН в течение 12 нед. ПГ1 снизился по сравнению с контрольными животными и составил 1,84-4,6 мкг/л, уровень ПГ2 находился в пределах 0,79-1,76 мкг/л.

Установлено, что у экспериментальных животных, подвергавшихся воздействию ЭН в течение 4 нед., и получавших кунжутное масло, уровень ПГ1 увеличился на 22%, уровень ПГ2 увеличился на 14%, а соотношение ПГ1/ПГ2 увеличилось на 5%. Определено, что у экспериментальных животных, подвергшихся воздействию ЭН в течение 8 нед., уровень ПГ1 увеличился на 28 %, уровень ПГ2 - на 13 %, а соотношение ПГ1/ПГ2 - на 4 %. Выявлено, что у экспериментальных животных, подвергшихся воздействию ЭН в течение 12 нед., уровень ПГ1 повысился на 12 %, уровень ПГ2 - на 15 %, а соотношение ПГ1/ПГ2 - на 2 %.

Концентрация онкомаркера не превышала референтных значений у трехмесячных крыс при остром и подостром воздействии энергетических напитков. В опытной группе в течение 12-недельного периода воздействия ЭН концентрация СА74-2 в крови крыс при лабораторном исследовании изменялась, и в 1 (9%) случае исчезли предвестники онкологического заболевания. После окончания введения ЭН подопытным крысам 2 группы в течение заданного срока (4, 8, 12 недель) отмечены положительные изменения в результатах лабораторных исследований, проливающие свет на онкогенез в желудке в крови при коррекции кунжутным маслом. Особенно четко эти изменения наблюдались у животных, употреблявших энергетические напитки в течение 12 недель.

Выводы. 1. В связи с наличием в энергетических напитках множества компонентов и тем, что каждый ингредиент оказывает побочное действие на желудок, это указывает на необходимость введения определенных ограничений в потреблении. Таким образом, в данном исследовании было установлено, что энергетический напиток «Горилла» оказывает вредное воздействие на слизистую оболочку желудка особенно при его хроническом употреблении.

2. Компоненты кунжутного масла значительно снижают эти эффекты. Противовоспалительное и антиоксидантное действие кунжутного масла значительно уменьшает изменения, возникающие в результате вредного воздействия ЭН, что определяет эффективность этого масла для организма.

Ключевые слова: Иммуноферментный анализ, пепсиноген, сыворотка крови, крыса, желудок, кунжутное масло, жирные кислоты.

Кириш. Energetik ichimliklar bozorda 20-asrning so'nggi choragida paydo bo'ldi. 1987 yilda Yevropada kofeinli energetik ichimliklar joriy etilganidan beri ular dunyo bozorida keng tarqalishda davom etmoqda. Energetiklarning haqiqiy dunyo bumi 2000-yillarning o'rtalarida boshlandi. Shunday qilib, 2006 yilda dunyo bo'yicha 500 ga yaqin yangi brendlar ro'yxatga olindi. Yaqin vaqtgacha ilmiy adabiyotlarda "Energetik ichimliklar" bo'yicha standart tushuncha mavjud emas edi. Energetik ichimliklarni iste'mol qilishning eng keng tarqalgan sabablari uyqu yetishmasligi (67%) va organizmning energetik quvvatini oshirish xisoblanadi. Ular kofein, vitaminlar va organizmning ish faoliyatini oshiruvchi boshqa tarkibiy qismlarni saqlaydigan alkogolsiz ichimliklar sifatida qabul qilindi [9, C.56]. Energetiklar asta-sekin bozorni zabt etib, submadaniyatning bir qismiga aylandi. Shu sababli, JSST 2014- yilda yoshlar o'rtasida energetik ichimliklarni iste'mol qilish yuqori darajadali va ularning uzoq muddatli oqibatlari olimlar va jamoatchilik e'tiboridan chetda qolayotganligini ta'kidlab, bu kelajakda sog'liqni saqlashdagi asosiy muammolaridan biri bo'lishi mumkinligi haqida ma'lumotlar berdi [7, C.278]. Energetik ichimliklar tarkibida asosan kofein, boshqa o'simlik stimulyatorlari (guarana, efedrin), shakar va ularning hosilalari (glyukoza, fruktoza, saxaroza, riboza, glyukuronolakton - bular glyukozaning tabiiy metabolitlaridir), aminokislotalar (taurin, karnitin, kreatin), boshqa o'simliklar qo'shimchalari (jinshen, ginkgo biloba), maltodekstrin, inozitol, vitamin B kompleksi va boshqa ingredientlar mavjud. Ushbu ichimliklardagi asosiy faol moddalardan biri kofeindir. Kofeinning kunlik dozasi 300 mg gachani tashkil qiladi. Kofein charchoq va uyquchanlik hissini kamaytiradigan, aqliy faoliyat va diqqatni oshiradigan va yengil diuretik ta'sirga ega bo'lgan keng tarqalgan psixostimulyatoridir. Bundan tashqari, kofein kofe, choy yoki alkogolsiz ichimliklar tarkibida mavjud bo'lgan dunyodagi eng ko'p iste'mol qilinadigan alkaloidlardan biri bo'lib, uning o'tkir va surunkali ta'siri natijasida oshqozon-ichak traktida buzilishlar, masalan, qizilo'ngach refluyksi va oshqozon yarasiga moyillik oshishi bilan kechuvchi oshqozonning gipersekretsiyasiga olib keladi. Ko'pchilik energetik ichimliklar tarkibida boshqa stimulyatorlar mavjud bo'lib, ular ham odam organizmida jiddiy salbiy oqibatlarga olib keladi. Shuningdek, EI hajmining 10-13% ni tashkil etadigan yuqori shakar miqdori semirish va qandli diabet xavfini oshishiga olib keladi. Kofeinning katta dozalari (3 mg/kg) glyukozaga tolerantlikning buzilishi, oshqozon-ichak traktining ta'sirlanishi, nevroz, asabiylashish, ko'ngil aynishi va taxikardiya kabi muammolarga olib kelishi mumkinligi aniqlangan va bu belgilar kofein dozasini kamaytirish kerakligini ko'rsatadi. Sunday qilib ko'pchilik energetik ichimliklar odam organizmiga no'juya ta'sirlari mavjud bo'lganligi uchun bu ichimliklar tarkibida muvozanatlashtirilgan

ingredientlarning saqlanishi, ayniqsa ulardagi shakar va kofeinning darajasi nazoratga olinishi va organizmga ta'siri kuzatilishi kerak xisoblanadi [8, C.75].

Ba'zi yog'lar tarkibida antioksidantlar, almashmaydigan yog' kislotalari, fosfolipidlar, fitosterollar va boshqa biologik faol birikmalar saqlaganligi sababli EI lar ta'sirida oshqozonda kelib chiqqan o'zgarishlarni korreksiyalashda bu yog'larning effektivligini baxolash muhim hisoblanadi. Ushbu almashtitib bo'lmaydigan yog' kislotalarning eng keng tarqalgan manbalari- dengiz organizmlari, yong'oqlar, don va rezavorlardir. Ma'lumki, "Foydali" yog'larning asosiy manbai bu o'simlik moylari, shu jumladan kunjut urug'laridir. Ular tarkibida qon tomirlar devoriga xolesterinli cho'kmalar bermaydigan, organizm tomonidan oson o'zlashtiriladigan yog'lar, to'yinmagan yog' kislotalari, minerallar va shilliq qavatlarining struktur butunligini saqlashga yordam beradigan vitaminlar mavjud [20].

Kunjut yog'i tarkibidagi ingredientlar oshqozon-ichak trakti, yurak qon tomir kasalliklari paydo bo'lishining oldini oladi, organizmning viruslar, bakteriyalar va atrof-muhitning salbiy ta'siriga chidamliligini oshiradi. Yog' olishning mexanik usuli (termik ishlowsiz, "Sovuq" usulda) da asosiy moddalarning tarkibi to'liq saqlanib qoladi. Kimyoviy tarkibning to'liqroq saqlanishi, yuqori sifatli yog' olinishi tufayli bu usul parhez qo'shimchalari turidagi moy (BFQ- biologik faol qo'shimcha) larni olish uchun ko'proq qo'llaniladi. Lekin shu bilan birga bu usulda urug'dan yog'ning ajralib chiqishi termik usulga nisbatan kamayadi (18% gacha).

Kunjut yog'i oleyin va linolen kislotalarga boy bo'lib, ular birgalikda kunjut urug'i tarkibidagi umumiy yog' kislotalarining 85% ni tashkil qiladi. Kunjut yog'i sovunlanmaydigan moddalarning nisbatan yuqori foiziga ega (1,5-2,3%). Yuqori ozuqaviy qiymatga ega va foydali xususiyatlar ombori bo'lgan kunjut yog'i muhim aminokislotalar, vitaminlar, to'liq to'yinmagan yog' kislotalar, makro va mikroelementlar va boshqa biologik faol moddalar (fitin, antioksidantlar, fitosterollar, fosfolipidlar va boshqalar) ning balanslashtirilgan tarkibini saqlaydi. Yog' tarkibida deyarli teng nisbatda to'liq to'yinmagan Omega-6 (40-45%) va mono- to'yinmagan Omega-9 (38-43%) yog' kislotalari mavjud. Shu bilan birga, kunjut yog'idagi Omega-3 ning miqdori juda kichik - 0,2% ni tashkil qiladi. B, E, C va A vitaminlari ko'rish apparati faoliyatini yaxshilashga yordam beradi, shilliq pardalarga, teriga, tirnoqlarga va sochlarga foydali ta'sir ko'rsatadi. Kunjut yog'i muhim makro va mikroelementlarning ajoyib manbaidir. Kunjut yog'i tarkibida kaliy, magniy, fosfor, marganets, temir, rux konsentratsiyasi yuqori. Kunjut yog'i teri va shilliq pardalar holatiga, immunitetga, reproduktiv va endokrin tizimlarga foydali ta'sir ko'rsatadigan fitosterollar va miya, jigar, asab va yurak-qon tomir tizimlari uchun zarur bo'lgan A va E vitaminlarini o'zlashtirilishi uchun zarur bo'lgan fosfolipidlarni saqlaydi. Kunjut yog'i shuningdek, jinsiy gormonlar sintezi uchun zarur bo'lgan eng kuchli antioksidant skualenni saqlaydi, skualen immunitet tizimini mustahkamlashga yordam beradi va zamburug'larga qarshi va bakteriosid xususiyatlarga ega bo'lib, xolesterin darajasini pasaytiradi. Kunjut yog'i yallig'lanishga qarshi, regenerasiyani yaxshilovchi, og'riq qoldiruvchi, bakteriosid, antigelmantik, immunostimulyasiya qiluvchi, diuretik xususiyatlarni o'z ichiga olgan juda keng shifobaxsh ta'sirga ega. Qadim zamonlardan buyon nafaqat oziq-ovqat mahsuloti sifatida, balki xalq tabobatida samarali vosita sifatida ham qo'llanilgan. Kattalar uchun kuniga ikki-uch marta bir choy qoshiqdan kunjut yog'ini oziq ovqatlar bilan iste'mol qilish tavsiya etiladi. Bolalar uchun kunjut yog'i kuniga 1-3 yoshli chaqaloqlar uchun 3-5 tomchi; 3-6 yoshli bolalar uchun 6-10 tomchi; 10-14 yoshli bola uchun bir choy qoshiqni tashkil etadi [10, P.41].

Enegetik ichimliklar iste'mol qilish butun dunyo bo'ylab keng tarqalganligi sababli, ushbu ichimliklarning o'tkir, o'tkir osti va surunkali ta'sirida turli organlar xususan, oshqozon xolatini o'rganish muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, ularning qo'shimchalarini uzoq muddatli iste'mol qilish natijasida yuzaga keladigan o'tkir va surunkali ta'siri bo'yicha ma'lumotlar kam. Enegetik ichimliklar ta'sirida yuzaga kelgan nojuya oqibatlarni maxalliy keng tarqalgan shifobaxsh moddalar bilan korreksiya qilish hozirgi kunda judayam dolzarb xisoblanadi. Ushbu maqolada bu muammolar atroflicha yoritilgan.

MAQSAD: Energetik ichimliklar ta'sirida oshqozondagi o'zgarishlar va ularni kunjut yog'i bilan korreksiyash natijalarini baholash.

MATERIALLAR VA TADQIQOT USULLARI

Tajriba tana vazni 130 ± 20 g oraliqda bo'lgan 43 ta uch oylik erkak jinsli oq kalamushlarda o'tkazildi. Nazorat guruhiga 6 ta EI ichirilmagan uch oylik erkak jinsli oq kalamushlar olingan. Tajribaga jalb qilingan albinos kalamushlar 2 ta guruhga bo'lindi: 1- guruh 3 xil muddatda EI iste'mol qilgan 24 ta kalamushni qamrab oldi. 1- guruhda kalamushlar EI iste'mol qilish muddati 3 xil bo'ldi: 7 ta kalamush 4 hafta, 9 ta kalamush 8 hafta, 8 ta kalamush 12 hafta davomida energetik ichimlik iste'mol qildi. 2- guruh 3 xil muddatda EI iste'mol qilgan 25 ta kalamushni qamrab oldi. 2- guruhda kalamushlar EI iste'mol qilish muddati 3 xil bo'ldi: 6 ta kalamush 4 hafta, 7 ta kalamush 8 hafta, 6 ta kalamush 12 hafta davomida energetik ichimlik iste'mol qilganidan so'ng 4 hafta davomida kunjut yog'i bilan korreksiya qilindi. Ushbu tajriba muddatlari tugagan kundan boshlab EI, kunjut yog'i berilishi to'xtatildi (1 jadval)

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston bozorida erkin mavjud bo'lgan, keng istemol qilinadigan EI - "Gorilla" dan foydalanildi. Har bir kalamushga tana vazniga 10 mg/kg kunlik dozada EI ichirilgan. "Gorilla" ichimligi tarkibida kofein, taurin, glyukuronolakton, shakar va boshqa uglevodlar, bo'yoq, aromatizatorlar, vitaminlar, inozitol, niatsin, o'simlik qo'shimchalari va boshqa ingredientlar mavjud. Eksperimental model chaqirish uchun 1- guruh kalamushlarga energetik ichimlik (EI) «Gorilla» plastik zond orqali 4,8,12 hafta davomida intragastral yuborildi. 2- guruh kalamushlarga ham energetik ichimlik (EI) «Gorilla» plastik zond orqali 4,8,12 hafta davomida intragastral yuborildi va EI iste'mol qilish muddati tugaganidan keyin har bir tajribaga jalb qilingan kalamushga 4 hafta davomida plastik zond orqali kunjut yog'i intragastral yuborildi. Bundan tashqari, kalamushlarda suvga va maxsus kalamushlar uchun ozuqaga (kemiruvchilar yemi-granulalari) erkin imkoniyat mavjud bo'lgan. Mexanik usulda ta'biy yo'l bilan olingan kunjut yog'ining tarkibida quyidagicha yog' kislotalari mavjud: linolein kislota (jami 41%), oleyin kislota (39%), palmitin kislota (8%), stearin kislota (5%) va boshqalar oz miqdorda [10, P.44]. AQSh Milliy ozuqaviy ma'lumotlar bazasi, 2014 yildagi SR-21 versiyasiga ko'ra, mexanik usulda olingan yog' tarkibida mono-to'yingan va poli-to'yinmagan yog' kislotalari (87% gacha) - palmitilin, stearin, oleyin, linolein kislotalar, vitaminlar mavjud bo'lib, bu uning shifobaxsh va profilaktik ahamiyatini tushuntiradi va biologik faol qo'shimchalar deb tasnifladi (BFQ) [20].

1-Jadval

Tajriba xayvonlarining guruhlarda taqsimlanishi

| № | Nazorat guruhi | Tajriba guruh | | | O'tkazilgan laborator tekshiruvlar |
|------|----------------|--|--|---|------------------------------------|
| | | 4 hafta EI iste'mol qilgan kalamushlar | 8 hafta EI iste'mol qilgan kalamushlar | 12 hafta EI iste'mol qilgan kalamushlar | |
| 6 ta | | 8 ta | 7 ta | 9 ta | PGI; PGII; CA74-2; |
| | | 4 hafta EI va 4 hafta kunjut yog'i iste'mol qilgan | 8 hafta EI va 4 hafta kunjut yog'i iste'mol qilgan | 12 hafta EI va 4 hafta kunjut yog'i iste'mol qilgan | |
| | | 6ta | 7 ta | 6ta | |
| | | | | | |

Ushbu tadqiqotda hayvonlarda tajriba o'tkazish jarayoni bioetika qoidalari asosida olib borildi. Barcha hayvonlar nazorat qilinadigan haroratdagi ($t=24 \pm 1^\circ\text{C}$) maxsus plastik qafaslarda saqlangan, xavoning nisbiy namligi 70% bo'lgan. Laboratoriyada iqlimlashtirish uchun tajribadan bir hafta oldin 12 soatlik yorug'lik-qorong'ulik tsikllari ta'minlandi. Hayvonlar 2 guruhga bo'lingan. Nazorat guruhidagi xayvonlarga 4,8,12 hafta davomida har kuni zond orqali bir marta 7,5 ml fiziologik eritma ichirildi. Asosiy eksperiment guruhdagi kalamushlarga EI tana vazniga 10 mg/kg xisoblanib, zond yordamida 4,8,12 hafta davomida kuniga bir marta 7,5 ml gacha ichirildi. EI qabul qilish muddatlari tugagach barcha tajriba hayvonlariga kuniga ikki mahal kunjut yog'i ichirildi. Tajribaning so'nggi kunida hayvonlarga bir kecha ovqat berilmadi, so'ngra ertalab 8 da efirming yengil ingalatsiyasi yordamida hushsizlantirildi va laborator tekshiruvlar uchun qon namunalari bevosita yurakdan olindi. Keyin hayvonlarning boshi kesilib, qonsizlantirilib, ichki a'zolar ochildi. Immunoferment analiz (IFA): Qon namunalari 30 daqiqa davomida xona haroratida qoldirildi,

so'ngra 15 daqiqa davomida 4000 aylanish tezlikda sentrifuga qilindi. Zardob namumalari ajratib olingach IFA tekshiruvigacha muzlatgichda -20°C da saqlandi. Zardobdagi pepsinogen 1 va 2, o'sma markeri CA74-2 laborator tekshiruvi Rossiyada ishlab chiqarilgan maxsus Immunoferment analiz (IFA) uchun mo'ljallangan to'plamlari yordamida o'tkazildi. Laboratoriya tadqiqotlari har bir eksperimental muddatning oxirgi bosqichlarida amalga oshirildi.

Reagent to'plamlarining asosiy tavsifi: Ko'rsatgich: «Pepsinogen 1» IFA – BEST (Rossiya); Sezuvcchanlik $1 \mu\text{g/l}$. O'lchanadigan konsentratsiya diapazoni 0–200 mkg/l. Analiz uchun zardob namunasi hajmi $10 \mu\text{l}$. Analiz 1 bosqichli. Umumiy inkubatsiya vaqti 1 soat 15 min.

«Pepsinogen 2» IFA – BEST (Rossiya); Sezuvcchanlik $1 \mu\text{g/l}$. O'lchanadigan konsentratsiya diapazoni 0–50 mkg/l. Analiz uchun zardob namunasi hajmi $10 \mu\text{l}$. Analiz bir bosqichli. Umumiy inkubatsiya vaqti 1 soat 15 min.

«CA 74-2» IFA -Xema (Rossiya) test to'plami. O'lchanadigan konsentratsiya diapazoni 0-200 IU / ml ni tashkil qiladi. Analiz uchun zardob namunasi hajmi $50 \mu\text{l}$. Analiz 1 bosqichli. Umumiy inkubatsiya vaqti 1 soat 15 min. Ushbu reaktivlarning saqlash muddati 12 oy.

Reaktiv to'plamlari PG1 va PG2, CA74-2 uchun mos ravishda kalibrlash va nazorat uchun, foydalanishga tayyor bo'lgan aniq konsentrasiyali reagentlari namunasini o'z ichiga oladi.

Pepsinogenlar oqsillarni aminokislotalarga aylantirish jarayonida, ovqat hazm qilish kaskadining dastlabki va muhim bosqichini ta'minlaydigan pepsinning profermentlaridir. Shu bilan birga, qondagi pepsinogenlar darajasi me'da shilliq qavatining morfologik va funktsional holatining ishonchli diagnostik ko'rsatkichi bo'lib, invaziv bo'lmagan biopsiyani amalga oshirishga imkon beradi. Keng diapazonda - minimaldan maksimal qiymatgacha o'zgarib turadigan pepsinogenlar konsentratsiyasining ko'rsatkichlari ko'p jihatdan nafaqat oshqozon kasalliklari, balki refluyksli ezofagit, o'n ikki barmoqli ichak yarasi bilan bog'liq turli xil kasalliklarni rivojlanish xavfini baholashga ham imkon beradi. Pepsinogen I va II ning pasaygan ko'rsatkichi atrofik gastrit va oshqozon saratoni uchun xavf omilini belgilovchi mezonlardan biri xisoblanadi. Shubhasiz pepsinogenlar darajasini aniqlash, invaziv bo'lmagan skringningni keng joriy etish imkonini beradi [1, C.75].

CA 74-2 glikoprotein bo'lib, xomila rivojlanishi davrida ovqat hazm qilish trakti epiteliysi yuzasida joylashgan bo'ladi. Kattalarda bu oshqozon saratoni va kolorektal saraton, boshqa xavfli o'smalarda aniqlanadi. Shu bilan birga, bemorlarning 6,7 foizida uning ko'payishi yaxshi sifatli o'smalar mavjudligida ham aniqlangan [3, C.63].

Oshqozon saratonida bu markerni sezuvcchanligi 40-46% ni tashkil qiladi va o'sma markeri qanchalik yuqori darajada bo'lsa, malignizasiya xavfi yuqori bo'ladi, ya'ni onkomarker miqdorining o'zgarishi o'sma jarayonining bosqichi bilan bog'liqdir. Saraton radikal tarzda olib tashlangandan so'ng, CA 74-2 indikatori 3-4 hafta ichida normal holatga qaytishi, davolashning muvofaqiyatli o'tkazilganini belgisi xisoblanadi. Metastazlarga kelsak, oshqozon saratonida bu onkomarkeri CEA yoki CA 19-9 ga qaraganda sezgirroqdir. Oshqozon karsinomasi aniqlangan bemorlarda CA 74-2 ni aniqlash omon qolish imkoniyatini baholash imkonini beradi. O'sma markeri qanchalik baland bo'lsa, kasallikning bosqichi shunchalik yuqori bo'ladi [3, C.63].

TADQIQOT NATIJALARI VA TAHLILI

Oshqozon-ichak trakti (OIT) organlar tizimidagi disfunktsiya bu ularning anatomik tuzilishi va

ko'p qirrali vazifalari bilan bog'liq har qanday patologik jarayonning belgisi xisoblanadi. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, oshqozon-ichak traktining bir qator funktsional buzilishlari (OITFO) oshqozon-ichaklarning o'z-o'zini asab va endokrin tizimlari tomonidan boshqarishdagi muammolari bilan bog'liq bo'lib, bu bizga OIT ining bir qator kasalliklarda diagnoz qo'yishda laborator tekshiruvlarning ahamiyatini tushuntiradi [2, C.37]. So'nggi yillarda bir qator mamlakatlarda oshqozonning turli kasalliklarini, jumladan oshqozon va o'n ikki barmoq ichakning peptik yaralari, gastroezofagiya refluykslar, atrofik gastrit va oshqozonning boshqa kasalliklari skringida, invaziv endoskopiya usulini yanada samaraliroq, osonroq bo'lgan noinvaziv usullar bilan almashtirish bo'yicha bir qator tadqiqotlar o'tkazildi [2, C.37].

Ushbu tadqiqotlar natijasida PGI, PGII ni qon zardobida aniqlanishi ushbu kasalliklarning biologik markeri sifatida foydalanish mumkinligi aniqlandi va ularning qon zardobidagi konsentratsiyasi oshqozon devorining morfofunktsional holatini yoritib beradi hamda kelgusida o'zgarishlar aniqlanganda gistologik tekshiruv usuli yordamida tasdiqlanadi [6, C. 30].

Sog'lom odamlarda normada PGI miqdori PGII darajasiga ko'ra 3 baravar yoki undan yuqori bo'ladi. Ikkala PG ham odamda me'da shirasida va qonida aniqlanishi mumkin. Siydikda, odatda, faqat PG I aniqlanadi. O'tgan asrning 80-yillarida qon zardobidagi pepsin profermentlarining konsentratsiyasi oshqozon sekretsiyasi darajasi va eng muhimi, oshqozon shilliq qavatining shikastlanishining og'irligini belgilashi aniqlandi va bu topilgan o'zgarishlar morfologik jihatdan tasdiqlangan [5, C.29].

Tajriba hayvonlaridan nazorat guruhidagi kalamushlarda PGI va PGII konsentratsiyasini aniqlash natijalari quyidagicha bo'ldi. Barcha namunalarda PGI va PGII konsentratsiyasi referent ko'rsatgichlarni tashkil etdi (2-jadval), ushbu guruhidagi hayvonlarda atrofik yoki giperatsid gastritning serologik belgilari kuzatilmadi.

2- Jadval

PG I, PG II, CA74-2 ning nazorat guruhidagi kalamushlardagi miqdori

| № | PG I miqdori (mkg/l) | PG II miqdori (mkg/l) | PGI/ PGII | CA74-2 (Ed/ml) |
|----------|----------------------|-----------------------|-------------|----------------|
| 1 | 8.38 | 2,73 | 3,07 | 2,03 |
| 2 | 9.41 | 3,25 | 3,14 | 0,12 |
| 3 | 10,21 | 3,08 | 3,06 | 1,23 |
| 4 | 11,45 | 3,32 | 3,45 | 0,9 |
| 5 | 9,56 | 2,88 | 3,32 | 1,05 |
| 6 | 8.02 | 2,65 | 2,91 | 1,2 |
| M | 9,50 | 2,98 | 3,16 | 1,08 |

Kalamushlarda qon zardobidagi PG I darajasi odatda 9-11 µkg/l (ng/ml) ni tashkil qiladi. Ovqat hazm qilish va siydik chiqarish organlari, qon zardobi va siydik tarkibi turli miqdordagi PG saqlaydi. Oshqozonning bezli qismida juda katta miqdorda PG ishlab chiqariladi. Bu shuni ko'rsatadiki, immunoreaktiv PG oshqozonning bezli qismidan qonga va siydikga tushadi. Turli yoshdagi, jinsdagi va yana organizmning ayrim xolatlarida kalamushlarning qon zardobidagi PG miqdori odatdagidan farq qiladi. Zardobdagi PG darajasi och qolish vaqtida o'zgarishi aniqlanadi; avval ko'tariladi, keyin tushadi. Ushbu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, inson qon zardobidagi PG darajasi, ovqatlanishdan keyingi o'tgan vaqtga bog'liq [5, C.28].

Oshqozon funksiyasini aniqlash uchun tadqiqotga jalb qilingan tajribaning 1- guruhlaridagi xayvonlar uch xil muddat- 4 (o'tkir ta'siri), 8 (o'tkir osti ta'siri), 12 hafta (surunkali ta'siri) davomida EI ni iste'mol qilgan va 2- guruhlardagi uch xil muddat- 4 (o'tkir ta'siri), 8 (o'tkir osti ta'siri), 12 hafta (surunkali ta'siri) davomida EI ni iste'mol qilgan kalamushlarga ushbi muddatlar tugaganidan keyin kunjut yog'i bilan detoksikasiya qilingan tajriba xayvonlaridan olingan qon namunalarida PGI va PGII ni tekshirish natijalari quyidagicha bo'ldi:

4 hafta davomida EI iste'mol qilgan guruhdagi kalamushlar qon zardobida PG1 ning o'rtacha konsentratsiyasi 4,96 mkg/ va 4 hafta davomida EI va keyin 4 hafta davomida kunjut yog'i ichirilgan kalamushlarda esa qon zardobidagi PG1 ning o'rtacha konsentratsiyasi 6.34 mkg/l tashkil qildi (3-jadval). EI ning o'tkir ta'siri ostida bo'lgan kalamushlarda PG2 ning o'rtacha konsentratsiyasi 1.94 mkg/l va 4 hafta davomida EI va keyin 4 hafta davomida kunjut yog'i ichirilgan kalamushlarda esa qon zardobida PG2 ning o'rtacha konsentratsiyasi 2,25 mkg/l ni tashkil qildi (4-jadval). 4 hafta davomida EI iste'mol qilgan guruhdagi kalamushlar qon zardobida PGI/PGII nisbati 2,69 va EI 4 hafta davomida ta'sir qilgan va 4 hafta yog' bilan korreksiya qilingan kalamushlar qonida PGI/PGII nisbati o'rtacha va 2,82 ni tashkil qildi (5-jadval).

8 hafta davomida EI qabul qilgan guruhda zardobdagi PGI darajasi 4,19 mkg/l ga (3-jadval), PGII 1,76 mkg/l ga (4-jadval) va PGI/ PGII nisbati 2,41 (5-jadval) ni tashkil qildi. 8 hafta davomida EI ichirilgan va keyin 4 hafta davomida kunjut yog'i bilan korreksiya qilingan xayvonlarda esa pepsinogenlar miqdori ko'payganligini ko'rishimiz mumkin va ularning miqdori quyidagicha bo'ldi.

PG1 ning o`rtacha konsentrasiyasi 5,78 mkg/l (3-jadval), PG2 ning o`rtacha konsentrasiyasi 2,29 (4-jadval), PG1/PG2 nisbati 2,51 ni tashkil qildi (5-jadval).

EI larni surunkali ist`emol qilgan kalamushlarda tadqiqot natijalarida e`tiborni jalb qilgan o`zgarishlar kuzatildi, ularda laborator ko`rsatkichlarning keskin kamayganligini ko`rishimiz mumkin. Bunda qon zardobidagi PGI 2,80 mkg/l ga (3-jadval), PGII 1,22 mkg/l ga (4-jadval) va PGI/PGII nisbati 2,20 ni tashkil qildi (5-jadval). 12 hafta EI va 4 hafta davomida kunjut yog`i ichirilgan tajriba hayvonlarida PG1 o`rtacha konsentrasiyasi 3,18 mkg/l ni (3-jadval) va PG2 ning konsentrasiyasi 1,44 mkg/l ni (4-jadval), hamda PGI/PGII nisbati 2.24 ni tashkil qildi (5-jadval).

Jadval 3

Tajriba guruhidagi kalamushlarda PGI ning miqdori

| Tajriba guruhi (PGI) mkg/l | | | | | | |
|----------------------------|-----------------------------|--|-----------------------------|--|------------------------------|--|
| № | 4 hafta davomida EI ta`siri | 4 hafta davomida EI va keyin 4 hafta kunjut yog`i ichirilgan | 8 hafta davomida EI ta`siri | 8 hafta davomida EI va keyin 4 hafta kunjut yog`i ichirilgan | 12 hafta davomida EI ta`siri | 12 hafta davomida EI keyin 4 hafta kunjut yog`i ichirilgan |
| 1 | 4,81 | 7,12 | 3,6 | 4,45 | 4,6 | 4,5 |
| 2 | 3,27 | 7,21 | 3,53 | 3,65 | 3,79 | 3,79 |
| 3 | 3,31 | 6,56 | 4,37 | 7,86 | 1,84 | 1,84 |
| 4 | 4 | 5,65 | 5,3 | 7,6 | 2,79 | 3,84 |
| 5 | 5,3 | 4,65 | 4,06 | 3,88 | 2,31 | 2,31 |
| 6 | 6,31 | 6,83 | 4,15 | 6,87 | 2,82 | 2,82 |
| 7 | 4,88 | - | 4,32 | 6,14 | 2,64 | - |
| 8 | 7,83 | - | - | - | 1,96 | - |
| 9 | - | - | - | - | 2,315 | - |
| M | 4,96 | 6,34 | 4.19 | 5.78 | 2,80 | 3.18 |

Jadval 4

Tajriba guruhidagi kalamushlarda PGII ning miqdori

| Tajriba guruhi (PGII; mkg/l) | | | | | | |
|------------------------------|--------------------|---|--------------------|---|---------------------|--|
| № | 4 hafta EI ta`siri | 4 hafta EI va 4 hafta kunjut yog`i ichirilgan | 8 hafta EI ta`siri | 8 hafta EI ta`siri va 4 hafta kunjut yog`i ichirilgan | 12 hafta EI ta`siri | 12 hafta EI ta`siri va 4 hafta kunjut yog`i ichirilgan |
| 1 | 1,93 | 2,79 | 1,76 | 1,72 | 1,47 | 1,74 |
| 2 | 1,49 | 2,34 | 1,52 | 1,3 | 1,31 | 2,11 |
| 3 | 1,32 | 1,98 | 1,92 | 3,22 | 0,88 | 0,88 |
| 4 | 2,7 | 2,13 | 1,85 | 2,52 | 0,79 | 1,29 |
| 5 | 1,64 | 2,07 | 1,32 | 2,15 | 0,83 | 1,085 |
| 6 | 2,16 | 2,18 | 1,8 | 2,76 | 0,81 | 1,54 |
| 7 | 1,86 | - | 2,15 | 2,42 | 1,76 | - |
| 8 | 2,42 | - | - | - | 1,08 | - |
| 9 | - | - | - | - | 1,35 | - |
| M | 1,94 | 2,25 | 1,76 | 2,29 | 1,22 | 1,44 |

Jadval 5

Tajriba guruhidagi kalamushlarda pepsinogen (I) ning pesenogen (II) ga nisbati

| Tajriba guruhi (PGI/PGII) | | | | | | |
|---------------------------|--------------------|---|--------------------|---|---------------------|--|
| № | 4 hafta EI ta`siri | 4 hafta EI va 4 hafta kunjut yog`i ichirilgan | 8 hafta EI ta`siri | 8 hafta EI ta`siri va 4 hafta kunjut yog`i ichirilgan | 12 hafta EI ta`siri | 12 hafta EI ta`siri va 4 hafta kunjut yog`i ichirilgan |
| 1 | 1,93 | 2,79 | 1,76 | 1,72 | 1,47 | 1,74 |
| 2 | 1,49 | 2,34 | 1,52 | 1,3 | 1,31 | 2,11 |
| 3 | 1,32 | 1,98 | 1,92 | 3,22 | 0,88 | 0,88 |
| 4 | 2,7 | 2,13 | 1,85 | 2,52 | 0,79 | 1,29 |
| 5 | 1,64 | 2,07 | 1,32 | 2,15 | 0,83 | 1,085 |
| 6 | 2,16 | 2,18 | 1,8 | 2,76 | 0,81 | 1,54 |
| 7 | 1,86 | - | 2,15 | 2,42 | 1,76 | - |
| 8 | 2,42 | - | - | - | 1,08 | - |
| 9 | - | - | - | - | 1,35 | - |
| M | 1,94 | 2,25 | 1,76 | 2,29 | 1,22 | 1,44 |

| | | | | | | |
|----------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
| 1 | 2,95 | 2,55 | 1,8 | 2,58 | 2 | 2,59 |
| 2 | 3 | 3,08 | 0,144 | 2,81 | 1,43 | 1,8 |
| 3 | 2,75 | 3,31 | 3,24 | 2,44 | 2,09 | 2,1 |
| 4 | 3,41 | 2,65 | 2,86 | 3,01 | 3,53 | 2,98 |
| 5 | 3,78 | 2,24 | 3,07 | 1,8 | 2,77 | 2,13 |
| 6 | 3,22 | 3,13 | 2,3 | 2,48 | 3,48 | 1,83 |
| 7 | 3,12 | | 2,24 | 2,53 | 1,5 | |
| 8 | 2,28 | | - | | 1,81 | |
| 9 | - | | - | | 1,71 | |
| M | 3.06 | 2.83 | 2.23 | 2.52 | 2.26 | 2.24 |

Olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, o'rganilayotgan guruhlarda EI ta'sir qilishining muddatining turli bosqichlarida sodir bo'lgan o'zgarishlar bir xil emas. Birinchi eksperimental muddat davrida ya'ni 4 hafta davomida EI ist'emol qilgan hayvonlarda 100% hollarda PG1 va PG2 kamaygan. PG1 ning o'zgarishlari darajasi 3,27-7,83 mkg /l, PG2 ning o'zgarishlari darajasi 1,32-2.7 mkg /l diapazonda kuzatildi. Eng qiziqarlisi, 8 va 12 hafta davomida EI ist'emol qilgan kalamushlarda oshqozon funksiyasini ko'rsatuvchi laborator ko'rsatkichlarni faolligini o'rganishdir (1- va 2-rasm). Tahlil shuni ko'rsatdiki, asosiy guruhda, 8 va 12 hafta davomida EI ta'sir qilgan kalamushlarda pepsinogen 1 va 2 konsentrasiyasi sezilarli darajada kamayganligi aniqlandi. 8 hafta davomida EI ist'emol qilgan kalamushlarda 100% qon namunalari PG1 darajasi pasaygan bo'lib, 3,6-5,3 mkg/lni, PG2 darajasi 1.32-2.15 mkg/lni va 12 hafta EI ta'sir qilganda ham hayvonlarning 100% da PG1 referent ko'rsatkichidan pasayganligi aniqlandi va 1,84-4,6 mkg/l, PG2 darajasi 0.79-1,76 mkg/l diapazonni tashkil qildi (1- va 2-rasm). PGI oshqozon tubi va tanasi bezlarining asosiy hujayralari tomonidan, PGII esa fundus, kardial va antrum, pilorik qism bezlari hujayralari tomonidan va o'n ikki barmoqli ichakning proksimal qismi bezlari tomonidan ishlab chiqarishini hisobga olib tahlili qilsak, 12 hafta davomida EI ist'emol qilgan kalamushlar 33 % ida PGII darajasini 1.0 mkg/l dan pasayganligi sababli oshqozonning barcha qismida yani total shikastlanganligi ehtimoli mavjudligi va 67 % kalamushlarda esa PGII darajasini 1.0 dan yuqoriligi va PGI ning miqdorining keskin pasayishini hisobga olib asosan oshqozon tubi va tanasi shilliq pardasi zararlangan bo'lishi mumkinligi haqida o'ylash mumkin. Ushbu ma'lumotlar EI ning organizmga surunkali salbiy ta'siri va serologik jihatdan atrofik gastrit belgilari yuzaga kelganligini ko'rsatadi.

Ushbu ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, qisqa muddat EI ist'emol qilgan hayvonlarda oshqozon shilliq qavati epiteliysida o'choqli o'zgarishlar yuzaga kelishi mumkin. Surunkali zaharlanish esa oshqozon shilliq qavatida qaytmas organik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Surunkali ta'sirdagi ma'lumotlar atrofik gastritning serologik belgilarini ko'rsatadi. Atrofik gastritda xlorid kislotasi sekretsiyasi sezilarli darajada kamayadi va zardobdagi PG1 kontsentratsiyasi 1,84 mkg/l dan kamayadi [1, C.75].


Atrofik gastrit, shu jumladan uning erta asimptomatik shakli diagnostikasi uchun PG1 miqdoriy tahlilidan foydalanish hozirgi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda keng tarqaldi. Ushbu usulning sezgirliigi va spifikligi 90% dan oshadi va olingan natijalarning ishonchliligi endoskopiya va gistologik tekshiruvlarga qaraganda kasallikning erta bosqichida sezilarli darajada yuqoridir [5, C.57].

Tajribaning 2 qismida 2- guruhda oshqozonda EI ta'sirida yuzaga kelgan o'zgarishlarni korreksiya qilish maqsadida antioksidantlik va yallig'lanishga qarshi ta'sir qiluvchi komponentlarga boy bo'lgan yog' kislotalari saqllovchi kunjut yog'i bilan korreksiya qilingan kalamushlarda qondagi pepsinogenlar darajasida ijobiy o'zgarishlar aniqlandi. Bu asosan 4 va 8 hafta davomida EI iste'mol qilgan hayvonlarda yaqqol kuzatildi. Bu o'zgarishlar quyida keltirilgan bo'lib, EI ta'sir muddatlarining turli davrlari bo'yicha farq qiluvchi natijalar olindi. 4 hafta davomida EI ta'sirida bo'lgan tajriba hayvonlarda PG1 ning darajasi 22 % ga, PG2 ning darajasi 14 %, PG1/PG2 nisbati esa 5 % ga ko'tarilganligi aniqlandi. 8 hafta davomida EI ta'sirida bo'lgan tajriba hayvonlarida PG1 ning darajasi 28%, PG2 ning darajasi 13%, PG1/PG2 nisbati esa 4% ko'tarilganligi aniqlandi. 4 va 8 hafta EI ta'sir qilgan kalamushlarda kunjut yog'i ta'sirida PG1 ning konsentrasiyasidagi ijobiy o'zgarishlarni xisobga olgan xolda bu kalamushlarda oshqozonning tubi va tana qismining shilliq


pardasida regenerasiya sezilarli darajada yaxshilanganligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Bu o'zgarishlar kunjut yog'i tarkibidagi fitosterollar ta'sirida epeteliy xujayralari membranasidagi lipidlarning struktur xolatining tiklanishi va oshqozon devoridagi shilliq qavat xujayralarida apaptoz xolati kamayganligidan dalolat beradi (1- va 2-rasm).

12 hafata davomida EI ta'sirida bo'lgan tajriba hayvonlarda PG1 ning darajasi 12 %, PG2 ning darajasi 15 %, PG1/PG2 nisbati esa 2% ko'tarilganligi aniqlandi. Pepsinogenlar darajasining ko'tarilish koefisenti ushbu guruhdagi hayvonlarda asosan PG2 konsentrasiyasida ijobiy o'zgarishlarni inobatga olgan xolda asosan oshqozonning kardial, pilorik qismlarida shilliq qavat tiklanishi ijobiy o'zgarishlar bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bu shundan dalolat beradiki, EI ning surunkali ta'siri oqibatida oshqozonda fundal va tana qismida yuzaga kelgan patologik o'zgarishlar uzoq muddatli reabilitasiya talab qilishini ko'rsatadi (1- va 2-rasm).

12 hafta EI iste'mol qilishda barcha kalamushlarning qon zardobida PG1, PG2 keskin kamaydi (2- rasm).



Rasm 1. Nazorat va tajriba guruhlaridagi kalamushlarda PGI ning o'rtacha ko'rsatkichlari



Rasm 2. Nazorat va tajriba guruhidagi kalamushlarda PGII ning o'rtacha ko'rsatkichlari

Bizning tadqiqotda kunjut yog'i yuqorida keltirilgan o'zgarishlarni bartaraf qilishi va ushbu ta'sirdan himoya qilish qobiliyatini tekshirish uchun ishlatilgan, chunki bu yog' tarkibidagi ingredientlar oshqozon epeteliy hujayralarini turli zararli ta'sirlardan ximoya qilishi haqida ma'lumotlar mavjud.

Kunjut yog'i tarkibidagi poli- to'yinmagan va mono- to'yingan yog' kislotalar yallig'lanishga qarshi va antioksidant ta'sirga ega. Bu ikkita muhim yog' kislotasi aralashmasi: eikosapentaenoik kislota (EPK) va dokosaheksaenoik kislota (DHA) salomatlikni saqlashda va surunkali yallig'lanish kasalliklarini, masalan, oshqozon- ichak traktining turli xil yallig'lanish kasalliklarini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, muhim yog' kislotalari oshqozon- ichak traktining shilliq qavatini turli zararli omillardan himoya qilishga yordam beradi [20].

Omega 6, 9, 3 ning EI bilan bog'liq biokimyoviy o'zgarishlar ta'sirida oshqozon fundal shilliq qavatini himoya qilishda biroz muvaffaqiyatli ekanligi kuzatildi. PG1 va PG2 ning miqdori va intensivligi oshishini ko'rishimiz mumkin, bu sekretor faollik asta-sekin tiklanganligini ko'rsatadi. Yog' kislotalari oshqozon epiteliy hujayralarida apoptotik gen ekspressiyasini va DNK parchalanishini pasaytirish orqali oksidlovchi stressdan kelib chiqqan apoptozni oldini oladi. Kunjut yog'i yuqori kislotalilikni tezda zararsizlantirishga yordam beradi, yallig'lanishga qarshi va bakteritsid ta'sirga ega, oshqozon-ichak shilliq qavatining barcha turdagi eroziv va yarali o'zgarishlarini bartaraf etishga yordam beradi. Shuning uchun bu yog' giperacid xolatlarida, ich qotishi, gastroduodenit, oshqozon yarasi, kolit, enterokolit, oshqozon osti bezi kasalliklari, gelmintozlar va gastritning oldini olishda, davolashda qo'llaniladi. Kunjut yog'idan doimiy foydalanish turli xil saraton kasalliklarini oldini olishda samarali vosita hisoblanadi [10, P.43].

Quyida ayrim olimlarning bu borada olib borgan ishlarining natijalari tahlili beriladi. EI larning oshqozon ichak traktidagi gistopatologik o'zgarishlar bo'yicha tadqiqotlar haqida ilmiy ma'lumotlar nisbatan kam.

4. Эпи - и субдуральные гематомы в объеме от 70,0- 80,0% см³ до 80,0-160,0 см³, чаще всего отмечались в лобно-височно-затылочный части. Гематомы, расположенные на своде и в боковых частях больших полушарев были удалены, однако часть гематом, расположенные у основании мозга и в области стволовой части почти во всех случаев не были удалены в процессе нейрохирургических вмешательств, что и привело к лизису ткани мозга в зоне поражения. Субарахноидальные кровоизлияния в большинстве случаев были распространенными и в зонах ушибов – наиболее интенсивными, при многооскольчатых переломах в зонах ушибов выявлялись и размягчений вещества мозга.

5. В раннем периоде травмы смерть пострадавших с ЧМТ наступила от тяжелого ушиба мозга, затем – от отека и набухания, а в последующих сроках травмы (недели и более) выявлялись инфекционные осложнения – менингит и менингоэнцефалит. К наступлению смерти способствовали сочетанные травмы груди, живота и опорно-двигательного аппарата.

6. Приведенные данные могут быть учтены при оказании медицинской помощи больным с ЧМТ, а также в процессе проведения судебно-медицинских экспертиз случаев травмы головы.

IQTIBOSLAR | СНОСКИ | REFERENCES:

1. Гусев А.О. Научное обоснование повышения эффективности работы стационара в условиях рыночной экономики: автореф. дис. ... канд. мед. наук. СПб, 1998. 18 с.
2. Егоров А.Ю. Алкоголизм в позднем возрасте: гендерный аспект // Журн. неврологии и психиатрии им. С. С. Корсакова. 2006. № 9. (106). С. 17–21.
3. Каджая Н.В., Семисалов С. Я. Тяжелая повторная черепно-мозговая травма // Матер. Всерос. науч.-практ. конф. «Поленовские чтения». СПб., 2005. С. 59–60.

4. Каримов Р.Х., Данилов В.И., Панкова В.П. Эпидемиологические аспекты своевременности оказания медицинской помощи пострадавшим с черепно-мозговой травмой // Неврологический вестник. 2006. Т. XXXVIII, вып. 1/2. С. 28–34.
5. Карпов С.М., Копыл А.В., Мальченк Н.И., Вышлов И.А, Гандылян К.С. Особенности развития отека головного мозга в остром периоде тяжелой черепно-мозговой травмы в разных возрастных группах. Журнал судебная медицина том 2 no1, февраль 2016,с.
6. Клевно В.А., Кононов Р.В., Чирков О.Ю. Анализ структура черепно-мозговой травмы (по данным Алтайского краевого бюро СМЭ за 2000 года) Альманах судебной медицины N 2 (2001), стр.74-78
7. Клинические особенности сочетанной черепно-мозговой травмы / О.В. Могучая, В.В. Щедренко, Е.В. ХачатуроваТавризян, И.А. Соваков // Матер. Всерос. науч.-практ. конф. «Поленовские чтения». СПб., 2008. С. 61–62.
8. Клиническое руководство по черепно-мозговой травме: / А.Н. Коновалов, Л.Б. Лихтерман, А.А. Потапов [и др.]. М.: Антидор, 2002. Т. 1. 550 с.
9. Колесников Е.С. Структура тяжелой сочетанной краниоторакальной травмы в городе Омске // Тез. Всерос. науч.-практ. конф. «Поленовские чтения». СПб., 2008. С. 54–55.
10. Крылов В.В., Талыпов А.Э., Пурас Ю.В. Выбор трепанации в хирургии тяжелой черепно-мозговой травмы // Вопросы нейрохирургии. 2007. № 1. С. 11–16. .
11. Лихтерман Л.Б. Классификация черепно-мозговой травмы. Часть I. Предпосылки и история. Журнал «Судебная медицина», ТОМ 1 №1, 2015 , с. 42-45
12. Лихтерман Л.Б., Кравчук А.Д., Филатова М.М. Сотрясение головного мозга: тактика лечения и исходы. М.: ИП «Т. М. Андреева», 2008. 159с
13. Некоторые аспекты черепно-мозговой травмы у пострадавших с острой и хронической алкогольной интоксикацией / В.Г. Валерко, В.П. Берснев, С. А. Морозов [и др.] // Тез. Всерос. науч.-практ. конф. «Поленовские чтения». СПб.,2009. С. 37–38. 19.
14. Потапов, В.А., Клевно В.А., Охлопков В.А. Последствия черепно-мозговой травмы. Журнал судебная медицина наука | практика | образование. www. Судебная медицина. Рф • ТоМ 2 No4, декабрь 2016
15. Сабилов Д.М., Росстальная А.Л., Махмудов М.А. Эпидемиологические особенности черепно-мозгового травматизма. Шошилинич тиббиёт ахборотномаси, 2019, 12 т., №2 с.61-66
16. Сергеев В.А. Сравнительное клинико-психологическое исследование больных с отдалёнными последствиями черепно-мозговой травмы, осложнёнными алкогольной зависимостью: автореф. дис. ... д-ра мед. наук. Челябинск, 2006. 32с.
17. Фейгин А.В, Золотенкова Г.В., Горелкин Д.Г., Романько Н.А., Тархнишвили Г.С. Конструкционные переломы свода черепа с резко выраженными дегенеративными изменениями костной ткани. Журнал «Судебная медицина», ТОМ 1 No1, 2015
18. Шеховцова К.В., Шеховцов В.И., Кондаков Е.Н. Эпидемиология черепно-мозговой травмы и организация медицинской помощи пострадавшим в Ставропольском крае // Нейрохирургия. 2006. № 3. С. 59–63.
19. Шукри А.А., Берснев В.П., Рябуха Н.П. Эпидемиология черепно-мозговой травмы в г. Аден, Йемен // Нейрохирургия. 2006. № 1. С. 50–52.;
20. Rosstalnaya A.L. Effect of respiratory support on cerebral hemodynamics in patients with severe traumatic brain injury; a randomized controlled trial. Wid Sci 2017; 38 (24): 45-9
21. Zador P. L. Alcohol related relative risk of fatal driver injuries in relation to driver age and sex // J. Stud. Alcohol. 1991. Vol. 52. P. 302–310.



УДК: 616.72-004.2:616.12:615

MUKHAMMADIEVA Sevara Murodullayevna
NABIEVA Dildorakhan Abdumalikovna
ZIYAEVA Feruza Kamallidinovna
MIRHAMIDOV Mirziyod Vosilzhonovich
SHIRANOVA Shakhnoza Abdinazarovna
Tashkent medical academy

EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF A TUMOR NECROSIS FACTOR INHIBITOR IN THE TREATMENT OF ANKYLOSING SPONDYLITIS

For citation: Mukhammadieva M. Sevara, Nabieva A. Dildorakhan, Ziyaeva K. Feruza, Mirhamidov V. Mirziyod, Shiranova A. Shakhnoza. Evaluation of the effectiveness of a tumor necrosis factor inhibitor in the treatment of ankylosing spondylitis // Journal of Biomedicine and Practice. 2023, vol. 8, issue 1, pp.294-302



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7835661>

ANNOTATION

This article is devoted to the effectiveness of treating ankylosing spondylitis (AS), a chronic inflammatory disease of the musculoskeletal system. The study included 53 patients with active AS (BASDAI activity index >4) and failure of standard therapy, which included the TNF- α inhibitor infliximab (INF) at a dose of 3-5 mg/kg intravenously for 0, 2, 6 weeks and next every 8 weeks. In patients treated with INF, a positive clinical effect was achieved by indicators BASDAI and BASMI scores, as well as a remarkable positive result in dynamics vertebral mobility index and BASFI score. Tolerability of INF patients was satisfactory.

Keywords: ankylosing spondylitis, diagnosis, treatment, TNF- α inhibitors, infliximab.

МУҲАММАДИЕВА Севара Муродуллаевна
НАБИЕВА Дилдорахон Абдумаликовна
ЗИЯЕВА Феруза Камаллидиновна
МИРХАМИДОВ Мирзиёд Восилжонович
ШИРАНОВА Шахноза Абдиназаровна
Тошкент тиббиёт академиясининг 1-сон факултет ва
госпитал терапия, касб патологияси кафедраси

АНКИЛОЗЛОВЧИ СПОНДИЛОАРТРИТНИ ДАВОЛАШДА ЎСМА НЕКРОЗИ ОМИЛИ ИНГИБИТОРИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақола суяк-мушак тизимининг сурункали яллиғланиш касалликларидан бири бўлган анкилозловчи спондилоартрит (АС) касаллигида даволаш самарадорлигини баҳолашга

қаратилган. Тадқиқотга фаол АС (BASDAI фаоллик индекси >4) билан касалланган ҳамда стандарт терапия самара бермаган 53 та беморга ЎНО- α ингибитори - инфликсимаб (ИНФ) дори воситаси 3-5 мг/кг дозада/тана вазнига томир ичига 0, 2, 6 ҳафталада ва кейинчалик ҳар 8 ҳафтада қўлланилди. ИНФ билан даволанган беморларда BASDAI ва BASMI индекслари бўйича аниқ клиник самарага эришилди, умуртқа поғонаси ҳаракатчанлиги индекслари ҳамда BASFI индекси динамикасида ҳам ижобий натижа аниқланди. билан тасдиқланди. ИНФ нинг беморлар томонидан қабул қилиниши қониқарли бўлди.

Калит сўзлар: анкилозловчи спондилоартрит, диагностика, даволаш, ЎНО- α ингибиторлари, инфликсимаб.

МУХАММАДИЕВА Севара Муродуллаевна
НАБИЕВА Дилдорахон Абдумаликовна
ЗИЯЕВА Феруза Камаллидиновна
МИРХАМИДОВ Мирзиёд Восилжонович
ШИРАНОВА Шахноза Абдиназаровна
Ташкентская медицинская академия

ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНГИБИТОРА ФАКТОРА НЕКРОЗА ОПУХОЛИ В ЛЕЧЕНИИ АНКИЛОЗИРУЮЩЕГО СПОНДИЛОАРТРИТА

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена оценке эффективности лечения анкилозирующего спондилоартрита (АС), одного из хронических воспалительных заболеваний опорно-двигательного аппарата. В исследование включены 53 больных с активным АС (индекс активности BASDAI >4) и неэффективностью стандартной терапии, которые получали ингибитор ФНО- α - инфликсимаб (ИНФ) в дозе 3-5 мг/кг внутривенно капельно при 0, 2, 6 недель и далее каждые 8 недель. У пациентов, получавших ИНФ, был достигнут положительный клинический эффект по показателям BASDAI и BASMI, также отмечен положительный результат в динамике показателей подвижности позвоночника и индекса BASFI. Переносимость ИНФ пациентами была удовлетворительной.

Ключевые слова: анкилозирующий спондилоартрит, диагностика, лечение, ингибиторы ФНО- α , инфликсимаб.

Анкилозловчи спондилоартрит (АС) - инсон таянч-ҳаракат тизимининг кенг тарқалган сурункали яллиғланиш касалликларидан биридир. АС аҳоли ўртасида учраш частотаси 0,9% га етади [1]. АС билан оғриган беморларнинг аксариятида (81-97%) касалликнинг дастлабки белгилари 40 ёшдан олдин содир бўлади ва 10 ёшгача бўлган болаларда (2%), шунингдек, 50 ёшдан ошган инсонларда (5%) жуда кам учрайди. Эркаклар аёлларга қараганда АС билан 3 марта кўп касал бўлишади [2,3].

Муаммонинг ижтимоий аҳамияти шундан келиб чиқадики, беморларнинг асосий контингентини ёшлар ташкил қилади ва касаллик кўпинча узоқ муддатли ва эрта ногиронликка олиб келади. Дастлабки 5 йилда АС билан оғриган беморларнинг 20%идан ортиғи ногирон бўлиб қолади, касаллик 10 йилдан ортиқ давом этганларда - 45% ва оёқ бўғимлари шикастланган беморларнинг 60-65%ида ногиронлик аниқланади [4]

Ҳозирги вақтда АСни даволаш тамойиллари касаллик кечиш жараёни ва унинг оқибатлари ҳақида батафсил маълумотлар борлиги, диагностика усуллариини такомиллаштириши, таснифлаш мезонларини аниқлаштирилиши ва сурункали яллиғланиш касалликларининг молекуляр механизмларини тушунишга чуқурроқ муносабат сабабли сезиларли ўзгаришларга дуч келмоқда.

Ўтган асрнинг 90-йиллари охирида генетик жиҳатдан яратилган биологик препаратлар (ГИБП) клиник амалиётга киритилиб, инсоннинг турли касалликларида иммун-яллиғланиш

жараённинг энг муҳим воситачиси бўлган ўсма некрози омили-α (ЎНО-α) нинг фаолиятини блоклайди [5, 6].

Ҳозирги вақтда Ўзбекистонда АСни даволаш учун ЎНО-α ингибитори - инфликсимаб (ИНФ), рўйхатга олинган. ИНФ - IgG1 изотипининг ЎНО-α га химерли моноклонал антитанаси.

Тадқиқотимизнинг мақсади АС беморларни даволашда ИНФ дори воситасининг самарадорлигини баҳолаш бўлди.

Беморлар ва усуллар. Тадқиқотда Тошкент тиббиёт академияси кўп тармоқли клиникасининг ревматология ва артрологик амбулатор бўлимида 2020 йил сентябридан 2022 йил сентябригача даволанган 53 нафар АСли беморлар (37 эркак, 16 аёл) жалб этилди. АС билан оғриган беморларнинг умумий характеристикаси 1-жадвалда келтирилган. Биз тадқиқотга сўнгги 3 ой давомида максимал дозаларда ностероид яллиғланишга қарши дорилар (НЯҚД), сульфасалазин, метотрексат, глюкокортикоидлар (ГК) қабул қилганига қарамасдан самара бўлмаган ва касалликнинг фаол босқичи (BASDAI фаоллик индекси >4) 4 ҳафта давом этган беморларни жалб этдик. Тадқиқотга киритилган 53 та беморлар ИНФни 3-5 мг/кг дозада/тана вазнига томир ичига 0, 2, 6 ҳафталарда ва кейинчалик ҳар 8 ҳафта олди.

Касалликнинг фаоллигини баҳолаш учун BASDAI (Bath Ankylosing Spondylitis Disease Activity Index) ва ASDAS (Ankylosing Spondylitis Disease Activity Score), функционал ҳолати - BASFI (Bath Ankylosing Spondylitis Functional Index) ва BASMI (Bath Ankylosing Spondylitis Metrology Index) индекслари ишлатилган. Энтезитлар сонини ҳисоблаш учун тасдиқланган MASES (Maastricht Ankylosing Spondylitis Enthesitis Score) энтезит индекси ишлатилди. Сўнгги ҳафтада умуртқа поғонасида ва бўғимлардаги оғриқлар визуал аналогли шкала (ВАШ) ёрдамида баҳоланди.

Эритроцитлар чўкиш тезлиги (ЭЧТ) Вестергрэн усули билан ўрганилди [7]. Барча беморларда HLA-B27 антигени аниқланди ва тос суяқларининг рентгенографияси ўтказилди. Kellgren-Lowrens (1987) бўйича бир томонлама ёки икки томонлама сакроилиит (СИ) белгилари 41 беморда аниқланган. Яллиғланишли бел оғриғи ва спондилоартритларнинг бошқа кўринишлари бўлган 34 беморда СИ нинг рентгенологик белгилари аниқланмади; СИ ташхиси учун уларга МРТ текширув ўтказилди. Ўткир яллиғланишни аниқлаш учун СТИР режимида (ёғ бостириш билан) T1 ва T2 режимларидан фойдаланилган (T2 ёғларнинг тўйинганлиги) ёки T2 СТИР. СИ суяк илиги шишининг кетма-кет иккита бўлимда ёки бир кесмада бир нечта яллиғланиш зоналари мавжудлигида ишончли деб ҳисобланди [8,9]. Тадқиқот SIGNANDxt 3.0T қурилмасида (АҚШ) амалга оширилди.

Энг кўп учрайдиган тизимли кўринишлар, бу - кўзнинг шикастланиши (увеит, иридоциклит) 18та беморда (20%), иситма 9 та беморда (10%) ривожланди, гемоглобиннинг 120 г / л гача пасайиши билан камқонлик 29 та беморда (33%) ва аортит аорта етишмовчилиги билан 3та беморда (3%) аниқланди.

Лаборатор текширувлар қон ва сийдик клиник таҳлиллари, биокимёвий қон тестлари, С-реактив оксил (СРО) даражасини аниқлаш, HLA-B27ни аниқлаш орқали тақдим этилди.

Жадвал 1

АС билан оғриган беморларнинг умумий характеристикаси

| Параметрлар | Кўрсаткичлар (ум.беморлар сони 53та) |
|-----------------------------------|--------------------------------------|
| Эркаклар/аёллар | 42/11 |
| Беморлар ёши, йилларда | 35±9 |
| Касаллик давомийлиги, йилларда | 13,9±7,5 |
| Периферик артрит, n (%) | 36 (67) |
| Тизимли кўринишлари, n (%) | 37 (69) |
| Сульфасалазин/метотрексат, n | 27/18 |
| ГК ичга қабул қиладиганлар, n | 13 |
| ASDAS бўйича фаоллик ўрта/оғир, n | 23/33 |
| BASDAI индекси (0-10) | 8,3±3,7 |

| | |
|----------------------|----------|
| BASFI индекси (0-10) | 6,2±2,5 |
| BASMI индекси (0-10) | 19,4±8,1 |

Клиник ва лаборатор таҳлиллар динамикаси асосида ЎНО-а ингибиторлари билан терапиянинг ноҳўя томонлари қайд этилди. Терапиянинг самарадорлиги 12, 24 ва 48 ҳафталардан кейин баҳоланди.

АСнинг қисман ремиссияси мезонлари ВАШ (0-10) бўйича беморнинг умумий ҳолатини баҳолашни ўз ичига олади, оғриқ - охириги 2 кун давомида ВАШ балли (0-10), таянч-ҳаракат аппаратининг BASFI функцияси (0-10), эрталабки қарахтликнинг яққоллилиги ва давомийлиги (BASDAI индексининг 5 ва 6-саволларининг ўртача қиймати). Қисман ремиссия - барча тўртта кўрсаткичнинг қийматлари 10 баллик тизимда 2 балл кўп бўлмаслиги лозим [9].

Натижаларни статистик қайта ишлаш Statistica 6.0 дастурий пакети ёрдамида (StatSoft, АҚШ), шу жумладан умумий қабул қилинган параметрик усуллар ва параметрик бўлмаган таҳлил билан биргаликда амалга оширилди. Таққослашда тақсимланиши одатдагидан фарқ қиладиган параметрлар учун иккита гуруҳ учун Mann-Whitney тести ишлатилди, натижалар медиан (Me) сифатида (25; 75 фоизли) тақдим этилади. Корреляция таҳлили Spearman усули бўйича ўтказилди. Фарқлар $p < 0.05$ да статистик аҳамиятга эга деб ҳисобланди.

Натижалар. 53 бемордан 41 нафари (77,3%) АС мезонларига жавоб берди (ўртача ёш $36,4 \pm 0,9$ йил) ва 12 (22,6%) норентгенологик аксиал спондилоартрит (Нр-ахСпА) мезонларига жавоб берди (ўртача ёш $27,0 \pm 1,6$ йил). АС ва Нр-ахСпА билан касалланган беморларнинг умумий хусусиятлари 2-жадвалда келтирилган. Жадвалдан кўриниб турибдики, иккала гуруҳда ҳам эркаклар аёлларга нисбатан кўпроқ. Иккала гуруҳдаги беморлар ўртасида касалликнинг бошланиши ёшида фарқлар кузатилмади. Нр-ахСпА гуруҳида аёл беморларда касалликнинг биринчи белгилари пайдо бўлиш вақтида ёши биров каттароқ эди, аммо бу фарқлар аҳамиятсиз ($p > 0,05$) бўлди. Ташхис қўйиш вақтида сезиларли фарқлар йўқ эди, гарчи аёл беморларда касаллик АСни ўзига қараганда кечроқ аниқланган ($p > 0,05$). Иккала гуруҳдаги беморларнинг 92%ида HLA-B27 антигени аниқланган.

Жадвал 2

АС ва Нр-ахСпА пациентларнинг умумий характеристикаси

| Кўрсаткичлар | АС (n=41) | | Нр-ахСпА (n=12) | |
|-------------------------------------|-----------------|----------------|-----------------|----------------|
| | эркаклар (n=28) | аёллар (n=13) | эркаклар (n=7) | аёллар (n=5) |
| Ёш, йилларда | $36,6 \pm 1,0$ | $36,2 \pm 1,2$ | $25,9 \pm 1,4$ | $29,7 \pm 2,4$ |
| Касаллик бошлангандаги ёш, йилларда | $21,5 \pm 0,6$ | $21,6 \pm 1,0$ | $20,3 \pm 1,4$ | $25,2 \pm 2,1$ |
| Касаллик давомийлиги, йилларда | $14,6 \pm 0,6$ | $15,1 \pm 1,1$ | $3,9 \pm 1,8$ | $4,4 \pm 1,0$ |
| Ташхис қўйиш вақти, йилларда | $11,5 \pm 0,8$ | $12,0 \pm 1,2$ | $2,9 \pm 0,4$ | $4,2 \pm 1,0$ |
| HLA-B27-антиген, n (%) | 25 (89,3) | 12 (92,3) | 6 (85,7) | 5 (100) |

ИНФ билан даволаш учун беморларни танлаш Халқаро ASAS тадқиқот гуруҳи ишчи тавсияларига мувофиқ амалга оширилди, бунда ностероид яллиғланишга қарши дориларни (НЯҚВ) етарли даражада қўллашга қарамай давом этувчи доимий юқори касалликнинг фаоллигига асосланишини тақлиф қилади. Шунингдек, периферик артрит /энтезит билан оғриган беморларда сулфасалазин/метотрексатнинг самарасизлиги ва глюкокортикоидлар (ГС) билан маҳаллий терапия самарасизлиги ҳам қайд этилди.

ИНФ терапияси бошланишидан олдин барча беморларда кенг камровли клиник ва лаборатория текшируви, яъни ўпканинг рентгенологик текшируви ва шу жумладан интрадермал туберкулин тестини баҳолаш ўтказилди. Илгари сил касаллигига чалинганлар,

шунингдек туберкулин тести ижобий бўлган беморлар тадқиқотга киритилмади. Бундан ташқари, ҳар қандай фаол ёки тез-тез такрорланадиган, жиддий инфекциялар билан коморбид ҳолатларда ҳам ИНФдан фойдаланиш истисно қилинди.

ИНФ терапияси бошланганидан 12 ҳафта ўтгач аниқ клиник ва лаборатор динамика аниқланди: ЭЧТ ва СРО концентрациясининг 2 марта пасайиши, гемоглобин даражаси ошди. 24 ва 48 ҳафталик терапия давомида ИНФ қабул қилган беморларда сезиларли даражада лаборатория ўзгаришлари кузатилди ва даволанишнинг 48-ҳафтаси охирида ушбу гуруҳда ЭЧТ 3 мартадан ортик, СРО даражаси - 6 марта (3-жадвал) пасайиш кузатилди.


Жадвал 3

Инфликсимаб билан даволаш фонида лаборатор кўрсаткичларнинг динамикаси

| Кўрсаткичла P | Дастлабк и | 12 ҳафта | | 24 ҳафта | | 48 ҳафта | |
|--------------------|---------------|----------------|------------|----------------|------------|----------------|------------|
| | | n=53/33 | P | n=42/24 | P | n=37/15 | P |
| ЭЧТ, мм/соат | 39,6±15,8 | 19,8±12,4 | <0,00 1 | 17,2±13,8 | <0,00 1 | 18,6±10,3 | <0,00 1 |
| СРО, мг/л | 36,8±17,3 | 13,2±10,6 | <0,00 1 | 9,8±11,4 | <0,00 1 | 7,9±14,6 | <0,00 1 |
| Гемоглобин, г/л | 115,7±14,5 | 129,5±10, 8 | <0,00 1 | 133,8±12, 3 | <0,00 1 | 137,6±15, 3 | <0,00 1 |

Дори воситаларини қабул қилишнинг умумий қабул қилинган шартларига қайтгандан сўнг, касаллик фаоллигининг пасайиши қайд этилди. Касаллик BASDAI индексига кўра терапия самарадорлигини таҳлил қилиш, даволаниш бошланганидан 12, 24 ва 48 ҳафта ўтгач ҳам АСнинг клиник фаоллигининг сезиларли пасайишини кўрсатди.

ИНФ қабул қилган беморларда даволашнинг 12-ҳафтаси охирида ўртача BASDAI қиймат $5,5 \pm 2,5$ ни ташкил этди, 24 ҳафтадан кейин - $4,3 \pm 2,0$ ва 48 ҳафтадан кейин - $3,8 \pm 2,0$ балл; 48 ҳафталик терапиядан сўнг янада аниқ динамика қайд этилди. Қисман ремиссия (BASDAI <4 балл) 24 беморда эришилди (64%) (1-расм). Кузатув охирига келиб, фаоллик индекси ИНФ билан даволанган беморларда 2 баробарга камайди.



Расм 1. АС ли беморларда ИНФ билан даво фонида BASDAI, BASFI ва BASMI индекслари динамикаси.

ASDAS индексига кўра дастлаб юқори АС фаоллиги 33та (62%) беморда аниқланган. Терапия бошланганидан 12 ҳафта ўтгач, ИНФ билан даволанган беморларнинг 69 фоизда (53 тадан 37 тасида) АС фаоллиги сезиларли даражада камайди ва 51% (37 дан 19 таси) да минимал бўлди. 24 ҳафтадан сўнг яллиғланиш жараёнининг юқори фаоллиги 2 та (4%) беморда, ўртача – 21 та (50%) ва паст – 19 та (45%) беморларда сақланиб қолди.

BASFI индекси ёрдамида таянч-ҳаракат тизимининг функционал ҳолатини баҳолаш (1-расм). 12 ҳафталик даволанишдан сўнг сезиларли ўзгаришларни кўрсатди. Ўртача қиймат 2 мартадан кўпроқ камайди ва ИНФ гуруҳида $4,2 \pm 2,2$ баллни ташкил этди, 24 ва 48 ҳафталик даволанишдан сўнг, бошланғич кўрсаткичлар билан солиштирганда функционал қобилиятнинг барқарор яхшиланиши кузатилди. ИНФ қабул қилган беморларда BASFI нинг паст даражаси 25 та (67%) беморда аниқланди, 9 та (24%) беморда функционал бузилишлар кузатилмаган.

BASMI индексига кўра функционал ҳолатни баҳолашда ижобий тенденция кузатилди: ИНФ билан 12 ҳафталик даволанишдан кейин индекс $16,1 \pm 7,3$ га камайди, 24 ҳафтадан кейин - $14,1 \pm 5,3$ гача, 48 ҳафтадан кейин - $13,6 \pm 4,8$ гача (1-расм) камайди. Шунингдек, умуртқа поғонаси индексларида ҳам ижобий ўзгаришлар кузатилди (4-жадвал).

Жадвал 4

АС ли беморларда ИНФ билан даво фонидида умуртқа индексларининг динамикаси

| Кўрсаткичлар | Дастлабки | 12 ҳафта | | 24 ҳафта | | 48 ҳафта | |
|-------------------------------------|-----------|-----------|--------|-----------|--------|-----------|--------|
| | | n=53/33 | P | n=42/24 | P | n=37/15 | P |
| У.п. бўйин қисми ротация-си, градус | 36,3±12,8 | 42,6±12,4 | <0,001 | 41,3±10,4 | <0,001 | 39,5±16,7 | <0,06 |
| Дахан-тўш симптоми, см | 1,4±0,8 | 1,1±1,7 | <0,01 | 1,1±1,8 | <0,01 | 1,0±1,6 | <0,01 |
| Томайер симптоми, см | 36,3±25,9 | 20,3±27,6 | <0,01 | 14,5±15,3 | <0,002 | 10,6±16,3 | <0,01 |
| Кўкрак қафаси экскурсияси, см | 4,0±1,6 | 4,8±1,8 | <0,001 | 4,6±1,1 | <0,002 | 4,9±1,3 | <0,002 |
| Энса-девор масофаси, см | 3,8±4,8 | 2,9±3,9 | <0,01 | 3,6±3,9 | <0,001 | 3,4±4,0 | <0,001 |
| У.П. ёнга эгилиши, см | 12,4±7,1 | 16,2±6,5 | <0,001 | 15,8±6,9 | <0,001 | 16,6±7,4 | <0,001 |
| Шобер тести, см. | 2,6±1,5 | 3,7±1,3 | <0,05 | 4,0±1,1 | <0,05 | 3,9±0,8 | <0,002 |

Изоҳ: У.П.- умуртқа поғонаси

ИНФ билан даволашнинг дастлабки босқичида, умуртқа поғонасидаги ҳаракатларнинг сезиларли даражада ошиши кузатилди. Статистик жиҳатдан сезиларли даражада яхшиланган ўртача қийматлар бўйин умуртқалари ротацияси (6 ° га), кўкрак қафаси экскурсияси (1 см.га), умуртқа поғонасида ёнга эгилишлар (5 см.га) кузатилди. Бундай ижобий динамика бу беморларда умуртқа поғонаси ҳаракатидаги чекланишлар умуртқалардаги структур ўзгаришлар эмас, балки фаол яллиғланиш жараёни ҳисобига келиб чиққанини тасдиқлайди.

Тадқиқотимизда ASAS мезонларидан фойдаланган ҳолда ИНФ билан даволаш самарадорлигини баҳолаш шуни кўрсатдики, 24 ҳафталик терапиядан сўнг кўпчилик беморларда АСнинг қисман ремиссияси кузатилган. ИНФ гуруҳида 37 та (69%) беморларда қисман ремиссияга эришилди.

Инфликсимабнинг қабул қила олишлик ва хавфсизлигини баҳолаш. Бизнинг тадқиқотимизда ноўя таъсирларнинг (НТ) умумий частотаси 34% ни ташкил этди. ИНФ гуруҳидаги 2 беморда жиддий НТ аниқланди. Даволашнинг 12-ҳафтасида уларнинг бирида аллергия реакция: чап кўз қовоғининг шишиши, томоқ оғриғи қайд этилди, шу сабабли препарат бекор қилинди. Иккинчи беморда 24 ҳафталик даволанишдан кейин периодонтитнинг ривожланиши ИНФни вақтинча, тўлиқ тикланишигача бекор қилиш учун сабаб бўлди.

12 ва 24 ҳафталик терапиядан сўнг, 2 нафар бемор клиник қон тестида лейкоцитлар ва тромбоцитлар сонининг кўпайишини кўрсатди. 9 та беморда, ўткинчи хусусиятга эга бўлган жигар ферментлар даражасининг, норманинг юқори чегараси билан солиштирганда, 2 мартадан кўпроқ ошиши қайд этилди. Гепатопротекторлар билан даволаш курсидан сўнг бу кўрсаткичлар нормал ҳолатга қайтди, ИНФ билан даволаш давом эттирилди. 2 та беморда терапия бошланганидан 24 ҳафта ўтгач ИНФ самарадорлигининг сусайиши ва клиник ва лаборатор фаоллигининг ошиши аниқланди, шу сабаб ИНФ бошқа препаратга алмаштирилди (5-жадвал).

Шундай қилиб, тадқиқотимизда НТ 20та (37%) беморда кузатилди, ўлим ҳолатлари, хавfli ўсмалар ёки сил касаллиги қайд этилмади.

Жадвал 5

Инфликсимаб билан даволаш фонида кузатилган ноўя таъсирлар (n)

| Ноўя таъсирлар | 12 ҳафта | 24 ҳафта | 48 ҳафта |
|--|----------|----------|----------|
| Гепатотоксик: АЛТ, АСТ, ГГТП, ИФ | 3 | 3 | - |
| Гематологик: лейкоцитоз, тромбоцитоз | 1 | - | - |
| Креатинин даражасининг ошиши | 1 | 2 | 3 |
| Инфекцион асоратлар: периодонтит, сийдик йўллари инфекцияси | - | 3 | - |
| Терига хос: эшакми, аллергияк дерматит, ўчоқли аллопеция | - | 2 | 1 |
| Иридоциклит рецидиви | - | - | 1 |

Изоҳ: АЛТ – аланинаминотрансфераза, АСТ-аспартараминотрансфераза, ГГТП-γ-глутаминтрансфераза, ИФ-ишқорий фосфатаза

Мунозара

Бизнинг тадқиқотимиз натижалари АС билан оғриган беморларнинг кўпчилигида ИФН юқори самарадорлигини кўрсатди. ИНФ билан даволашнинг 12-ҳафтаси охирида беморларнинг 69% да ЭЧТни нормаллаштиришга эришилди. 24- ва 48- ҳафтадан кейин беморларнинг 67 фоизиди ЭЧТ доимий равишда паст бўлиб қолди. СРО даражаси 12 ҳафталик терапиядан сўнг 64% беморларда, 24 ҳафтадан кейин - 78% ва 48 ҳафтадан кейин - беморларнинг 72% да нормал ҳолатга қайтди.

ИНФ билан даволаш бошланганидан 12 ҳафта ўтгач, BASDAI касаллик фаоллигининг 50% га камайиши 47% беморларда ($p < 0,05$); 24 ҳафтадан кейин - беморларнинг 66% ида ($p < 0,05$) эришилди, 48-ҳафтадан сўнг терапиянинг ижобий таъсири 70% да сақланиб қолди.

12 ҳафталик терапиядан сўнг, ASDAS индексига кўра АС фаоллиги, 69% беморларда сезиларли даражада камайди ва тадқиқот охирида беморларнинг 51% ида минимал бўлди. Жисмоний функцияни (BASFI индекси) 12 ҳафталик даволанишдан кейин 2 баллга яхшиланиши 56% беморларда ($p < 0,05$), 24 ҳафтадан кейин - беморларнинг 64% ида аниқланди.

ИНФ терапияси пайтида цервикал умуртқа поғонаси айланишининг $36,3 \pm 14,9^\circ$ дан 12 ва 24 ҳафтадан кейин мос равишда $42,5 \pm 14,8^\circ$ ва $41,0 \pm 12,4^\circ$ гача ортиши ($p < 0,001$); кўкрак қафасининг нафас олиш экскурсияси ($4,1 \pm 2,1$ дан $4,9 \pm 1,8$ ва $4,8 \pm 1,5$ см гача, мос равишда 24 ва 48 ҳафталар; $p < 0,003$); бел умуртқа поғонасида эгилиш ($12,2 \pm 6,8$ дан $15,3 \pm 7,3$ гача ва $16,8 \pm 7,2$ см гача) мос равишда 12 ва 48 ҳафталар; $p < 0,001$) қайд этилди.

ИНФнинг беморлар томонидан қабул қилиниш умуман олганда қониқарли бўлди. НТларнинг умумий частотаси беморларнинг 37% да аниқланди (53 тадан 20 таси), бошқа

муаллифларнинг ҳисоботларига қараганда камроқ эди [10,11,12]. М. Vreban ва бошқалар (2002) 80% да (40 дан) НТ кузатилган, М. Schiff ва бошқалар (2008 йил) - 52,1% (165 тадан 86 таси) ва О.А. Румянцева (2010) - беморларнинг 91% (35 дан 32) да [13,14,15]. ИНФ терапиясида оғир НТ ҳолатлари BIOBADASER реестри (Испания) маълумотлари (НТ 5,8% (1915 тадан 102 таси)), билан солиштирганда бизнинг тадқиқотдаги беморларда камроқ аниқланди [16].

ЎНО- α ингибиторларининг кўп клиник тадқиқотлари юқумли асоратларни, шу жумладан сил касаллигини ривожланишига қаратилган. RATIO тадқиқотида кўра, сил касаллигини ривожланиш учун хавф омили ЎНО- α ингибиторлари билан даволашнинг биринчи йилида беморлар ёши бўлган [11]. Шунга ўхшаш маълумотлар Британия биологик маҳсулотлар реестрида келтирилган, бунда ГИБП терапия пайтида яширин сил касаллигининг қайта фаоллашишини ва кейинчалик - туберкулёз de novo ривожланишини қайд этилган.

Бизнинг тадқиқотимизда, ИНФ билан даволаш бошланганидан 24 ҳафта ўтгач, микобактерияли инфекцияни истисно қилиш учун квантиферон тести, диаскинтест ва кўкрак кафаси рентгенограммаси ўтказилди. Таҳлил натижаларига кўра ижобий тест аниқланмади.

Хулоса:

1. ИНФ билан даволанган беморларда BASDAI ва BASMI индекслари бўйича аниқ клиник самарага эришилди, бу ўз навбатида беморларда касалликнинг дастлабки юқори клиник ва лаборатория фаоллиги билан боғлиқ бўлди.
2. Таянч-ҳаракат тизимининг функционал ҳолатида ҳам аниқ ижобий самара қайд этилди, бу умуртқа поғонаси ҳаракатчанлиги индекслари ҳамда BASFI индекси динамикаси билан тасдиқланди.
3. ИНФ нинг беморлар томонидан қабул қилиниши қониқарли бўлди. НТ даволашнинг бутун даври давомида 37% частота билан қайд этилди. Бизнинг тадқиқотимиз натижалари ревматоид артрит билан оғриган беморларда кузатилган дорини яхши қабул қилиш ҳисоботларига мос келди.

IQTIBOSLAR | СНОСКИ | REFERENCES:

1. Burmester GR, Bijlsma JWJ, Cutolo M, McInnes IB. Managing rheumatic and musculoskeletal diseases – past, present and future. *Nat Rev Rheumatol.* 2017;13(7):443-8. doi: 10.1038/nrrheum.2017.95
2. Jog NR, James JA. Biomarkers in connective tissue diseases. *J Allergy Clin Immunol.* 2017;140(6):1473-83. doi: 10.1016/j.jaci.2017.10.003
3. Ivison S, Des Rosiers C, Lesage S, et al. Biomarker-guided stratification of autoimmune patients for biologic therapy. *Curr Opin Immunol.* 2017;49:56-63. doi: 10.1016/j.coi.2017.09.006
4. Giacomelli R, Afeltra A, Alunno A, et al. Guidelines for biomarkers in autoimmune rheumatic diseases – evidence based analysis. *Autoimmun Rev.* 2019;18(1):93-106. doi: 10.1016/j.autrev.2018.08.003
5. Smolen JS. Treat-to-target as an approach in inflammatory arthritis. *Curr Opin Rheumatol.* 2016 May;28(3):297-302. doi: 10.1097/BOR.0000000000000284
6. Насонов Е.Л., Олюнин Ю.А., Лиля А.М. Ревматоидный артрит: проблемы ремиссии и резистентности к терапии. *Научно-практическая ревматология.* 2018;56(3):263-71
7. Агафонова ЕМ, Дубинина ТВ, Демина АБ и др. Поражение тазобедренных суставов при анкилозирующем спондилите по данным магнитно-резонансной томографии. *Научно-практическая ревматология.* 2017;55(S1):5.
8. Boonen A, Cruyssen BV, de Vlam K, et al. Spinal radiographic changes in ankylosing spondylitis: association with clinical characteristics and functional out-come. *J Rheumatol.* 2009 Jun;36(6):1249-55. doi: 10.3899/jrheum.080831. Epub 2009 May 15.

9. Агафонова ЕМ, Дубинина ТВ, Демина АБ. и др. Особенности лечения коксита у пациентов с анкилозирующим спондилитом. Современная ревматология. 2018;12(2):88–92.
10. Лапшина С.А., Дубинина Т.В., Бадочкин В.В. и др. Ингибиторы фактора некроза опухоли α в лечении аксиальных спондилоартритов (включая анкилозирующий спондилит) // Научно-практическая ревматология ревматология. — 2016. — 54(Прил. 1). — С. 75-79.
11. Arends S., Lebbink H.R., Spoorenberg A., et al. The formation of autoantibodies and antibodies to TNF- α blocking agents in relation to clinical response in patients with ankylosing spondylitis // Clin.Exp. Rheumatol. — 2010 Sep-Oct. — 28 (5). — P. 661-8. Epub 2010Oct 22.
12. Бунчук Н.В., Румянцева О.А., Логинова Е.Ю. и др. Эффективность и безопасность инфликсимаба у больных анкилозирующим спондилитом: результаты открытого многоцентрового исследования. Тер арх 2014;10:41–6
13. Breban M. Efficacy of infliximab in refractori ankylosing spondylitis results of a six-month open-label stady. Rheumatology 2012;41:1280–5.
14. Schiff M., Keiserman M., Codding C. et al. Efficacy and safety of abatacept or infliximab vs placebo in ATTEST: a phase III, multicentre, randomised, double-blind, placebo-controlled study in patients with rheumatoid arthritis and an inadequate response to methotrexate. Ann Rheum Dis 2008;67:1096–103.
15. Carmona L., Gomez-Reino J.J. and on behalf of the BIOBADASER Group Survival of TNF antagonists in spondyloarthritis is better than in rheumatoid arthritis Data from the Spanish registry BIOBADASER. Arthr Res Ther 2016;R:72(doi:10.1186/ar1941).
16. Tubach F., Salmon D., Ravaud P. et al. Research Axed on Tolerance of Biotherapies Group. Risk of tuberculosis is higher with anti-tumor necrosis factor monoclonal antibody therapy than with soluble tumor tumor necrosis factor receptor therapy: The three-year prospective french research axed on tolerance of biotherapies registry. Arthr Rheum 2009;60(7):1884–94.



UDK 616.728.3-002.2

IBRAGIMOV Sadulla Yusupovich

Samarkand State Medical University, Docent

SALEEV Bakhodur Vaxobovich

Samarkand branch of the Republican specialized scientific and practical medical center of Traumatology and orthopedics

Kholkhudjayev Farrux Ikramovich


Samarkand State Medical University

ABDUSAMATOV Shakhriddin Nuriddinovich**XUSAINBOYEV Shokhrukhbek Davronbekovich**

Samarkand branch of the Republican specialized scientific and practical medical center of Traumatology and orthopedics

SURGICAL TREATMENT AND PREVENTION OF KNEE JOINT WITH DEFORMING ARTHROSIS

For citation: Ibragimov Y. Sadulla, Saleev V. Bakhodur, Kholkhudjayev I. Farrux, Abdusamatov N. Shakhriddin, Khusainbaev D. Shohruxhbek. Surgical treatment and prevention of knee joint with deforming arthrosis Journal of Biomedicine and Practice. 2023, vol. 8, issue 1, pp. 303-308

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7835667>

ANNOTATION

Objective: In recent times, the surgical treatment method used in arthrosis of the knee joint is to show the results of "arthroscopic imaging chondroplasty".

Materials and methods: 74 patients with various stages of knee arthrosis were observed in the Department of Large Joint Orthopedics of the Samarkand Branch of the Republican Specialized Traumatology and Orthopedic Scientific and Practical Medical Center. 25 (34%) of the patients were men, 49 (66%) were women.

Results: Long-term (2.5-3 years) results of the performed operations were studied in 31 (75.5%) people. Among the 45-59-year-olds with II and III degree of arthrosis before surgery, 5 excellent, 9 good results, and 5 satisfactory results were noted. 5 of the 60-74 year olds had good results, and 7 had satisfactory results. No excellent results were observed. The above data show that operative treatment in this method is easy and light compared to other surgical methods, but it is palliative in nature. With the passing of time, with increasing age, the obtained results decrease relatively.

Conclusions: Deformative arthrosis of the knee joint is a common disease on our planet. Due to the lack of early, visible changes in the articular cartilage, the disease cannot be detected early on X-ray. Depending on the indication of the disease, there are conservative and operative treatment methods. Among operative methods, "imaging chondroplasty" takes the main place. This method is curative and prophylactic, but like most other knee operations, it is palliative. It is advisable to

consider the dispensary of the patients who were treated operatively. In this case, it will be possible to prevent pathological changes in the joint in time.

Keywords: knee joint, deforming arthrosis, abrasive chondroplasty, arthroscopy, endoscopy, palliative, regeneration.

ИБРАГИМОВ Саъдулла Юсупович

Самаркандский Государственный медицинский Университет

Кандидат медицинских наук, доцент

САЛЕЕВ Баходур Вахобович

Самаркандский филиал Республиканского специализированного научно-практического медицинского центра травматологии и ортопедии

ХОЛХУЖАЕВ Фаррух Икромович

Самаркандский государственный медицинский Университет

АБДУСАМАТОВ Шахриддин Нуриддинович

Самаркандский филиал Республиканского специализированного научно-практического медицинского центра травматологии и ортопедии

ХУСАИНБОВ Шохрухбек Давронбекович

Самаркандский филиал Республиканского специализированного научно-практического медицинского центра травматологии и ортопедии

ПРОФИЛАКТИКА И ХИРУРГИЧЕСКОЕ ЛЕЧЕНИЕ ДЕФОРМИРУЮЩЕГО АРТРОЗА КОЛЕННОГО СУСТАВА

АННОТАЦИЯ

Цель: В последнее время метод хирургического лечения, применяемый при артрозе коленного сустава, заключается в том, чтобы показать результаты «артроскопической визуализирующей хондропластики».

Материалы и методы: В отделении ортопедии крупных суставов Самаркандского филиала Республиканского специализированного травматолого-ортопедического научно-практического медицинского центра наблюдали 74 пациента с различными стадиями артроза коленного сустава. 25 (34%) больных были мужчинами, 49 (66%) женщинами.

Результаты. Отдаленные (2,5-3 года) результаты проведенных операций изучены у 31 (75,5%) человека. Среди лиц 45-59 лет со II и III степенью артроза до операции отмечено 5 отличных, 9 хороших и 5 удовлетворительных результатов. У 5 из 60-74-летних были хорошие результаты, у 7 - удовлетворительные. Отличных результатов не наблюдалось. Приведенные данные показывают, что оперативное лечение по этому методу легкое и легкое по сравнению с другими оперативными методами, но носит паллиативный характер. С течением времени, с увеличением возраста полученные результаты относительно уменьшаются.

Выводы: Деформативный артроз коленного сустава является распространенным заболеванием на нашей планете. Из-за отсутствия ранних видимых изменений в суставном хряще заболевание не может быть выявлено на ранней стадии рентгенологически. В зависимости от показаний заболевания различают консервативные и оперативные методы лечения. Среди оперативных методов основное место занимает «визуализирующая хондропластика». Этот метод является лечебно-профилактическим, но, как и большинство других операций на колене, является паллиативным. Целесообразно учитывать диспансерный учет больных, пролеченных оперативно. В этом случае удастся вовремя предотвратить патологические изменения в суставе.

Ключевые слова: коленный сустав, деформирующий артроз, абразивная хондропластика, артроскопия, эндоскопия, паллиативная, регенерация.

ИБРАГИМОВ Саъдулла Юсупович

Самарқанд давлат тиббиёт университети

Тиббиёт фанлари номзоди, доцент

САЛЕЕВ Баходур ВахобовичРеспублика Ихтисослаштирилган Травматология ва Ортопедия
Илмий Амалий Тиббиёт Маркази Самарқанд Филиали**ХОЛХУЖАЕВ Фаррух Икромович**

Самарқанд давлат тиббиёт университети

АБДУСАМАТОВ Шахриддин НуриддиновичРеспублика Ихтисослаштирилган Травматология ва Ортопедия
Илмий Амалий Тиббиёт Маркази Самарқанд Филиали**ХУСАИНБОВ Шохрухбек Давронбекович**Республика Ихтисослаштирилган Травматология ва Ортопедия
Илмий Амалий Тиббиёт Маркази Самарқанд Филиали

ТИЗЗА БЎҒИМИ ДЕФОРМАЦИЯЛИ АРТРОЗИНИНГ ЖАРРОҲЛИК УСУЛИДА ДАВОЛАШ ВА ПРОФИЛАКТИКАСИ

АННОТАЦИЯ.

Тадқиқот мақсади: Кейинги вақтларда тизза бўғими артрозида қўлланилаётган хирургик даволаш усули “артроскопик образив хондроластика”ни натижаларини кўрсатишдир.

Тадқиқот материаллари ва усуллари: Республика ихтисослашган травматология ва ортопедия илмий-амалий тиббиёт марказининг Самарқанд филиалининг (РИТОИАТМСФ) Ёирик бўғимлар ортопедияси бўлимида 74 та бемор тизза бўғими артрозининг ҳар хил босқичи билан кузатилди. Беморларнинг 25 (34 %) тасини эркаклар, 49 (66%) тасини аёллар ташкил қилдилар.

Натижалар: Ўтказилган операцияларнинг узоқ муддатлардаги (2,5 – 3 йил) натижалари 31 (75,5%) кишида ўрганилди. 45 – 59 ёшдагилар операциягача артрозининг II ва III даража оғирликда бўлганларининг 5тасида аъло, 9таси яхши натижа, 5 тасида эса қониқарли натижа қайд қилинди. 60-74 ёшдагиларнинг 5 тасида яхши, 7 тасида эса қониқарли натижалар кузатилди. Аъло натижа кузатилмади. Юқоридаги маълумотлар шуни кўрсатадики, бу усулда оператив даволаш бошқа хирургик методларга нисбатан осон ва енгил бўлсада, лекин поллиатив характерга эгадир. Вақт ўтиши, ёшнинг улғайиб бориши билан олинган натижалар нисбатан пасайиб боради.

Хулосалар: Тизза бўғимининг деформацияли артрозлари планетамизда кенг тарқалган касалликдир. Б ўғим тоғайида эрта бўладиган, кўринарли ўзгаришлар йўқлиги сабабли касалликни рентгенда эрта аниқлаб бўлмайди. Касалликни кўрсатмасига қараб консерватив ва оператив даволаш методлари мавжуд. Оператив методлар ичида “образив хондроластика” асосий ўрин эгаллайди. Бу усул даволаш ва профилактика вазифасини бажаради, лекин тизза бўғимида ўтказиладиган бошқа кўпчилик операциялар каби поллиативдир. Оператив усулда даволанган беморларни диспансер ҳисобга олиш мақсадга мувофиқдир. Бунда бўғимда бўладиган патологик ўзгаришларни ўз вақтида олдини олиш имконияти бўлади.

Калит сўзлар: тизза бўғими, деформацияловчи артроз, образив хондроластика, артроскопия, эндоскопия, поллиатив, регенерация.

Долзарблиги. Тизза бўғимининг деформацияли артрозлари планетамизда кенг тарқалган полиэтиологик, вақт ўтиши билан кучайиб борадиган, сурункали касалликдир.

Патологиянинг кенг тарқалганлиги, кўтариб юрадиган бўғимларнинг (тизза, чанок-сон) функциясининг тез бузилиши остеоартрозни кейинги йилларда медицина ва ижтимоий муаммолардан бири қилиб қуйди. [1,3]

Тизза бўғимининг артрози планетамизнинг катта ёшдаги аҳолиси ўртасида 3-5% да учрайди.

Бу патология билан аёллар эркакларга нисбатан икки баробар кўп оғришади [2].

Медицинанинг hozirgi rivojlaniшида бу касаллик билан оғриган инсон оғир аҳволга тушмайди, лекин тизза бугимида харакат чегараланади, инсоннинг мехнат қобилияти йўқолади, оғриган кишининг хаётининг сифати пасаяди.

Тизза бугими деформацияли артрозининг рентген белгилари 65 ёшдан ошган кишиларда: аёлларнинг 63 % да, эркекларнинг 58 % да аниқланади [5].

Хозирги кунда бу касалликнинг келиб чиқишида икки фикр устунлик қилади, булар: а) бугим тоғайига узлуксиз юқори нагрузка бериш; б) бугим тоғайининг хар кунги бериладиган нагрузкага бўлган чидамлилигини пасайиши [4].

Бугим тоғайида, эрта кўринарли ўзгариш бўлмагани учун, бу касалликни рентген тасвири ёрдамида, эрта аниқлаш жуда қийин бўлади. Тизза бугими деформацияли артрозини муваффақиятли даволаш ёки олдини олиш учун эса бугим тоғайида бўладиган эрта ўзгаришларни аниқлаш керак. Бунинг учун патологияни ўз вақтида эрта аниқлаш методларини топиш ва бор методларни такомиллаштириш талаб этилади.

Тизза бугими деформацияли артрозини эрта аниқлаш мумкин бўлган методлардан бири – артрoскопиядир [9,11]. Артрoскопиянинг яхши томонларидан бири шундаки, бу усул билан патологиянинг характери ва бугим тоғайининг зарарланиш майдони аниқланади [6].

Хозирги вақтда тизза бугимининг артрозини консерватив (нестероидлар, физикавий методлар, бугим ичига хар хил дори воситалари киритиш, санаторияларда даволаш ва хоказолар) даволаш усули кенг тарқалган. Консерватив усулларда даволашнинг хаммаси хам вақтинча оғрикни қолдирши, бугим тўқималарида булаётган яллиғланишни пасайтириши мумкин, лекин касалликка этиотроп таъсир қилаолмайди.

Бу касалликни кўрсатмасига қараб, комплекс равишда консерватив хамда оператив даво олиб борилса кутилган натижага эришиш мумкин.

Тадқиқот мақсади: Кейинги вақтларда тизза бугими артрозида қўлланилаётган хирургик даволаш усули “артроскопик образив хондропластика”ни натижаларини кўрсатишдир.

Тадқиқот материаллари ва усуллари: Республика ихтисослашган травматология ва ортопедия илмий-амалий тиббёт марказининг Самарқанд филиалининг (РИТОИАТМСФ) Йирик бугимлар ортопедияси бўлимида 74 та бемор тизза бугими артрозининг хар хил босқичи билан кузатилди. Беморларнинг 25 (34 %) тасини эркеклар, 49 (66%) тасини аёллар ташкил қилдилар.

Деформацияловчи гонартрознинг оғирлик даражасига қараб Колгрэн буйича I – даража оғирликдаги беморларнинг 23 (31%) таси, II-даражасини 28 (37%) таси, III-даражасини 13(19%) таси, IV-даражасини эса 10 (14%) бемор ташкил қилдилар. Беморлар ёши буйича: 45-59 ёшдагилар 57 (77%) тани, 60-74 ёшдагилар 17(23%) тани ташкил қилдилар. Деформацияловчи гонартрознинг I ва IV даражаси билан оғриган беморларни операцияга олмадик. I – даражали оғирликдаги беморларни консерватив даволашга харакат қилиш мумкин, IV – даражадаги оғирликдаги беморларни кўпинча эндопротезлаш операциясини ўтказиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Оператив усулда даволаш учун ётқизилган хамма (II ва III даражадаги оғирликдаги) беморларга бўлимда қабул қилинган комплекс клиник-лаборатор текширишлар ўтказилди.

Операцияга олинган беморлар кўп йиллар давомида консерватив усуллар билан даволанишган. Лекин ўтказилган консерватив даволашдан наф кўрмаганлар.

Абразив хондропластика операциясини 1941-йилда Магнусон таклиф қилган, Фикат эса 1979 йилда бу операцияни эндоскопик техникасини ривожлантирган[7,8].

Операциянинг техникаси шундан иборатки, орка мия оғриксизлантириши остида, зарарланган жойидан кўчган тоғай ва суяк қисмларини бугим юзасидан кесиб олиб ташлаб, бугим юзасида хосил бўлган дефектларни токи суякни спонгиоз қисмигача силлиқлашдан иборат. Касалликнинг оғир даражаларида операцияни микрофрактуринг билан ўтказиш мумкин. Бугим юзасини жароҳатланган бўлаги кесиб олиб ташланиши (бугим юзасини силлиқлаш) натижасида касалликни оғирлашиб боришини олди олинади, яъни бу операция профилактик роль ўйнаши мумкин.

Беморларда бўғим юзасидаги регенерация яхши ривожланиши учун операциядан кейин эрта нофаол (букиш-ёзиш)ҳаракати бажарилди. Операциядан кейинги даврда 6-8 hafta давомида қўлтиқ таёқлар ёрдамида юриш ва ўртача 4-6 ойдан кейин (ишлайдиган беморлар учун) ўз иш фаолиятини бошлашига рухсат берилди.

Операция вақтида ва операциядан кейинги даврда ёмон оқибатлар кузатилмади.

Даволашнинг натижалари халқаро бўлган Лисгольм – Тегнер шкаласи бўйича баҳоланди.

Бу шкала бўйича текширишнинг субъектив ва объектив усуллари бирлаштирилган ва баллар йиғиндиси 100% деб олинган [11,12].


Операциядан кейинги даврда бўлган кузатиш натижаларини қуйидагича баҳоладик: аъло натижа 9та (22%) беморда кузатилди, яъни уларни 100 – 90 балл деб баҳоладик. Буларда бўғимда оғриқ, ҳаракатнинг чегараланиши ва шиш йўқ. Операция натижаси 25 (61%) кишида яхши, буларни 89-80 балл деб топилди. Уларга кўп юк берганда, кам даражада оғриқ сезадилар, бўғимда ҳаракат чегараланмаган, шиш йўқ. 7 (17%) кишида натижа қониқарли деб топилди. Улар шкала бўйича 79 – 70 балл олдилар. Қониқарли натижа деб баҳоланганларда тиззада бир оз оғриқ куннинг иккинчи ярмида, кўп юрганда, хаво ўзгарганда сезадилар. Тиззани ёзиш 5 – 10⁰ чегараланган. Қониқарсиз натижа йўқ. Буларнинг ҳаммасини операциядан олдинги ҳолат билан таққослаб аниқланди.

Ўтказилган операцияларнинг узок муддатлардаги (2,5 – 3 йил) натижалари 31 (75,5%) кишида ўрганилди. 45 – 59 ёшдагилар операциягача артрознинг II ва III даража оғирликда бўлганларининг 5тасида аъло, 9таси яхши натижа, 5 тасида эса қониқарли натижа қайд қилинди.

60-74 ёшдагиларнинг 5 тасида яхши, 7 тасида эса қониқарли натижалар кузатилди. Аъло натижа кузатилмади.

Юқоридаги маълумотлар шуни кўрсатадики, бу усулда оператив даволаш бошқа хирургик методларга нисбатан осон ва енгил бўлсада, лекин поллиатив характерга эгадир.

Вақт ўтиши, ёшнинг улғайиб бориши билан олинган натижалар нисбатан пасайиб боради.



Расм 1а



Расм 1б



Расм 1в


Расм 1 Бемор Х.Н. 1964 й.т. Касаллик тарихи №6318. а – тизза бўғими артрози II – даражаси артроскопик кўриниши, б – образив хондропластика қилинганлиги, в – МРТ кўриниши 1 йилдан кейинги ҳолати



Расм 2а



Расм 2б



Расм 2в

Расм 2. Бемор Э.О. 1953 й.т Касаллик тарихи №1264 а – тизза бўғими артрози III – даражаси артроскопик кўриниши, б – образив хондропластика қилинганлиги, в – МРТ кўриниши 1 йилдан кейинги ҳолати

Операцияни узок муддатлардаги натижаларини билишда ноинвазив усул (МРТ)дан фойдаландик.

Хулосалар:

Тизза бўғимининг деформацияли артрозлари планетамизда кенг тарқалган касалликдир.

Бўғим тоғайида эрта бўладиган, кўринарли ўзгаришлар йўқлиги сабабли касалликни рентгенда эрта аниқлаб бўлмайди.

Касалликни кўрсатмасига қараб консерватив ва оператив даволаш методлари мавжуд.

Оператив методлар ичида “образив хондропластика” асосий ўрин эгаллайди. Бу усул даволаш ва профилактика вазифасини бажаради, лекин тизза бўғимида ўтказиладиган бошқа кўпчилик операциялар каби поллиативдир.

Оператив усулда даволанган беморларни диспансер ҳисобга олиш мақсадга мувофиқдир. Бунда бўғимда бўладиган патологик ўзгаришларни ўз вақтида олдини олиш имконияти бўлади.

REFERENCES / СНОСКИ / ИҚТИБОСЛАР:

1. Kholkhudjayev F.I., Oripov F.S. Structural components of bones of the hip joint in different periods of life. *International Journal of Pharmaceutical Research* | Jan – Jun 2020 | Vol 12 | Supplementary Issue 1.
2. Kholkhuzhaev F. I., Oripov F. S., Urinbaev P. U. Some indicators of the frequency of combination of bone fractures with diseases of the gastrointestinal tract // *Voprosy nauki i obrazovaniya*. – 2021. – no. 8(133). - P. 4-9.
3. Kholkhuzhaev F.I., Oripov F.S. Changes in the endocrine cells of the epithelium of the small intestine mucosa in the post-reproductive period // *Journal of Biomedicine and Practice*. – 2022.-№4(7). -FROM. 230-237.
4. Magnuson P.B. Joint debridement and surgical treatment of degenerative arthritis. *Surg. Genecol obstat.*, 1941 – vol.73 page 1-9.
5. Swoboda B. Aspekte dez epidemiologischen arthrostorzschung // *Orthopede* – 2001. Bd 30. S 834 -840.
6. Айрапетов Г.А., Воротников Л.А., Коновалов Е.А. Консервативное лечение гонартроза. *Вестник Ивановской мед. Академии*, Т 22, №4, 31-36.
7. Беневоленская Л.И., Бржазовский В.В. Эпидемиология ревматических болезней Москва, 1988 г.
8. Брагина С.В., Матвеев Р.П. Роль локальной инъекционной терапии в улучшение качества жизни пациентов с гонартрозом. *Медицинская экология*, 48 – 52, 2015г.
У 68(66,6%) пациентов причиной спонтанного пневмоторакса явилась буллезная эмфизема, у 10 (9,8%) разрыв постпневмонической кисты легких, у 7(6,9%) прорыв эхинококковой кисты в плевральную полость и у 17(16,7%) пневмоторакс развился по невыясненным обстоятельствам.

У наших пациентов в анамнезе однократный рецидив отмечен у 10(9,8%), двукратный – у 8(7,8%) и трехкратный – у 5(4,9%) больных. Осложненный пневмоторакс в виде гидропневмоторакса отмечен у 17(16,7%) больных.

Результаты. Плевральная пункция проведена 12 пациентам с верхушечным пневмотораксом и 5 больным средним пневмотораксом. Остальным 12 пациентам со средним пневмотораксом производилось активное дренирование плевральной полости.

Видеоторакоскопические (ВТС) операции выполнены у 58(56,9%) больных со спонтанным пневмотораксом. 7 больным проведены видеоассистированные торакоскопические операции. И только 8 случаях операции проведены через широкие торакотомные доступы.

Видеоассистированная атипичная резекция легкого и плеврэктомиа были выполнены в 8(13,8%) случаях, с помощью сшивающего аппарата УО-40 через миниторакотомный доступ.

Послеоперационные осложнения отмечены в группе(n = 8), которым выполнены операции через торакотомный доступ: у 1(12,5%) больного -остаточная плевральная полость и у 1(12,5%) - плеврит. Рецидивы спонтанного пневмоторакса имели место у 5 (17,2%) больных, лечившихся с помощью аспирационных и дренирующих процедур(n = 29).

Выводы. Установлено, что видеоторакоскопические и видеоассистированные операции через мини доступ с ликвидацией причины спонтанного пневмоторакса и обязательным плевродезом является операцией выбора. Аспирационные и дренирующие процедуры при спонтанном пневмотораксе остаются основным предварительным тактическим методом лечения.

Ключевые слова: Спонтанный пневмоторакс, видеоторакоскопия, плевродез.

MURTAZAEV Zafar Israfulovich

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

BAYSARIYEV Shovkat Usmonovich

Kafedra assistenti

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

SPONTAN PNEVMOTORAKSDA JARROHLIK TAKTIKASI

ANNOTATSIYA

Maqsad. Spontan pnevmotoraksni davolash natijalarini yaxshilash.

Material va metodlar: Biz spontan pnevmotoraksi bor bo'lgan 102 bemorning davolash natijalarini tahlil qildik. Bemorlarning 68 (66,6%) da spontan pnevmotoraksni sababi bullyoz emfizema, 10 (9,8%) nafar bemorda o'pkaning postpnevmonik kistasining yorilishi, 7 (6,9%) nafar bemorda exinokokk kistasining plevra bo'shlig'iga yorilishi bo'lgan, va 17 (16,7%) nafar bemorda noaniq holatlar tufayli pnevmotoraks rivojlangan. Bemorlarimizni anamnezidan 10 (9,8%) nafar bemorda bir marta, 8 (7,8%) nafar bemorda ikki marta va 5 (4,9%) bemorda uch marta residivlar qayd etilgan. 17 (16,7%) bemorda gidropnevmtoraks shaklidagi asoratlangan pnevmotoraks kuzatildi.

Natijalar: 12 nafar bemorda o'pkani chuqqi qismi va 5 nafar o'rta darajali pnevmotoraksi bor bemorlarda plevral punksiya amalga oshirildi. Qolgan o'rta pnevmotoraks bilan kasallangan 12 nafar bemorni plevra bo'shlig'i aktiv drenajlandi.

Spontan pnevmotoraks bilan og'rigan 58 (56,9%) bemorlarda videotorakoskopik operatsiyalar o'tkazildi. Ularning 23 nafari (39,6%) ikkinchi marta spontan pnevmotoraks kuzatilgan va oldin ushbu bemorlarga konservativ davu muolajalari qo'llanilgan. 7 nafar bemorga video assistent yordamida torakoskopik jarrohlik operatsiyasi o'tkazildi. Va faqat 8 ta holatlarda operatsiyalar keng torakotomik kirishlar orqali amalga oshirildi.

Minitorakotomik kirish yo'li orqali video assistent yordamida 8 (13,8%) holatda atipik o'pka rezeksiyasi va plevrektomiya UO-40 tikuvchi apparati yordamida amalga oshirildi.

Torakotomiya orqali operatsiya qilingan guruhda (n = 8) operatsiyadan keyingi asoratlar qayd etildi: 1 (12,5%) bemorda qoldiq plevra bo'shlig'i va 1 (12,5%) nafar bemorda plevrit kuzatildi. Torakotomiyaga shoshilinch konversiya kuzatilmadi. Spontan pnevmotoraks residivlari aspiratsion va drenajlovchi davu muolajalari bilan davolangan 5 (17,2%) bemorlarda (n = 29) kuzatildi.

Xulosa: Ma'lum bo'lishicha, spontan pnevmotoraks sabablarini bartaraf etish va majburiy plevrodez uchun mini kirish orqali bajariladigan videotorakoskopiya va video assistent yordamida bajariladigan operatsiyalar tanlov operatsiyasi hisoblanadi. Spontan pnevmotoraksda aspiratsiya va drenajlash muolajalari asosiy dastlabki taktik davolash usuli bo'lib qolmoqda.

Kalit so'zlar: Spontan pnevmotoraks, videotorakoskopiya, plevrodez

Ushbu ishimizda spontan pnevmotoraks bilan og'rigan 102 bemorni davolash natijalari keltirilgan. Spontan pnevmotoraksning kelib chiqish sababi 68 ta bemorda (66,6%) bullyoz emfizema, 10 nafar bemorda (9,8%) postpnevmonik kistaning yorilishi, 7 xolatda (6,9%) exinokokk kistasining plevra bo'shlig'iga yorilishi va yana 17 ta bemorda (16,7%) noma'lum holatlar bo'lgan. Plevral punksiya 12 ta xolatda o'pkaning cho'qqisida va 5 ta xolatda o'rta pnevmotoraks bilan og'rigan bemorlarda amalga oshirildi. O'rta pnevmotoraks mavjud 12 bemorda plevra bo'shlig'ini faol drenajlash o'tkazildi. Spontan pnevmotoraks bilan og'rigan 58 (56,9%) nafar bemorlarda videotorakoskopik operatsiyalar o'tkazildi. Video assistent yordamida atipik o'pka rezeksiyasi va mini kesma orqali plevrektomiya 8 (13,8%) holatda amalga oshirildi. Shu narsa ma'lum bo'ldiki, spontan pnevmotoraksda plevra bo'shlig'ini drenajlash davolashning asosiy taktik usuli bo'lib qolishi aniqlandi. Biz spontan pnevmotoraks sababini bartaraf etishda videotorakoskopik operatsiya va majburiy plevrodezni tanlov operatsiyasi deb hisoblaymiz.

Kirish. Bugungi kunda torakal jarrohlikning dolzarb muammolaridan biri spontan pnevmotoraksni jarrohlik yo'li bilan davolash taktikasi hisoblanadi. Chunki bu jarayonga olib keladigan sabablar ko'p: asosan bullalarning, o'pkaning yupqa devorli kistalarining, exinokokk kistalarining plevra bo'shlig'iga yorilishi va o'pkadagi boshqa patologik jarayonlar tufayli plevra bo'shlig'iga havo kirib borishi va buning natijasida o'pkani bujmayishiga olib kelishidir [1, 4].

Pnevmtorakslarni birlamchi, ikkilamchi, travmatik va yatrogen kabi turlarga ajratish davolash strategiyasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega, ammo birlamchi pnevmotoraks bilan og'rigan bemorlarni keyingi tekshiruvlarida belgilari sust namoyon bo'lgan o'pka patologiyalarini aniqlanishi mumkinligi sababli, birlamchi va ikkilamchi o'rtasidagi farqlarni aniqlash tobora qiyinlashib bormoqda [2, 10].

Spontan pnevmotoraksni davolashda yagona taktika hali ham ishlab chiqilmagan. Konservativ davolash usullarning tarafdorlari (plevral punksiya havo aspiratsiyasi bilan, drenajlash) ushbu usullarning soddaligi, qulayligi, xavfsizligi va arzonligini ta'kidlaydilar. Biroq, konservativ davu

natijalarini qoniqarli deb hisoblash mumkin emas, chunki bemorlarning 10-30% da spontan pnevmotoraksning residivlanishi kuzatiladi. Jarrohlik davolash usullari samaraliroq bo'lib, davolanishdan keyin 3,5-5,0 % residivlar kuzatilganligini o'zi takrorlanish darajasi ancha past bo'lganidan dalolat beradi [3,6].

Jarrohlik operatsiyalarining maqsadi pnevmotoraksning sababini bartaraf etish va kasallikning qaytalanishini oldini olish hisoblanadi, bu esa o'pkaning bullyoz qismini rezeksiya qilish yoki bullalarga ta'sir qilishning boshqa usullarini qo'llash, shuningdek plevrodez (plevrani parietal va visseral varaqlarining yopishishi) hosil qilish, ya'ni parietal plevrage ta'sir qilish orqali hal qilinadi. Ushbu manipulyatsiyalarni standart yon torakotomik kirishlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Biroq, zamonaviy minimal invaziv jarrohlik usullarining rivojlanishi bilan videotorakoskopik operatsiyalar spontan pnevmotoraksni davolashda keng va tan olingan usullarga aylanib qoldi. Videotorakoskopiya yordamida endostaplerlarni ishlatgan holda sof endoskopik operatsiyalarni, shuningdek kichik operativ kirishlarni shakllantirish orqali video assistent yordami bilan operatsiyalarni amalga oshirish mumkin. Bunday hollarda, spontan pnevmotoraksni davolash uchun zarur bo'lgan barcha jarrohlik manipulyatsiyalar amalga oshiriladi va minimal invaziv jarrohlik yondashuvlar uning sifatini pasaytirmasdan operatsiyalarning travmatikligini sezilarli darajada kamaytiradi [7, 8, 9].

Maqsad. Spontan pnevmotoraksni davolash natijalarini yaxshilash.

Material va metodlar. Biz spontan pnevmotoraksi bor bo'lgan 102 bemorning davolash natijalarini tahlil qildik. Bemorlarning 87 nafari erkak, 15 nafari ayol. Bemorlarning barchasi mehnatga layoqatli yoshda edi. O'ng tomonlama pnevmotoraks 59 bemorda, chap tomonlama esa 43 nafar bemorda kuzatildi. Barcha bemorlarning 55% dan ortig'i jismoniy mehnat bilan shug'ullangan. Bemorlarning 34 nafari 30 yoshgacha, 64 nafari 40 yoshgacha va 4 nafari 20 yoshgacha bo'lgan bemorlardir.

O'pkaning bujmayish darajasiga qarab pnevmotoraksni quyidagi turlari aniqlandi: kichik pnevmotoraks (o'pka cho'qqisi) 12 (11,8%), o'rtacha 18 (17,6%), katta pnevmotoraks 34 (33,3%) va total pnevmotoraks 38 (37,3%) nafar bemorlarda kuzatildi. Bemorlarning 68 (66,6%) da spontan pnevmotoraksni sababi bullyoz emfizema, 10 (9,8%) nafar bemorda o'pkaning postpnevmonik kistasining yorilishi, 7 (6,9%) nafar bemorda exinokokk kistasining plevra bo'shlig'iga yorilishi bo'lgan, va 17 (16,7%) nafar bemorda noaniq holatlar tufayli pnevmotoraks rivojlangan.

Bemorlarimizni anamnezidan 10 (9,8%) nafar bemorda bir marta, 8 (7,8%) nafar bemorda ikki marta va 5 (4,9%) bemorda uch marta residivlar qayd etilgan. 17 (16,7%) bemorda gidropnevrotaks shaklidagi asoratlangan pnevmotoraks kuzatildi. Bemorlar bizga asosan uzoq vaqt o'tkazib murojaat qilishdi: 69 nafar bemor jarayon boshlanganidan keyin bir hafta ichida; 23 nafar bemor bir oy ichida; 6 nafar bemor uch oy ichida; 4 nafar bemorda 6 oydan ortiq muddatlarda murojaat qilishdi.

Bemorlarni tekshirishda asosiy va hal qiluvchi diagnostika usuli bo'lib polipozitsion rentgen tekshiruvini xisoblandi, va ma'lum darajadagi gemitoraksda o'pka rasmining yo'qligini aniqladi. Ushbu diagnostik usul spontan pnevmotoraksiga shubha qilingan barcha bemorlarda o'tkazildi. MSKT tekshiruvini rejali ravishda operatsiyadan oldingi davrda qarama-qarshi o'pkaning holatini baholash uchun amalga oshirildi. Bemorlarni kliniko-rentgenologik tekshirishning asosiy vazifasi spontan pnevmotoraksni bo'lajak jarrohlik operatsiyalari bilan bog'liq muammolarni (pnevrotaksni borligini, taranglashgan pnevmotoraks, rigid pnevmotoraks, gidropnevrotaks va sog'lom o'pka tomonidagi holatni aniqlash) hal qilish edi.

Natijalar. 12 nafar bemorda o'pkaning chuqqi qismi va 5 nafar o'rtacha darajali pnevmotoraksi bor bemorlarda plevral punksiya amalga oshirildi. Bemorlar asosan to'satdan to'sh ortidagi og'riqqa, hansirashga shikoyat qildi, ba'zi bemorlar hansirashsiz fakat og'riqdan shikoyat qildi. Ba'zi bemorlar o'pkaning kasallangan tomonida yelkani yuqori qismida og'riq sezganlar, ayrim bemorlarda simptomlar minimal yoki hatto umuman kuzatilmagan. Qolgan o'rtacha pnevmotoraks bilan kasallangan 12 nafar bemorni plevra bo'shlig'i aktiv drenajlandi.

Spontan pnevmotoraks bilan og'riq 58 (56,9%) bemorlarda videotorakoskopik operatsiyalar o'tkazildi. Ularning 23 nafari (39,6%) ikkinchi marta spontan pnevmotoraks kuzatilgan

va oldin ushbu bemorlarga konservativ davu muolajalari qoʻllanilgan. 7 nafar bemorga video assistent yordamida torakoskopik jarrohlik operatsiyasi oʻtkazildi. Va faqat 8 ta holatlarda operatsiyalar keng torakotomik kirishlar orqali amalga oshirildi.

Videotorakoskopik operatsiyalar paytida plevra boʻshligʻini boʻylab xamma soxalari tekshirildi. Oʻpkadagi bullyoz oʻzgarishlar koʻpincha yuqori segmentlarda, 7 (12,1%) ta holatda esa oʻpkaning boshqa qismlarida ham borligi aniqlandi. Ushbu bullalar kistasimon yoki uzum shingili shaklida ekanligi aniqlandi. Oʻpkadan plevra boʻshligʻiga xavoning kirish manbasi 19 (32,7%) nafar bemorda aniqlandi va bu manbalar bulla defekti yoki yorilgan, puchayib qolgan bullalar koʻrinishida boʻldi. 6 (10,3%) holatda bullalar topilmadi, ammo oʻpkaning yuqori segmentlarida apikal fibrozlar qayd etildi. Plevra boʻshligʻini tekshirishda parietal plevra holatiga, giperemiya koʻrinishidagi yalligʻlanish belgilariga, fibrin choʻkmalarga, oʻpka va plevrani yopishgan va chandiqli joylariga alohida eʼtibor berildi. Plevra boʻshligʻida aniqlangan ekssudat va fibrinlar olib tashlandi. Plevra boʻshligʻidagi keyingi manipulyatsiyalarga toʻsqinlik qiladigan plevrani yopishgan joylari elektrokoagulator yordamida ajratildi.

Visseral plevranning holatini baholash operatsiyalarning juda muhim etapi deb hisoblandi. Spontan pnevmotoraks boshlanganidan keyin bir necha kun yoki hafta oʻtgandan keyin, oʻpkaning adekvat kengayishiga toʻsqinlik qiladigan visseral plevranning qalinlashishi qayd etilgan. Bemorlarimizning 9 (15,5%) nafarida torakoskopik oʻpka dekortikatsiyasi bajarildi. Video assistent yordami bu jarayonni juda aniq nazorat qilish va oʻpkaning kortikal qatlamining shikastlanishini oldini olish imkonini berdi. Torakoskopiya paytida plevra bitishmalari ajratildi yoki koagulyatsiya qilindi. Bulla va oʻpka toʻqimalarining nuqsonlari tikildi yoki diatermokoagulyatsiya qilindi. Kichik bullalar koagulyatsiya qilindi yoki endoqovuzloqlar bilan bogʻlab ketildi. Spontan pnevmotoraksi bor 2 nafar bemorni videotorakoskopiya vaqtida, hatto toʻliq sinchiklab tekshirilganda ham oʻpkada hech qanday oʻzgarishlar topilmadi. 3 nafar bemorda izolyatsiyalangan shakldagi yopishish va plevral shvartalar aniqlandi. Bunday hollarda diatermokoagulyatsiya yordamida apikal plevrodez amalga oshirildi. Operatsiyalar mavjud torakoportlardan biri orqali plevra boʻshligʻiga drenajni kiritish va jarohatni tikish bilan yakunlandi.

Minitorakotomik kirish yoʻli orqali video assistent yordamida 8 (13,8%) holatda atipik oʻpka rezeksiyasi va plevrektomiya UO-40 tikuvchi apparati yordamida amalga oshirildi. Mini kirishlar IV - V qovurgʻalar oraligʻidan amalga oshirildi. Old va oʻrta qoʻltiq osti chiziqdari boʻyicha qovurgʻalar oraligʻi boʻylab 4-5 sm uzunlikdagi teri kesmasi bajarildi. Oldingi tishsimon mushak tolalari boʻylab ajratilib, qovurgʻa yuzasi ochildi. Orqaning keng muskuli zaruriyatga qarab orqa tomonga tortildi. Qovurgʻalar oraligʻidan uzunasiga pastki qovurgʻaning yuqori qirrasini boʻylab ochildi. Teri osti yogʻ klechatkasi, oldingi tishsimon va qovurgʻalararo mushaklar sinchkovlik bilan gemostaz qilindi. Gemostazning sifati jarohatni tashqi tomondan vizual tekshirish, shuningdek, jarohatning ichki qirgʻoqlaridan plevra boʻshligʻiga qon ketishini nazorat qilish uchun torakoskop orqali nazorat qilindi. Shunday qilib, ikkita mavjud troakar orqali kirish (port) ga qoʻshimcha ravishda, uchinchi kesma, yaʼni mini kirish yaratildi.

Bemorlarimizni 7 nafarini rentgenologik tekshiruvda gidropnevmotoraks aniqlangan. Exinokokk kistalarini plevra boʻshligʻiga yorilishi aniqlangan barcha bemorlarda dastlabki torakoskopiya bilan soʻng minitorakotomiya yoʻli bilan jarrohlik operatsiyalari bajarildi. Exinokokk kistalari plevra boʻshligʻiga yorilgan barcha xolatlarda plevra boʻshligʻi ozonlangan fiziologik eritma bilan sanatsiya qilinib, xitin qobigʻi olib tashlandi va qoldiq boʻshliq kapitonaj qilindi.

Shuningdek, gidropnevmotoraksi bor 8 nafar bemorda MSKT tekshiruvda parietal va visseral plevranning qalinlashishi aniqlandi. Plevra punksiya qilinib loyqa suyuqlik olindi va faol aspiratsiyada rigid qoldiq plevra boʻshligʻi aniqlandi. Ushbu bemorlarda torakotomik kirish orqali oʻpkaning dekortikatsiyasi bilan qisman plevrektomiya amalga oshirildi. Barcha bemorlarda plevra boʻshligʻini faol aspiratsiya tizimi bilan drenajlashlandi va videotorakoskopiya bilan keyin sogʻayishiga erishildi. Shuni taʼkidlash kerakki, birinchi haftada 4 nafar bemorni (50%) sogʻayishiga erishildi, qolgan 4 nafar bemorni oʻpkasi 9-10 sutkalarda kengaydi.

Oʻpka defekti bartaraf etilgandan soʻng pnevmotoraksning residivlanishinig profilaktikasi uchun mini kirish va mavjud torakoportlardan video nazorati ostida qovurgʻalar oraligʻi boʻylab

termokauter bilan parietal plevrani kesish orqali cheklangan plevrodez amalga oshirildi. Bunday holda, ko'krak qafasining ichki yuzasi (I – IV qovurg'alar oralig'idan) kengligi 0,5-1 sm gacha bo'lgan egatlar shaklida deplevriatsiyalangan joylarni hosil qiladi.

Torakotomiya orqali operatsiya qilingan guruhda (n = 8) operatsiyadan keyingi asoratlar qayd etildi: 1 (12,5%) bemorda qoldiq plevra bo'shlig'i va 1 (12,5%) nafar bemorda plevrit kuzatildi. Torakotomiyaga shoshilinch konversiya kuzatilmadi. Spontan pnevmotoraks residivlari aspiratsion va drenajlovchi davo muolajalari bilan davolangan 5 (17,2%) bemorlarda (n = 29) kuzatildi. Videotorakoskopik operatsiyalar o'tkazgan 58 bemorni uzoq muddatli davolanish natijalari kuzatildi. Kasallikning qaytalanishi qayd etilmadi.

Muhokama. Birlamchi va ikkilamchi spontan pnevmotoraksni aniqlashda MSKT hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi [10]. Biroq, bujmaygan o'pkada destruktiv o'zgarishlarning xarakterini farqlash qiyin. Bunga asoslanib, o'pka kengayishidan keyin ushbu tekshiruvlardan foydalanishni tavsiya qilamiz.

Videotorakoskopiya spontan pnevmotoraksni tashxislash va davolashning zamonaviy usuli bo'lib, uning rivojlanishining sababini aniqlashga, o'pka zararlanishining mavjudligi va darajasini, plevra ichi chandiqlanishning jarayonining rivojlanganligi va o'pkani bujmayish darajasini vizual ravishda aniqlashga 91,5-95% imkon beradi. Biroq, operatsiyalarning taxminan 12% hali ham ochiq jarrohlik usullari yordamida amalga oshiriladi. Buning sababi shundaki, jarrohlar residivlanishlar yoki o'pkadani chandiqlik jarayonlarda minimal invaziv usullardan torakotomiyaga intraoperativ o'tish kabi muayyan holatlardan ko'ra ochiq muolajalarni shaxsan afzal ko'radilar. Ochiq operatsiyalardan ko'ra minimal invaziv amaliyotlar afzalroqdir, chunki bu operatsiyadan keyingi og'riqni kamaytirish va organizmni tezroq tiklanish bilan bog'liqdir [1, 5].

Bizning fikrimizcha, bullyoz o'zgarishlar o'pka cho'qqisi sohalarida lokalizatsiyalanganida, mavjud torakoportlar orqali video nazorati ostida va I – IV qovurg'alar oralig'idan mini kirishlar yordamida cheklangan plevrodez hosil qilish kifoya qiladi. Keng tarqalgan bullyoz emfizema mavjud 7 ta holatda plevra gumbazidan diafragma gacha plevrodez shakllantirildi. Deplevriatsiya diatermokoagulyatsiya orqali amalga oshirildi. Biz plevrodezning ushbu usulini afzalroq deb hisoblaymiz, chunki u samaradorlik jihatidan plevrektomiyadan kam emas, balki texnik jihatdan ham sodda hisoblanadi.

Xulosalar. Ma'lum bo'lishicha, spontan pnevmotoraks sabablarini bartaraf etish va majburiy plevrodez uchun mini kirish orqali bajariladigan videotorakoskopiya va video assistent yordamida bajariladigan operatsiyalar tanlov operatsiyasi hisoblanadi. Spontan pnevmotoraksda aspiratsiya va drenajlash muolajalari asosiy dastlabki taktik davolash usuli bo'lib qolmoqda.

REFERENCES / СНОСКИ/ ИҚТИБОСЛАР:

1. Бисенков Л.Н., Гладышев Д.В., Лищенко В.В., Чуприна А.П. Оценка эффективности видеоторакоскопии в лечении спонтанного пневмоторакса // Клиническая патофизиология. - 2003. - №2 - С.20-25.
2. Медведев А.П., Павлушин А.В., Горшков В.Ю. и др. Опыт видеоторакоскопических вмешательств при заболеваниях легких, плевры и средостения // Грудная и сердечно-сосудистая хирургия. - 2001. - №1. - С.40-46.
3. Мотус И.Я., Неретин А.В. Вариант хирургического эндоскопического вмешательства при спонтанном пневмотораксе // Грудная и сердечнососудистая хирургия. 1999. №5. С.73-76.
4. Мамараджабов, С. Э. Роль и место серозэпидемиологического обследования населения в ранней диагностике эхинококкоза в Самаркандской области / С. Э. Мамараджабов, Ж. А. Ризаев, С. Р. Баймаков // Актуальные аспекты медицинской деятельности : сборник статей I Международной научно-практической конференции, Киров - Самарканд, 21 июня 2021 года. – Киров: Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования "Кировский государственный медицинский университет" Министерства здравоохранения Российской Федерации, 2021. – С. 209-212.

– EDN DOETDC.

5. Baumann MH. Management of spontaneous pneumothorax. *Clin Chest Med* 2006; P.369–381.
6. Chen JS, Chan WK, Tsai KT, et al. Simple aspiration and drainage and intrapleural minocycline pleurodesis versus simple aspiration and drainage for the initial treatment of primary spontaneous pneumothorax: an open-label, parallel-group, prospective, randomised, controlled trial. *Lancet* 2013; P.1277–1282.
7. MacDuff A, Arnold A, Harvey J. Management of spontaneous pneumothorax: British Thoracic Society pleural disease guideline 2010. *Thorax* 2010; Suppl. 2,P.18 –31.
8. Massongo M, Leroy S, Scherpereel A, et al. Outpatient management of primary spontaneous pneumothorax: a prospective study. *Eur Respir J* 2014; P. 582–590.
9. Lee P. Primary spontaneous pneumothorax: to pleurodesis or not? *Lancet* 2013; P. 1252–1254.
10. Bridevaux PO, Tschopp JM, Cardillo G, et al. Short-term safety of thoracoscopic talc pleurodesis for recurrent primary spontaneous pneumothorax: a prospective European multicentre study. *Eur Respir J* 2011; P. 770–773.
11. Casali C, Stefani A, Ligabue G, et al. Role of blebs and bullae detected by high-resolution computed tomography and recurrent spontaneous pneumothorax. *Ann Thorac Surg* 2013; P. 249–255.
12. Nakanishi K. Long-term effect of a thoracoscopic stapled bullectomy alone for preventing the recurrence of primary spontaneous pneumothorax. *Surg Today* 2009; P. 553–557.
13. Loubani M, Lynch V. Video assisted thoracoscopic bullectomy and acromycin pleurodesis: an effective treatment for spontaneous pneumothorax. *Respir Med* 2000; P. 888–890.




УДК: 616.8 - 009.7 - 089.5 - 089.844

TURSUMETOV Abdusattar Abdumalikovich
ZUPAROV Kamoliddin Farxadovich
AGZAMOVA Maxmuda Nabiyeвна
Doctor of Medical Sciences, Professor
Tashkent Pediatric medical institute

EVALUATION OF THE RESULTS OF NADAPONEUROTIC ALLOHERNIOPLASTY USING THE VISUAL-ANALOGUE SCALE

For citation: Tursumetov A. Abdusattar, Zuparov F. Kamoliddin, Agzamova N. Maxmuda. Evaluation of the results of nadaponeurotic allohernioplasty using the visual-analogue scale. Journal of Biomedicine and Practice. 2023, vol. 8, issue 1, pp. 399-406

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7835930>

ANNOTATION

Objective: to study in the observed aspect the frequency of postoperative chronic pain and sensations of a foreign body after allohernioplasty using Esfil-heavy and Esfil-light polypropylene endoprotheses.

Materials and Methods: Postoperative control visits were carried out in the first week (for a number of patients in the clinic before discharge), the first month and the 6th month after surgery. The most simple, convenient and widely used in everyday practice scale that assesses the severity of pain is the visual analog pain scale (VAS).

Results: Our study shows that, compared with heavy mesh, light mesh has some advantages in reducing chronic surgical site pain after allohernioplasty. There were no statistically significant differences in other criteria (pain on coughing, on getting up from lying to sitting position), but there was an obvious trend towards fewer patients with pain in the light mesh group than in the heavy mesh group. The use of scales in everyday practice allows us to evaluate the effectiveness of the treatment, analyze our own experience and compare it with domestic and foreign colleagues.

Conclusions: The use of a visual analogue scale allows one to evaluate the effectiveness of the treatment, analyze one's own experience and compare it with domestic and foreign colleagues.

Keywords: postoperative ventral hernias, polypropylene mesh, visual analog scale of pain.

TURSUMETOV Abdusattar Abdumalikovich
ZUPAROV Kamoliddin Farxadovich
AGZAMOVA Maxmuda Nabiyeвна
Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti

VIZUAL-ANALOG SHKALA BO'YICHA APONEVROZ USTI ALLOGERNIOPLASTIKA NATIJALARINI BAHOLASH

ANNOTASIYA

Maqsad: Esfil-og'ir va Esfil-yengil polipropilen endoprotezlari yordamida allogernioplastikadan so'ng operatsiyadan keyingi surunkali og'riq va yot jismni sezish chastotasini qiyosiy jihatdan o'rganish.

Tadqiqot materiallari va usullari: Operatsiyadan keyingi nazorat tashriflari birinchi haftada (klinikada bo'lgan bir qator bemorlar uchun shifoxonadan chiqishidan oldin), operatsiyadan keyingi birinchi oy va 6 oyda o'tkazildi. Og'riqning og'irligini baholaydigan eng oddiy, qulay va kundalik amaliyotda keng qo'llaniladigan shkala vizual analog og'riq shkalasi (VASH).

Natijalar: Bizning tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, og'ir to'r bilan solishtirganda, engil to'r allogernioplastikadan keyin jarrohat joyida surunkali og'riqni kamaytirishda ba'zi afzalliklarga ega. Boshqa mezonlar bo'yicha statistik jihatdan sezilarli farqlar yo'q edi (yo'talda og'riq, yotoq holatdan o'tirish holatiga ko'tarilish), ammo og'ir to'rli guruhga qaraganda engil to'r guruhida og'riqli bemorlarning kamroq bo'lishi tendentsiyasi aniqlandi. Kundalik amaliyotda shkaladan foydalanish davolash samaradorligini baholash, o'z tajribamizni tahlil qilish va mahalliy va xorijiy hamkasblar bilan solishtirish imkonini beradi.

Xulosa: Vizual-analog shkaladan foydalanish davolash samaradorligini baholash, o'z tajribasini tahlil qilish va mahalliy va xorijiy hamkasblar bilan solishtirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: amaliyotdan keying qorin churrasi, polipropilen to'r, vizual-analog og'riq shkalasi

ТУРСУМЕТОВ Абдусаттар Абдумаликович
ЗУПАРОВ Камолитдин Фархадович
АГЗАМОВА Махмуда Набиевна
Ташкентский Педиатрический медицинский институт

ОЦЕНКА РЕЗУЛЬТАТОВ НАДАПОНЕВРОТИЧЕСКОЙ АЛЛОГЕРНИОПЛАСТИКИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ВИЗУАЛЬНО-АНАЛОГОВОЙ ШКАЛЫ

АННОТАЦИЯ

Цель: изучить в сравнительном аспекте частоту послеоперационной хронической боли и ощущения инородного тела после аллогерниопластики с использованием полипропиленовых эндопротезов Эсфил-тяжелой и Эсфил-легкий.

Материалы и методы исследования: Послеоперационные контрольные визиты проводились в первую неделю (у ряда пациентов в клинике перед выпиской), первый месяц и 6-й месяц после операции. Наиболее простой, удобной и широко используемой в повседневной практике шкалой, оценивающей тяжесть боли, является визуальная аналоговая шкала боли (ВАШ).

Полученные результаты: Наше исследование показывает, что по сравнению с тяжелой сеткой легкая сетка имеет некоторые преимущества в уменьшении хронической боли в месте операции после аллогерниопластики. Статистически значимых различий по другим критериям (боль при кашле, при вставании из положения лежа в положение сидя) не было, но была очевидна тенденция к меньшему количеству пациентов с болью в группе с легкой сеткой, чем в группе с тяжелой сеткой.

Применение шкал в повседневной практике позволяет оценивать эффективность проводимого лечения, анализировать собственный опыт и сравнивать его с отечественными и зарубежными коллегами.

Вывод: Применение визуально-аналоговой шкалы позволяет оценивать эффективность проводимого лечения, анализировать собственный опыт и сравнивать его с отечественными и зарубежными коллегами.

Ключевые слова: послеоперационная вентральная грыжа, полипропиленовая сетка, визуально-аналоговой шкалы боли

ВВЕДЕНИЕ: В статье представлены результаты применения полипропиленовых эндопротезов Эсфил легкий и Эсфил тяжелый при послеоперационных вентральных грыжах. Результаты хирургического лечения пациентов оценивались с использованием визуально-аналоговой шкалы боли, т.е. пациенты сами оценивали свое состояние по степени субъективного ощущения болевого синдрома в области аллопластики. Установлено, что по сравнению с тяжелой сеткой легкая сетка имеет некоторые преимущества в уменьшении хронической боли в месте операции после аллогерниопластики.

Применение шкал в повседневной практике позволяет оценивать эффективность проводимого лечения, анализировать собственный опыт и сравнивать его с отечественными и зарубежными коллегами.

Известно, что использование для пластики грыжевых ворот сетки снизило частоту рецидивов грыжи, однако остаются опасения по поводу таких проблем, как хроническая боль и ощущение инородного тела в области аллопластики, которые могут влиять на качество жизни пациента [2].

Причина такой боли часто не ясна, но существует связь между частотой боли и типом материала, используемого для пластики грыжевых ворот. Некоторые исследования показали, что пациенты с легкой сеткой испытывали меньше боли после операции, чем те, кто получил тяжелую сетку [7], однако некоторые исследования не подтвердили это наблюдение [5]. Большинство хирургов отдают предпочтение легкому синтетическому материалу, который имеет меньшую материалоемкость по сравнению со стандартным и тяжелым эндо протезом. Считается, что чем больше диаметр синтетических нитей материала, имплантированного в брюшную стенку, тем больше толщина капсулы вокруг эндо протеза [2].

Тяжелые и стандартные сетки после имплантации в ткани брюшной стенки через 1–2 месяца сокращаются на 30–40 % от своего размера, что ограничивает подвижность брюшной стенки, вызывает развитие хронического болевого синдрома, парестезии [3].

Стремление повысить качество жизни больных потребовало внедрения в клиническую практику легких синтетических материалов. Репрезентативная оценка боли является первым шагом в комплексе мер противоболевого лечения, влияет на адекватность и эффективность лечения и обезболивания. И хотя ответы пациентов по некоторым шкалам представляют их весьма субъективные ощущения, тем не менее создают целостную картину восприятия пациентом интенсивности боли и эффективности лечения, объективизируя картину болезни в глазах врача. [1].

Международная ассоциация по изучению боли (IASP) дала следующее определение понятию «боль»: «Боль – неприятное сенсорное и эмоциональное переживание, связанное с истинным или потенциальным повреждением ткани или описываемое в терминах такого повреждения, а боль, продолжающаяся более 3 месяцев была определена как хроническая боль» [4,6]. Описать боль в данный момент и ее изменение в процессе лечения помогают оценочные шкалы боли [1]. Оценочные шкалы затрагивают оценку как острой боли, так и хронического болевого синдрома.

Репрезентативная оценка боли является первым шагом в комплексе мер противоболевого лечения, влияет на адекватность и эффективность лечения и обезболивания. И хотя ответы пациентов по некоторым шкалам представляют их весьма субъективные ощущения, тем не менее создают целостную картину восприятия пациентом интенсивности боли и эффективности лечения, объективизируя картину болезни в глазах врача. В настоящем исследовании нами было проведено сравнительное изучение болевой реакции на имплантацию эндопротезов «Эсфил» («Линтекс», Россия).

Данные сетки не резорбируются и не теряют прочность и эластичность при нахождении в тканях организма. Специальное плетение обеспечивает сетчатому эндопротезу высокую прочность, стабильность размеров и нераспускаемость краев при разрезании. Эсфил легкий

протез получают плетением из монофиламентной поливинилиденфторидной нити. Поверхностная плотность – 38 г/м², диаметр мононити – 0,09 мм, толщина 0,3-0,4 мм, размер пор – 1,5 мм, объемная пористость 85-90%. Протез Эсфил тяжелый представляет собой полипропиленовые мононити диаметром 0,12 мм, толщина: 0,4-0,6 мм, объемная пористость: 80-85 %, поверхностная плотность: 65-80 г/м².

ЦЕЛЮ ИССЛЕДОВАНИЯ: изучить в сравнительном аспекте частоту послеоперационной хронической боли и ощущения инородного тела после аллогерниопластики с использованием полипропиленовых эндопротезов Эсфил-тяжелой и Эсфил-легкий.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ: Послеоперационные контрольные визиты проводились в первую неделю (у ряда пациентов в клинике перед выпиской), первый месяц и 6-й месяц после операции. Наиболее простой, удобной и широко используемой в повседневной практике шкалой, оценивающей тяжесть боли, является визуальная аналоговая шкала боли (ВАШ).

ВАШ предназначен для определения субъективного ощущения боли в момент исследования. Длительность измерения интенсивности боли по визуально-аналоговой шкале занимает меньше 1 мин. Послеоперационный уровень боли мы определяли по десятибалльной визуальной аналоговой шкале. ВАШ представляет собой прямую линию длиной 10 см (100 мм). Пациенту предлагается сделать на линии отметку, соответствующую интенсивности, испытываемой им боли (рис). На основании распределения баллов рекомендована следующая классификация: нет боли (0-4 мм), слабая боль (5-44 мм), умеренная боль (45-74 мм), сильная боль (75-100 мм). Баллы боли измеряли по визуальной аналоговой шкале.

Перед пластикой послеоперационных вентральных грыж, а также на 7-е сутки, через месяц и 6 месяцев после операции измеряли балльную оценку боли по визуально-аналоговой шкале (ВАШ) в диапазоне от 0 мм (отсутствие боли) до 100 мм (самая сильная воображаемая боль).

Средние баллы по ВАШ (и диапазоны) представлены на рис.1




Рисунок. 1. Визуально-аналоговая шкала

На основании распределения баллов рекомендована следующая классификация: I - нет боли (0-4 мм), II - слабая боль (5-44 мм), III - умеренная боль (45-74 мм), III - сильная боль (75-100 мм).

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ: На первом этапе исследования мы изучали наличие болей в области грыжевого выпячивания и в животе вообще у больных с ПОВГ до операции (рис. 2). Для чего была составлена анкета опроса больных на наличие болей в животе до операции.

В основной группе после операции связь была установлена с 67 (%) больными из 73, а в контрольной у 55 (%) из 64 пациентов. Пациенты, которые были потеряны во время наблюдения, были исключены из анализа, были включены только пациенты, заполнившие анкету. В связи с этим ВАШ была изучена у 55 пациентов контрольной группы и у 61 пациента основной группы.

Характер и наличие болей до операции представлена в рисунок 2.




Рисунок.2 Выраженность боли по визуально-аналоговой шкале до операции

Как видно из рисунка 2 отсутствие болей в области грыжевого выпячивания отмечено в контрольной группе больных у 10,9%, а в основной группе – у 14,7%. Слабая боль в контрольной и основной группе наблюдали соответственно у 16,4% и 24,5%. Умеренная боль наблюдалось в контрольной и основной группе больных соответственно: 67,2% и 55,7%. Следует отметить, что у 5,6% в контрольной и у 4,9% мы наблюдали сильные боли и это было связано с наличием гигантских и невраваемых ПОВГ. В первые сутки после операции выраженность болевого синдрома и дискомфорта были почти одинаковыми, поэтому мы их не анализировали, так как больше они на наш взгляд были связаны с субъективными факторами.

В рисунке 3 представлены результаты изучения выраженности боли через 7 суток после операции у больных контрольной и основной группы.

На 7 сутки послеоперационного периода отсутствие боли в области послеоперационной раны отмечено в контрольной группе у 10,9% больных, а в основной у 18,0%, т.е. больные с отсутствием болей больше в контрольной группе. Слабые боли также в контрольной группе меньше, чем в основной группе, соответственно – 27,3% и 32,7%, такие же показатели в группе больных с умеренной болью в основной и контрольной группе больных соответственно - 50,9% и 45,9%. Однако больные с сильными болями в контрольной группе наблюдались более, чем в 3 раза больше в сравнении с основной группой. Мы связываем это с весом тяжелой ПП сетки, вследствие ее непосредственного контакта с подкожной клетчаткой, болевой синдром сохранялся долго, что обусловлено длительно сохраняющимся инфильтратом, последний подтверждалось на ультразвуковом исследовании области послеоперационной раны.




Рисунок.3 Выраженность боли по визуально-аналоговой шкале на 7 сутки после операции.

В рисунке 4 представлены показатели выраженности боли в области протезной пластики через месяц после операции. Следует отметить, что через месяц операции в основной группе больных показатель отсутствия боли наблюдается заметно больше (31,1%), чем в контрольной группе (21,8%). Слабая боль сохраняется почти одинаково в обеих группах (контрольная – 45,4% и основная – 45,9%). Умеренная боль в контрольной группе наблюдалась у 17 (30,9%), т. е. у каждого третьего больного, а в основной у 14 (22,9%), т.е. у каждого пятого больного. Сильные боли (75-100 балл) в основной группе не наблюдались, а в контрольной у 1,8% больных.




Рисунок4. Выраженность боли по визуально-аналоговой шкале в 1 месяц после операции.




Рисунок.5 Выраженность боли по визуально-аналоговой шкале через 6 месяцев после операции.

Наши исследования показали, что через 6 месяцев после операции отсутствие боли отмечено у 43,6% больных в контрольной группе и у 32 (52,4%) в основной группе. Показатель слабой боли в обеих группах были близкими. Однако умеренная боль сохранялось в

контрольной группе у 21,8% больных, а в основной у 13,1%. Следует отметить, что сильная боль в обеих группах не наблюдалось. Ощущение инородного тела в области операции через 6 месяцев после операции испытывали 32,8% больных в группе тяжелых сеток и 20,9% в группе легких сеток ($p=0,123$). Только у 2,8% больных, обратившихся с жалобами на ощущение инородного тела в области аллогерниопластики через 6 месяцев наблюдения, отмечалась также боль в покое. Различий в потреблении анальгетиков между группами не было. В целом 93,8% пациентов в группе тяжелых сеток и 98,5% пациентов в группе легких сеток не применяли никаких анальгетиков через 6 месяцев.

Таким образом, низкая частота боли после аллогерниопластики отмечена у 43,6% пациентов в группе тяжелых сеток и у 52,4% пациентов в группе легких сеток, т.е. боли не были отмечены через 6 месяцев наблюдения. В то же время частота возникновения боли в области аллогерниопластики при любых физических нагрузках была высокой в обеих исследуемых группах (53,4% в группе тяжелых сеток против 37,9% в группе легких сеток).

Мы обнаружили, что только хроническая боль в области аллогерниопластики в покое зависела от использования сетки, однако наблюдалась положительная тенденция к снижению частоты боли в области аллогерниопластики в группе легких сеток при любой физической нагрузке.

Следует отметить, хотя частота хронической боли при физической нагрузке была высокой в обеих исследуемых группах, низкий расход анальгетиков через 6 месяцев после операции факт то, что боль в области операции не мешала повседневной деятельности большинства пациентов, указывает на то, что боль, которую они испытывали, не беспокоила их значительно. Больше пациентов испытывали ощущение инородного тела после герниопластики с использованием тяжелой сетки по сравнению с легкой сеткой (34,4% против 17,9%), но разница была статистически не достоверна.

Наше исследование показывает, что по сравнению с тяжелой сеткой легкая сетка имеет некоторые преимущества в уменьшении хронической боли в месте операции после аллогерниопластики. Статистически значимых различий по другим критериям (боль при кашле, при вставании из положения лежа в положение сидя) не было, но была очевидна тенденция к меньшему количеству пациентов с болью в группе с легкой сеткой, чем в группе с тяжелой сеткой. Применение шкал в повседневной практике позволяет оценивать эффективность проводимого лечения, анализировать собственный опыт и сравнивать его с отечественными и зарубежными коллегами.

Выводы

1. Анализ результатов надпоясничной аллогерниопластики с использованием визуально-аналоговой шкалы показали, что легкая сетка по сравнению с тяжелой сеткой сопровождается с меньшим болевым синдромом. При этом, ощущение инородного тела в области операции через 6 месяцев после операции испытывали 32,8% больных в группе тяжелых сеток и 20,9% в группе легких сеток.
2. Применение визуально-аналоговой шкалы позволяет оценивать эффективность проводимого лечения, анализировать собственный опыт и сравнивать его с отечественными и зарубежными коллегами.

REFERENCES / СНОСКИ / ИҚТИБОСЛАР:

1. Александрович, Ю.С. Оценочные и прогностические шкалы в медицине критических состояний /Ю.С. Александрович, В.И. Гордеев. – ЭЛБИ-СПБ 2015; С. 10–15.
2. Суковатых Б. С., Иванов А. В., Жуковский В. А. и др. Выбор полипропиленового эндопротеза для пластики брюшной стенки // Вестн. хир. им. И. И. Грекова 2013; 6:С. 41–45.
3. Anurov M. V., Titkova S. M., Oettinger A. P. Biomechanical compatibility of surgical mesh and fascia being reinforced: dependence of experimental hernia defect repair results on anisotropic surgical mesh positioning. *Hernia* 2012; 2 (16); P. 199–210.

4. International Association for the Study of Pain (1986) Classification of chronic pain. Descriptions of chronic pain syndromes and definitions of pain terms. Prepared by the International Association for the Study of Pain, Subcommittee on Taxonomy. Pain Suppl 3: S1–S226.
5. Koch A, Bringman S, Myrelid P, Smeds S, Kald A (2008) Randomized clinical trial of groin hernia repair with titanium-coated lightweight mesh compared with standard polypropylene mesh. Br J Surg 95:1226–1231.
6. Sommer, C.L. Pain 2016: Refresher Courses /C.L. Sommer, M.S. Wallace, S.P. Cohen, M. Kress // 16th World Congress on Pain. – 2016; 1: P. 12–16.
7. O’Dwyer PJ, Kingsnorth AN, Molloy RG, Small PK, Lammers B, Horeysek G (2005) Randomized clinical trial assessing impact of a lightweight or heavyweight mesh on chronic pain after inguinal hernia repair. Br J Surg 92:166–170.

БИМЕДИЦИНА ВА АМАЛИЁТ ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ БИМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ

ТОМ 8, НОМЕР 1

JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE

VOLUME 8, ISSUE 1

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000